

**B.Mengliyev, K.Musulmonova , A.Murtazoyev, D.To‘rayeva,
S.Yoqubova, O.Xudayberdiyeva , G.Hotamova**

LINGVISTIK EKSPERTIZADA NUTQ TAHLILI METODIKASI

Jamoaviy monografiya

**TOSHKENT
«IJOD-PRINT»
2023**

UO'K 7.03(075.8)

KBK 7.03(075.8)

M 57

Lingvistik ekspertizada nutq tahlili metodikasi. Jamoaviy monografiya
/ Mas'ul muharrir: B.Mengliyev. – Toshkent, 2023. – 144 b.

Mualliflar: B.Mengliyev, K.Musulmonova, A.Murtazoyev,
D.To'rayeva, S.Yoqubova, O.Xudayberdiyeva, G.Hotamova

Mas'ul muharrir: B.Mengliyev – ToshDO'TAU Amaliy filologiya
kafedrası mudiri, filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar: I.Ernazarova –O'zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti o'zbek tili va adabiyoti, ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası
dotsenti v.b., Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

I.Islomov – ToshDO'TAU dotsenti v.b., filologiya fanlari doktori
(DSc)

Mazkur monografiya Toshkent Amaliy fanlar universiteti Ilmiy
kengashining 2023-yil 7-dekabrgi yig'ilishida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9733-1-4

© **B.Mengliyev, 2023**

© **«Ijod-Print», 2023**

I BOB. LINGVISTIK EKSPERTIZA TUSHUNCHASINING MOHIYATI, TARKIBIY QISMLARI VA TAHLIL BOSQICHLARI MAZMUNI

- 1.1. Lingvistik ekspertiza. Talab va ehtiyoj (B.Mengliyev)6
- 1.2. “Lingvistik ekspertiza” tushunchasining mohiyati, Lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismlari tavsifi, lingvistik ekspertizada metodologiya, metodika va metod masalalari (K.Musulmonova).....14
- 1.3. Plagiatlik tushunchasi va plagiatlik holatlarida lingvistik ekspertiza(A.Murtazoyev).....46

II BOB. NUTQ HUDUDIY VA YOSHGA XOSLIGINI ANIQLASH BO‘YICHA LINGVISTIK EKSPERTIZA

- 2.1. Nutq hududiy xosligini aniqlash bo‘yicha lingvistik ekspertiza. Tilshunoslikda noadabiy leksik unsur tushunchasi (D.To‘rayeva).....71
- 2.2. Anonim xatlarda noadabiy grammatik unsurlarning voqelanish xususiyatlari va omillari. Noadabiy unsurlarning shaxs yoshiga ko‘ra xoslanishi (S.Yoqubova).....95

III BOB NUTQ GENDER XOSLIGINI ANIQLASH BO‘YICHA LINGVISTIK EKSPERTIZA

- 3.1. Tilshunoslikda gender tushunchasi va genderolingvistik tadqiqotlar (O.Xudoyberdiyeva).....113
- 3.2. Qiz bola yozma nutq harf shakllarining xususiyatlari.Qiz bola yozishmalarining leksik-semantik xususiyatlari (G.Hotamova).....123

SO‘ZBOSHI

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatimizda bir yilda 500 dan ortiq matn lingvistik ekspertizadan o‘tkaziladi. Bugungi kunda kriminalistik vaziyatlarda turli anonim matnlar muallifini matnning lingvistik belgilariga ko‘ra aniqlash, shaxsning hududiy, gender, yoshga ko‘ra xosligini asoslash va muallif identifikatsiyasini amalga oshirish, “shaxsni obro‘sizlantirish” mazmunli birliklarda haqorat darajasini baholash, tuhmat va haqorat holatlarini aniqlashtirish va farqlash, shaxsiy daxlsizlikni himoya qilish, turli reklama matnlarini leksik-semantik jihatiga ko‘ra tahlil qilish, konfliktli matnlarda salbiy chaqiriq, ekstremistik mazmun bor/yo‘qligini asoslashda lingvistik ekspertizaning roli beqiyos. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining normativ-huquqiy hujjatlarni lingvistik ekspertizadan o‘tkazish haqidagi 2021-yil 20-apreldagi 682-son qarori muammo qamrovining nechog‘lik keng ekanligini ko‘rsatadi.

Tilning nutqiy vazifalarini anglash va to‘g‘ri yo‘naltira bilish ijtimoiy faoliyat uchun o‘ta muhim. Til imkoniyatlaridan amaliy foydalanish samaradorligi ko‘plab fan sohalaridagi mavjud muammolar yechimiga yo‘l ochishida ham ko‘zga tashlanadi. Shu ma’noda tilshunoslik va boshqa fanlar integratsiyasi e’tiborga molik muammo, masala va jarayonlardan.

Jahonda fanlar integratsiyasi jadallashib borayotganligi ayon. O‘z o‘rnida, lingvistika ham tabiiy, ham ijtimoiy-gumanitar, ham aniq fanlar bilan o‘zaro kesishadi, bu esa, o‘z navbatida, yangi fan tarmoqlarinig shakllanishiga zamin hozirlaydi. Bugungi kunda fan “oraliq” sohalarining rivoji bejiz emas. Lingvofilosofiya, lingvopsixologiya, lingvodidaktika, neyrolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, etnolingvistika, lingvokognitologiya, lingvopragmatika kabilar shular jumlasidan. Masalan, lingvistika va huquqshunoslik kesishmasida bir emas, bir nechta yangi fan tarmog‘i yuzaga kelib ulgurdi va bu jarayon muttasil davom etayotir. Xususan, “Yuridik tilshunoslik”, “Lingvistik ekspertologiya”, “Lingvokriminalistika” singari “qo‘shma” sohalar shular jumlasidan. Zotan, muayan bir fan muammosini shu fanning o‘zi bilangina yechib bo‘lmaydi. Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan “Lingvistik ekspertizada nutq tahlili metodikasi” jamoaviy

monografiyasi o‘zbek tili lingvistik ekspertologiyasining amaliy va nazariy masalalari muammolariga bag‘ishlangan.

Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan ushbu monografiyada lingvistik ekspertiza. Talab va ehtiyoj (B.Mengliyev), lingvistik ekspertiza mohiyati, tarkibiy qismlari va metodologiyasi (K.Musulmonova), lingvistik ekspertizada plagiatlik tushunchasi (A.Murtazoyev), nutq hududiy xosligini aniqlash bo‘yicha lingvistik ekspertiza (D.To‘rayeva), nutq yoshga doir xoslanishini aniqlash bo‘yicha lingvistik ekspertiza (S.Yoqubova), lingvistik ekspertiza ve gender tadqiqotlar (O.Xudoyberdiyeva), lingvistik ekspertizada qiz bolalar yozishmalari xususiyatlari (G.Hotamova) muammolari yoritilgan.

Monografiya lingvistik ekspertiza borasida monografik tadqiqotlar olib borish, filologiya, amaliy filologiya yo‘nalishidagi bakalavriat va magistratura bosqichi talabalariga “Lingvistik ekspertiza” fanini o‘qitishda nazariy material vazifasini bajaradi.

Baxtiyor Mengliyev,

filologiya fanlari doktori, professor

I BOB. LINGVISTIK EKSPERTIZA TUSHUNCHASINING MOHIYATI, TARKIBIY QISMLARI VA TAHLIL BOSQICHLARI MAZMUNI

1.1. Lingvistik ekspertiza. Talab va ehtiyoj*¹

Keyingi yillarda mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarida tez-tez tilga olinayotgan, jahonda esa jadal sur'atlarda rivojlanayotgan lingvistik ekspertizaning tadqiq obyekti ancha keng. Yaratilayotgan tadqiqotlarda lingvistik ekspertiza sud-ekspertizaning va, shuning barobarida, tilshunoslikning ajralmas tarkibiy qismi ekanligi o'z isbotini topdi.

Lingvistik ekspertizada tilshunoslik amaliy vazifa bajaradi: lingvistik bilimlar dolzarb ijtimoiy muammolarni hal qilishga imkon beradi (xususan, lingvistik ekspertiza til dalillariga asoslangan ma'lumotlarni olish usulidan biri). An'anaviy yozishmalar, e-mail xabar, ijtimoiy tarmoq, OAV materiallarida aks etgan turli ziddiyatli matnlarning lingvistik ekspertizasi sud uchun ham, tilshunoslik uchun ham birdek ahamiyatli. Dastlab, gumonlanuvchilarning ko'rsatmalari asosida lingvistik ekspertiza o'tkazilgan bo'lsa, u keyinchalik SMS xabarnomalar, turli tvit va kommentlar asosida ham amalga oshirila boshladi. Albatta, lingvistik ekspertologiya chegarasini bu bilan cheklab bo'lmaydi.

Ijtimoiy buyurtma

2021-yil 13-iyulda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'rtasida ilmiy-amaliy hamkorlik to'g'risida memorandum imzolandi. Unga muvofiq, quyidagi vazifalar qo'yilgan edi:

- respublika ma'muriy hududlarida yashovchi aholining so'zlashuv tilida o'zbek adabiy tilidan chetga chiqishi bo'yicha leksik va semantik tahlilning ma'lumotlar bazasini yaratishga amaliy ko'maklashish;
- milliy mentalitet xususiyatiga asoslangan ayol va erkaklarning qo'lyozma matnlarni bajarishdagi o'ziga xos umumiy va xususiy belgilarini farqlashga doir ishlarni tizimlashtirish;

¹ Baxtiyor Mengliyev. Tosh DO'TAU professori, filologiya fanlari doktori.

- maktab o'quvchilari tomonidan lotin yozuviga asoslangan matn yaratishda yozma harakat ko'nikmasining shakllanish dinamikasini tahlil qilish;
- o'zbek tilida vulgar so'zlar lingvistik ekspertizasi bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish;
- o'zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish bosqichlari, maqsadi va vazifalarini belgilash;
- o'zbek tili yozma matnlarining leksik-semantik, stilistik, morfologik, va sintaktik belgilarining hududiy farqlanish xususiyatlarini aniqlash;
- Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining hududiy oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilining leksik va dialektik yo'nalishida o'tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlarini lingvistik ekspertiza maqsadida to'plash va tizimga solish.

Memorandumda belgilangan vazifalar doirasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni jadalashtirish, samarali tashkil etishda magistratura mutaxassisligini tashkil etish va tizimli faoliyatni yo'lga qo'yish, davlat grantlari doirasida amaliy va fundamental loyihalarni ishlab chiqish zarur.

Lingvistik ekspertiza nima?

Lingvistik ekspertizani og'zaki yoki yozma matn ko'rinishidagi nutqni protsessual tartibga solishga dastak vazifasini bajaruvchi vosita deyish ham mumkin. O'z navbatida, protsessual tartibga solingan tadqiqotda sud nutqi va umumiy tilshunoslik bo'yicha chuqur bilimlar talab qilinadi. Masalan, til murakkab tuzilishga ega sistema. Tilda mavjud imkoniyatlar va o'ziga xosliklar katta va ko'p qirrali. Shu boisdan uni anglay olish va to'g'ri talqin qilish qiyin. Tilda turli nozikliklar mavjud bo'ladi. Nutq aktini tahlil qilish orqali ekspert muallif va uning psixologik holati haqida tushuncha hosil qilishi, umumiy xulosa berishi mumkin. Lingvistik ekspertiza ziddiyatli matnlarda uchrovchi kichik belgilarni umumiy belgiga yetkazish uchun mo'ljallangan. Lingvistik ekspertiza yordamida ma'lum bir holatda isbotlanishi kerak bo'lgan haqiqiy holatlar aniqlanadi. Muayyan ishning haqiqiy holatlarini aniqlashda uning lisoniy komponentini tahlil qilish orqali yakuniy xulosalash lingvistik ekspertiza orqali amalga oshiriladi.

Matnni o'rganish, uning tub mohiyatini tushunish va talqin etish uchun chuqur bilimlar majmui talab etiladi. Muayyan matnni maxsus filologik bilimlarsiz tahlil qilish, umumiy xulosa chiqarish va uning mohiyatini ochish mumkin emas. Ayniqsa, ziddiyatli matnlarda umumiy baho berish, matndagi so'zlarning qiymat darajasini aniqlash matn mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Matn deyilganda badiiy asarlar matnigina emas, balki yuridik matnlar ham ko'zda tutiladi. Istalgan turdagi yuridik matnlarning xoh og'zaki, xoh yozma ko'rinishi bo'lsin, mohiyatini yoritish lingvistik ekspertiza o'tkazish orqali kechadi.

Lingvistik ekspertizaning ijtimoiy ahamiyati

Lingvistik ekspertiza – boshqa sud ekspertizalari qatori sud jarayonida xolis xulosa chiqarishga yordam beruvchi jarayon. Shu boisdan respublikamizda lingvist-ekspertlar tayyorlash, malakasini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish, mavjud lingvistik ekspertiza markazlari faoliyatini takomillashtirish lozim. O'zbek yozma matnlarida quyidagi holatlar bo'yicha ham sud ishlarida lingvistik ekspertizalar tashkil etilishi lozim: 1) noverbal nutq vositalari lingvistik ekspertizasi (noverbal nutq vositalarining qo'llanishi, lingvistik mohiyatiga asoslangan holda); 2) neyming(nameing)lar bo'yicha lingvistik ekspertiza (nomlanish bo'yicha, turli logotiplar, firma, kafe, restoran nomlari bo'yicha); 3) siyosiy nutqning lingvistik ekspertizasi (siyosiy doira vakillari nutqidagi g'alizlik, shovinistik kayfiyat, noxolislik singari unsurlar bor yoki yo'qligini lingvistik ekspertiza orqali asoslash).

Lingvistik ekspertizani faqat sud jarayoni uchun ahamiyatli deb baholamasdan, fanning boshqa tarmoqlarida ham joriy yetish mumkin. Uni amalga oshirish jarayonida umumiy tahlil bosqichlaridan xususiy tahlil bosqichlariga o'tish maqsadga muvofiq.

Lingvistik ekspertiza o'tkazish maqsadi

Lingvistik ekspertiza tayinlashdan ko'zlangan maqsad:

1)sud xulosasini berishda xolislik va haqqoniylik tamoyillarini ilgari surish;

2)matnning lingvistik xususiyatlarini ekspertiza qilish orqali gumonlanuvchi, ayblanuvchi va aybdor haqidagi fikrlarni daliliy asoslash;

3)lingvistik ekspertiza orqali kriminalistik masalalarga yechim topish;

4)antiplagiat dasturlaridan farqli ravishda mazmunan o'xshashlik kategoriyasiga ko'ra mualliflik huquqini himoya qilish.

Lingvistik ekspertiza qilishning qator vazifalari ham mavjud:

1)aynan konfliktli matnda qo'llangan so'zlar, iboralar, barqaror frazeologik birikmalar (iboralar) ning mazmun jihatdan matnga aloqadorligini aniqlash va baholash;

2)mualliflik huquqini himoya qilish yoki salbiy g'oyalarning mavjud/mavjud emaslik faktorini aniqlash maqsadida tovar belgilari, tashkilot, xususiy firma va kompaniyalar shiorlari; reklama matnlari, tijorat, tovar nomlarini tekshirish;

3)matnni lingvistik ekspertiza qilish orqali konfliktli vaziyatlarga yechim topish maqsadida o'rganish;

4)so'z bilan bog'liq jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish.

Lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismlari

Sud jarayonida turli obektlarni tekshirishda maxsus mutaxassisning malakasiga ehtiyoj tug'iladi. Quyidagi ziddiyatli holatlarda aynan matn bilan ishlash zarurati tug'ilganda, lingvist-ekspert malakasiga ehtiyoj seziladi:

1)shaxsni obro'sizlantirish bilan bog'liq holatlar aniqlanganda;

2)ekstremistik faoliyat bilan bog'liq holatlar aniqlanganda;

3)tovar belgilari, domen va savdo mahsulotlari nomlari hamda boshqa intellektual mulk va mualliflik huquqi obyektlarining o'xshashlik darajasini belgilashda;

4)mualliflik huquqining buzilishi (plagiat) bilan bog'liq holatlarni aniqlashda;

5)reklama mahsulotlarining salbiylik bilan bog'liq holatlarini aniqlashda;

6)me'yoriy hujjatlar, shartnomalar va boshqalarning mazmunini aniqlashda;

7)og‘zaki suhbatlar va yozma matnlarda yashirin ma’lumotlarni oshkor qilishda;

8)lingvistning maxsus bilimlarini talab qiladigan boshqa holatlarda;

9)matn avtorzitsiyasini amalga oshirish. Turli anonim matnlar muallifini lingvistik ekspertiza orqali aniqlash, yoshi, hududiy mansubligi, jins bo‘yicha muallifning taxminiy portretini yaratish.

Lingvistik ekspertiza ta’limi

Ayni paytda ToshDO‘TAU, QarDU, NamDU, UrDU Amaliy filologiya yo‘nalashilarida lingvistik ekspertiza ta’limi ham yo‘lga qo‘yilgan. ToshDO‘TAU Amaliy filologiya yo‘nalishida lingvistik ekspertiza bo‘yicha quyidagi o‘quv kurslaridan mashg‘ulotlar olib borilmoqda va ularning mazmuni quyidagicha:

1)Jahon va o‘zbek lingvistik ekspertizasining shakllanishi, o‘ziga xos xususiyatlari.

2)Lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismlari tavsifi.

3)Xatshunoslik ekspertizasi va lingvistik ekspertiza.

4)Shaxsni obro‘sizlantirish mazmunli holatlarda lingvistik ekspertiza o‘tkazishning nazariy va amaliy asoslari.

5)Siyosiy matnlar lingvistik ekspertizasi.

6)Lingvistik ekspertizada matn avtorizatsiyasi masalasi.

7)Haqorat matnlari lingvistik ekspertizasi.

8)Anonim matnlarda muallif identifikatsiyasi.

9)Grafologiya va lingvistik ekspertiza.

10) Plagiatlik holatlari bo‘yicha lingvistik ekspertiza.

11) Reklama matnlari lingvistik ekspertizasi.

12) Nomlanish bo‘yicha lingvistik ekspertiza.

13) Tovar belgilari, domen nomlari lingvistik ekspertizasi.

14) Qo‘lyozmalarda shaxsning psixofizologik ta’sir omillarini aniqlash.

15) Imzolar bo‘yicha lingvistik ekspertiza.

Bugungi kunda respublikamizda lingvistik ekspertiza markazlarini tashkil etish, lingvistik ekspertizani amalga oshirishda mavjud lingvistik bazani shakllantirish, magistratura mutaxassisliklarini tashkil etish orqali sohani takomillashtirish zarur. Shu boisdan “Lingvistik ekspertiza” magistratura mutaxassisligining davlat ta’lim standartlari, malaka talablari va o‘quv rejalari tayyorlanib, mutaxassislikni ochish uchun O‘zR IIV tomonidan buyurtma olingan. Magistratura ta’limida o‘qitilishi rejalashtirilayotgan o‘quv kurslari quyidagi masalalarni qamrab oladi:

- 1) Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistika.
- 2) Lingvistik ekspertizada matn avtorizatsiyasi.
- 3) Qo‘lyozuvi bo‘yicha identifikatsion alomatlar.
- 4) Shaxsni obro‘sizlantirish mazmunli matnlar tavsifi.

Lingvistik ekspertiza bo‘yicha tadqiqotlar

Lingvistik ekspertologiya keng taraqqiy etib borayotgan, ayni damda fan sohalari ichida yangi tarmoq sanaladi. Soha rivoji natijasida tadqiqot doirasi ham kengayib bormoqda. Bugungi kunda jahon miqyosida lingvistik ekspertologiya yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassis kadrlar tayyorlovchi oliy o‘quv yurtlari, tashkilotlar, maxsus jurnal, monografiyalar, qo‘llanmalar yaratilgan. Xususan, 1993-yilda tuzilgan Xalqaro lingvist-ekspertlar Assotsiatsiyasi, 1994-yil tashkil etilgan “Xalqaro til, nutq va qonun” jurnali, qator darsliklar: Kultxard va Jonson (2007), Gibbons (2003), Olsson (2008), monografiyalar: Cotterill (2003), Galyashina (2003), Yeades (2008), Heffer (2005), Heydon (2005), Brinev (2009), shuningdek, bir qancha o‘quv qo‘llanmalari shular jumlasidan. Endilikda Rossiya, Indoneziya va shu singari bir qator davlatlarda bakalavriat va magistratura yo‘nalishlarida mutaxassislar tayyorlaydigan oliy o‘quv yurtlari tashkil etilgan. Mualliflik identifikatsiyasi, ovozli identifikatsiya qilish kabi holatlar, shuningdek, tarjima jarayonlaridagi plagiatlik holatlari, turli xildagi

ekstremistik xarakterga ega bo'lgan chorlovlar, shaxs intellektual mulkiga tajovuz ko'rinishidagi turli sud ishlarida ziddiyatli matnni tahlil qilishda lingvistik bilimlarga ehtiyoj tug'iladi. Ayniqsa, matnda avtorizatsiya masalasi har doim sud-ekspertlik ishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Matn avtorizatsiyasi amaliy lingvistik tadqiqotlar sohasi sifatida matndan uning muallifi haqida ma'lumot olishga qaratilgan. Matn avtorizatsiyasi bilan bog'liq holatlarning alohida ajratilishiga sabab sud ekspertizalari sirasida muallifshunoslik ekspertizasi, xatshunoslik ekspertizasi alohida yo'nalish sanaladi. E'tiborli jihat, har ikki ekspertiza turida lingvistik bilimlarga talab yuzaga keladi. Bugungi kunda O'zbekistonda quyidagi mavzularda falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalar himoya qilindi. Xususan, "Shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishi" (Dildora To'rayeva, ToshDO'TAU), "O'zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertiza qilish jarayoni, bosqichlari " (Kamola Musulmonova, ToshDO'TAU), "Ilmiy matndagi sodda darak gaplar mazmuniy o'xshashlik darajalarini aniqlashning lingvistik asoslari" (Abror Murtazoyev) singarilar shular jumlasidandir. Lingvistik ekspertologiya -metodologik asoslarini yaratish uchun quyidagi mavzularda doktorlik dissertatsiyalari sifatidagi fundamental tadqiqotlar ustida ishlar amalga oshirilmoqda: "O'zbek milliy lingvistik ekspertologiyasi metodologiyasi" (Kamola Musulmonova), "Noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishini aniqlash metodologiyasi" (Dildora To'rayeva), "Normativ huquqiy hujjatlar lingvistik ekspertizasi" (Abror Murtazoyev).

Demak, lingvistik ekspertologiya – zamon talabiga mos va ehtiyoj kundan kunga ortib borayotgan soha. Dastlabki holatlarda lingvistik ekspertiza tayinlash sud jarayoni uchun asosli deb baholanmagan, shu sababdan soha rivoji Respublika sud ishlarida qo'llanmadi. Birinchi sabab sud tomonidan lingvist-ekspertlar qo'llaydigan usullar tergov uchun dalil bo'lib xizmat qilmaydi, deb baholanishi bo'lsa, ikkinchi tomondan, lingvist-ekspertlar buyurtmachi manfaatiga asosan ish ko'radi degan stereotip shakllanib qolganligi bo'ldi. Biroq shuni alohida ta'kidlash lozimki, lingvist-ekspert mavjud dalil asosida ishlaydi. Ekspert xulosalari ham sud tomonidan berilgan savollarga, dalillarga asoslanib beriladi. Demak, lingvistik ekspertiza obyektiv tarzda ish ko'radigan jarayon. U kriminalistika bilangina chegaralanib qolmaydi. Har bir lingvistik ekspertiza faqat jinoyat bilan bog'liq holatlarni tahlil

qilmaydi. Ziddiyatli matnlarning aksariyat turlarida lingvistik ekspertiza amal qiladi. Bugun soha rivojida quyidagi muammoli masalalarga yechim topish muhim ahamiyat kasb etadi:

1) sud ekspertizalari negizida boshqa sud ekspertizalari bilan muvofiqlikda lingvistik ekspertiza yo‘nalishini tashkil etish, nafaqat haqorat holatlarini baholash, balki, yuqorida ta’kidlanganidek, turli konfliktli matnlarni ekspertiza qilish orqali doirasini kengaytirish;

2) lingvistik ekspertiza bo‘yicha lingvist-ekspertlar tayyorlash, malakasini oshirish mexanizmini ishlab chiqish, shu yo‘nalishda magistratura yo‘nalishlarini tashkil etish;

3) nodavlat lingvistik ekspertiza markazlari faoliyatini tashkil etish;

4) shu yo‘nalishda yaratilgan ilmiy tadqiqotlarning amaliy rolini oshirish, hamda sud ekspertizalarining yordamchi vositasiga aylantirish;

5) yaqin kelajakda lingvist-ekspertlar assotsiatsiyasini tashkil etish, hamda o‘zbek lingvistik ekspertologiyasining jahon standartlariga muvofiq milliy modelini yaratish.

Ushbu muammolarning yechimi kelgusida sud-kriminalistika sohasidagi bo‘shliqlarni to‘ldirishga, mavjud muammoli masalalarga ijobiy yechim topishga xizmat qilishi shubhasiz.

1.2. “Lingvistik ekspertiza” tushunchasining mohiyati, Lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismlari tavsifi, lingvistik ekspertizada metodologiya, metodika va metod masalalari *²

“Yuridik tilshunoslik” termini birinchi marta 1968-yilda ishlatilgan. O’sha yili London universitetida ishlagan shved tilshunosi Yan Svartvik bir necha o’n yillar oldin Rilington Pleys ko’chasi 10-uy (Kensington, London)da sodir bo’lgan shov-shuvli kriminalistik ishning matn bilan bog’liq jihatlarini tahlil qiladi. Shundan so’ng sud-tergov jarayonlarida matnni lingvistik xususiyatlariga ko’ra ekspertiza qilish bo’yicha ishlar jadallashdi. Ushbu kriminalistik ish va sud xulosasi haqida eshitgach, professor Yan Svartvik o’z ma’ruzasida ushbu terminni qo’llaydi. Yuqoridagi ma’lumotlarga tayangan holda aytish mumkinki, o’tgan asrning ikkinchi choragida lingvistik bilimlarni sud-huquq tizimiga keng tatbiq qilish ehtiyoji sud ekspertizalari qatorida yangi ekspertiza turi, amaliy tilshunoslikda esa yangi yo’nalish – lingvistik ekspertologiyaning shakllanishiga sabab bo’ldi. Jahonda ushbu yo’nalish umumiy ma’noda “lingvistik ekspertiza” deb nom oldi. Lingvistik ekspertizani sud ekspertizalari sirasiga kirishi bilan bir qatorda, amaliy tilshunoslik sohasi sifatida baholash o’rinli. Demak, matnni lingvistik xususiyatlariga ko’ra ekspertiza qilishga asoslangan jarayonni lingvistik ekspertiza deb, keng ma’noda esa fan sohasi sifatida lingvistik ekspertologiya deb nomlash maqsadga muvofiq. Lingvistik ekspertologiya keng ma’noda nutqiy hodisalarni yuridik sharoitlarda o’rganish yoki tahlil qilish deb ta’riflanishi mumkin. Ushbu soha o’tgan asrning 80-yillarida Buyuk Britaniyada o’ziga xos soha sifatida shakllana boshladi. 90-yillarda professor Malkolm Kultxardning “Birmingemning olti murojaati” asari ushbu yo’nalishdagi eng yirik ishlardan biri edi.

Lingvistik ekspertologiyaning asoschilaridan sanalgan Yan Svartvikning “Evans bayonotlari” ishiga ko’ra, 1949-yil 30-noyabrda Timoti Jon Evans o’z ayoli Kristi va qizi Jeraldinaning qotili sifatida ayblanib hibsga olinadi. Tergov davomida Evansdan 3marta ko’rsatma olinadi. Evans bergan ko’rsatmalari asosida o’z shaxsiy iqrorligi bilan ayblanib, o’limga hukm qilinadi. Ushbu voqeaga ko’pchilik qatori qiziqib qolgan Yan Svartvik Evansning bergan ko’rsatmalarini uning oldingi xatlari, yozma nutqlari bilan solishtirib ko’radi. Solishtirilgan

² Kamola Musulmonova. ToshDO‘TAU kata o’qituvchisi, filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

matnlardagi soʻzlar chastotasi, sintaktik bogʻlanishlar bir-biridan farq qiladi. Ana shu farqlarni asoslagan holda Evans qotil emas, degan xulosaga keladi. Dalillar, gumonlanuvchilar qayta tergov qilinganda, har biridan yozma koʻrsatma olinadi va haqiqiy qotil topiladi. Bu vaqtda Evansga sud hukmi oʻqilib, jazo ijro etib boʻlingan edi. Yan Svartvik lingvistik ekspertiza sud jarayoni uchun muhim dalil ekanini oʻz bayonotlarida birinchilardan boʻlib taʼkidlaydi³.

Keyingi yillarda yaratilgan tadqiqotlarda lingvistik ekspertiza sud ekspertizalarining ajralmas tarkibiy qismidan biri ekanligi oʻz isbotini topdi. Lingvistik ekspertizada tilshunoslik amaliy vazifa bajaradi: tilshunoslikka oid bilimlar muhim ijtimoiy, yuridik, kriminalistik masalalarning adolatli yechim topishiga imkon beradi. Aniqroq aytadigan boʻlsak, lingvistik ekspertiza – mavjud konfliktli vaziyatda dalillarni olish va oydinlashtirish usullaridan biri.

E-mail xabarlar, ijtimoiy tarmoq, OAV materiallari orqali uzatilgan turli ziddiyatli matnlarning lingvistik ekspertizasi sud uchun ham, tilshunoslik uchun ham birdek ahamiyat kasb etadi. Dastlab, gumonlanuvchilarning koʻrsatmalari asosida lingvistik ekspertiza oʻtkazilgan boʻlsa, keyinchalik SMS-xabarnomalar, turli mikro-bloklar (tvitlar, kommentlar) asosida ham amalga oshirila boshlandi. Albatta, lingvistik ekspertologiya chegarasini bu bilan cheklab boʻlmaydi.

Lingvistik ekspertiza kriminalistikaning barcha turlariga aloqador boʻlmasligi mumkin. Biroq matn bilan ish koʻruvchi sohalarida lingvistik ekspertiza jarayoniga ehtiyoj tugʻiladi. Baʼzi jinoyatlar til orqali amalga oshirilganligi sababli tabiatan lingvistik xususiyatga ega. Masalan, tahdid qilish, tuhmat, haqorat, tovlamachilik singari holatlarda aynan lingvistik ekspertiza oʻtkazishga ehtiyoj tugʻiladi. Ushbu turdagi jinoyatlar bilan amalga oshiriladigan tergov jarayonlariga “til jinoyatlari” sifatida ham taʼrif berilgan⁴. Koʻp tilli matnlarni koʻrib chiqishda maʼnoni aniqlash uchun lingvist-ekspert va tilshunoslarning roli, ehtimol, yanada ravshanroq koʻrinadi, biroq muayyan tildagi matnlarda lingvistik belgilarni muammoning yechimiga olib boruvchi kalit sifatida samarali foydalanishda lingvistik ekspertizaning zarur ekanligi oydinlashadi. Til va huquq oʻrtasidagi munosabatlar mavjudligini asoslashga uringan olimlardan N.D.Golev quyidagilarni ajratib koʻrsatadi:

³ Jan Svartvik. The Evans statements. – Goterborg, 1968. – 27 p.

⁴ Solan L.M., Tiersma P.M. Speaking of Crime: The Language of Criminal Justice. – Chicago and London: The University of Chicago Press, 2005. – P. 40-46.

– “til yuridik nuqtayi nazardan turli konfliktli holatlarda tartibga solish vositasi sifatida ishlaydi;

– shuningdek, til tartibga solishni amalga oshiradigan vosita sifatida ishlaydi”⁵.

Birinchi qarashga muvofiq tilning yurisprudensiyadagi vazifasi oydinlashsa, ikkinchi ta’rif tilning nafaqat yuridik jihatdan, balki istalgan konfliktli matnlarni tartibga solishni amalga oshiradigan jarayon ekanligini anglatadi.

Badiiy asarlar tahlili jarayonida muallif yashagan davr, ijtimoiy tuzum haqida muayyan xulosalarni olish mumkin. Bundan tashqari, tahlil asarning g‘oyaviy yo‘nalishi va muallif strategiyasini aniqlashga yordam beradi. Xuddi shu ma’noda lingvistik ekspertizada og‘zaki va yozma nutq aktlari tekshiriladi. Nazariy bilimlar amaliyotga bevosita tatbiq etiladi. Sud jarayonida mavjud dalillar, guvohlarning ko‘rsatmalari, ayblanuvchining ko‘rsatmasi tekshiriladi. To‘plangan barcha materiallarni umumlashtirish va yakuniy qarorga kelishda dalillar, og‘zaki va yozma nutqlarni ekspertiza qilish muammo yechimiga yordam beradi. Ushbu terminni tavsiflashda keng va tor ta’rif ajratiladi. Keng ta’rif uchta kichik yo‘nalishni o‘z ichiga oladi:

a) qonunning yozma tili;

b) qonuniy kontekstda so‘zlashuv;

d) tildan dalil sifatida foydalanish.

Tor ta’rif bo‘yicha esa zarur o‘rindagina til ziddiyatli matn dalili sifatida ishlaydi⁶.

“Lingvistik ekspertiza – sud ekspertizasining turlaridan, tergovgacha va tergov jarayonida mavjud dalillarni asoslash va isbotlash usullaridan biri. So‘nggi bir necha yil ichida “tilshunoslik ekspertizasi” atamasi keng ishlatib kelingan. Ushbu ekspertizada asosiy e’tibor yozma nutqni leksik va uslubiy jihatdan o‘rganishga qaratilgan.”⁷ Biroq nutq hodisasi aks etadigan ekspertiza obyektlari va shu bilan bog‘liq sud ishlarining ko‘payishi mohiyatan keng qamrovli ekspertiza turiga ehtiyoj borligini ko‘rsatdi. Ana shu ehtiyoj negizida sud-lingvistik ekspertizasi yuzaga keldi.

⁵ Голев Н.Д. Юридический аспект языка в лингвистическом освещении. // Юрислингвистика. Проблемы и перспективы: Межвуз. сб. научных трудов / Под ред. Н.Д.Голева. – Барнаул: Изд-во Алт.ун-та, 1999. – С. 7–38.

⁶ Malcom C., Johnson A. The Routledge handbook of forensic linguistics (Routledge Handbooks in Applied Linguistics). – London: Routledge, 2010. – P.673.

⁷ Галяшина Е.И. Назначение, производство и оценка заключения судебной лингвистической экспертизы. – М., 2002. – 13 С. (Методические рекомендации)

Lingvistik ekspertiza sud ekspertizalari tizimidan o‘rin oluvchi, lingvistik bilimlar tatbiq etilishi lozim bo‘lgan ekspertiza turi.

Protsessual jihatdan lingvistik ekspertiza shaxs huquqlari buzilishining oldini olishga qaratilgan, tegishli qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan faoliyat turi. Shunday qilib, ekspertiza daliliy ma’lumotni olish usullari yoki vositalaridan biri va ushbu ma’lumotni boshqa usullar bilan olish imkoni bo‘lmaganda tayinlanadi. “Lingvistik ekspertiza fakultativ ekspertiza sinfiga kiradi, ya’ni sud tomonidan oldindan belgilanadi. Tilshunoslik aspektida lingvistik ekspertiza – obyekt (obyektlar) haqida haqiqat/yolg‘onlikni tavsiflovchi bayonotlarning muallifini aniqlash mumkin/mumkin emasligini belgilaydigan obyektlarni o‘rganish turi”⁸.

“Sud-lingvistik ekspertizasida ekspertga qo‘yilgan savollardan kelib chiqadigan tadqiqot mavzusi to‘g‘risida nutq ishida gumonlanuvchi/jabrlanuvchi to‘g‘risida salbiy ma’lumotlar mavjud, degan xulosaning haqiqat/yolg‘onligi tekshiriladi”⁹.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, lingvistik ekspertiza sud-huquq tizimida yuzaga kelgan konfliktli matnlarni lingvistik belgilarga muvofiq tahlil qiladigan, umumiy xulosalarni asoslaydigan va mavjud dalillarni oydinlashtiradigan jarayondir.

Sud ishlarini amalga oshirishda har qanday vaziyat ham konfliktli deb baholanmaydi. Sud va tergovgacha jarayonda gumonlanuvchi mavjud dalillar va guvohlar ko‘rsatmalarini rad etsa, shaxsni obro‘sizlantirish bilan bog‘liq holatlarda haqorat/haqorat emaslik faktorini aniqlashda ziddiyatlar yuzaga kelsa, anonim xarakterga ega matnlarning muallifini aniqlash muammosi paydo bo‘lsa, bunday holatlardagi yechimini topmagan nutq material konfliktli matn sifatida baholanishi mumkin. Bunda lingvistik bilimlarni tatbiq etgunga qadar matnni texnik tekshirish (holati, ishlatilgan vositalar) amalga oshiriladi. Bunda diqqat qaratish joiz bo‘lgan asosiy jihatlar mavjud. Quyida ularni keltirib o‘tamiz:

- 1) matnni ziddiyatli/ziddiyatli emas faktori asosida baholash. Ziddiyatli deb topilgach, ekspertizaga taqdim etish;
- 2) lingvistik ekspertiza avvalida yozma matnlarni texnik tekshirish (qo‘lyozmalarda yozuv bosimi, varaq holati, ishlatilgan yozuv vositasi);

⁸ Галяшина Е.И. Назначение, производство и оценка заключения судебной лингвической экспертизы. – М., 2002. – 15 С. (Методические рекомендации)

⁹ Бринев К.И. Проблема тождества языковых единиц, задачи лингвистической экспертизы и пределы компетенции лингвиста-эксперта [URL: http://silberiaexpert.com/publ/problema](http://silberiaexpert.com/publ/problema).

3)matndagi soʻzlarni oʻzaro muvofiq yoki nomuvofiqlik kategoriyasi asosida tekshirish;

4)matnni mavzu yoʻnalishiga muvofiq semantik bloklash (matn mazmuni, gʻoyasini aniqlash);

5)davlat tuzumiga tajovuz yoki shaxsni obroʻsizlantirish mazmunidagi matnlarda salbiy maʼnoning bor/ yoʻqligini asoslash;

6)matnning oʻzgartirilgan/oʻzgartirilmaganlik faktorini aniqlash;

7)matnni huquqiy, lingvistik, psixologik, fiziologik faktorlar asosida tarkibiy qismlarga ajratish;

8)bir nechta namuna uchun berilgan matnlarni oʻxshashlik va farqlilik kategoriyasiga muvofiq tahlil qilish;

9)matnning pragmatik mazmun yoʻnalishini aniqlash.

Lingvistik ekspertiza tayinlashdan koʻzlangan maqsad:

1)sud xulosasini berishda xolislik va haqqoniylik tamoyillarini ilgari surish;

2)matnning lingvistik xususiyatlarini ekspertiza qilish orqali gumonlanuvchi, ayblanuvchi va aybdor haqidagi fikrlarni daliliy asoslash;

3)lingvistik ekspertiza orqali kriminalistik masalalarga yechim topish;

4)antiplagiat dasturlaridan farqli ravishda mazmunan oʻxshashlik kategoriyasiga koʻra mualliflik huquqini himoya qilish.

Lingvistik ekspertiza qilishning qator vazifalari ham mavjud:

1)aynan konfliktli matnda qoʻllangan soʻzlar, iboralar, barqaror frazeologik birikmalar (iboralar) ning mazmun jihatdan matnga aloqadorligini aniqlash va baholash;

2)mualliflik huquqini himoya qilish yoki salbiy gʻoyalarning mavjud/mavjud emaslik faktorini aniqlash maqsadida tovar belgilari, tashkilot, xususiy firma va kompaniyalar shiorlari; reklama matnlari, tijorat, tovar nomlarini tekshirish;

3)matnni lingvistik ekspertiza qilish orqali konfliktli vaziyatlarga yechim topish maqsadida oʻrganish;

4)soʻz bilan bogʻliq boʻlgan jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish.

Umuman olganda, ekspertiza termini mazmun jihatdan tekshirish, aniqlash va sinovdan oʻtkazishga asoslanadi. “Ekspertiza” atamasi (lotincha“*expertus*”dan olingan) “tajribali, bilimdon, sinovdan oʻtgan” kabi maʼnolarni anglatadi. Ekspertiza deganda vakolatli shaxslar tomonidan davlat, jamoat tashkilotlari, ayrim fuqarolarning manfaatlari

bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda olib boriladigan tadqiqotlar nazarda tutiladi¹⁰. Ekspertizalar inson faoliyatining boshqa sohalarida ham bo‘ladi. Xususan, savdo matnlari, qonun loyihasi, xatshunoslik ekspertizasi, reklama matnlari ekspertizasi va shu kabilarni aytish mumkin. Bularning barchasida lingvistik ekspertiza ishtirok etadi. Xususan, rus lingvistik ekspertologiyasida lingvistik ekspertiza o‘tkazish uch asosiy turga ajratiladi:

1)“anonimik holatlarida matn muallifi haqida ma’lumot tashuvchi sifatida leksik va grammatik birliklarni o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra tahlil qilish (muayyan hududga taalluqli axborotni o‘zida ifodalashiga ko‘ra);

2)konfliktli matnni ekspressivlik va emotsionallik kategoriyasiga muvofiq tahlil qilish orqali jamiyat ongiga ta’siri(ijobiy/salbiy)ni baholash;

3)inson faoliyati mahsuli sifatida turli savdo markalari, domen nomlarini ekspertiza qilish¹¹”.

Ingliz lingvistik ekspertologiyasida (“*forensic linguistics*”) lingvistik ekspertiza o‘tkazish asoslari quyidagicha belgilanadi:

1) matnlarda plagiatlik holatlarini aniqlash bo‘yicha matnni kompleks tahlil qilish (nafaqat ilmiy matnlar, balki intellektual mulkning matn bilan bog‘liq barcha turlariga aloqador);

2) savdo markalari nomlanishi bo‘yicha ziddiyatli holatlarni tahlil qilish;

3) matn avtorizatsiyasi masalasini turli ziddiyatli holatlarda tahlil qilish (guvoh bergan ko‘rsatma o‘ziga tegishlimi yoki ijtimoiy buyurtma mahsuli; qo‘lyozma matn, imzo gumon qilingan muallifga tegishlimi yoki yo‘qmi; ziddiyatli matnning turli belgilar(yosh, jins, hududiy xoslanish) asosida muallifini aniqlash haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilish¹².

Lingvistik ekspertizaga obyekt bo‘luvchi materiallarni quyidagi tartibda ajratib chiqish mumkin:

¹⁰Qarang:O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-prossesual kodeksi.22.09.1194. 170-175-modda

¹¹ Карлин И.П. и др. Основы криминалистической экспертизы материалов, веществ и изделий. – М.: 1993. – 58 С.

¹²Qarang. JohnOlssonForensic linguistics. – New York-Continuum International Publishing Group-2008. – p 265-273.

Malcolm C., Johnson A. An introduction to forensic linguistics. Language is evidence. UK: Routledge Park Square, Milton Park, Abingdon, – 2007. – P 250.

Malcolm C., Johnson A.. The routledge handbook of forensic linguistics. UK - Routledge, – 2007. – P.702

“1.1-jadval. Lingvistik ekspertiza o‘tkazish jarayonida obyekt bo‘luvchi matnlar”

№	Ovozli	Bosma	Qo‘lyozma	OAV va ijtimoiy tarmoq
	Diktofon orqali yozib olingan xabarlar	SMS-yozishmalar, anonim xatlar	Imzolar	e-mail xabarlar
	Telefon muloqotlari	Pochta orqali yuborilgan xatlar	Qo‘lyozma anonim xatlar	Tvit, kommentlar
	Tasodifiy kameralarda saqlangan ovoqli xabarlar	Guvoh, gumonlanuvchi ko‘rsatmalari	Qo‘lyozma intellektual mulk obyektlari	Ijtimoiy tarmoq orqali uzatilgan xabarlar(Telegram, WhatsApp, Viber)
	Og‘zaki muloqot, siyosiy nutqlar	Ashyoviy dalil vazifasini bajaruvchi matnlar	Qo‘lyozma shikoyat xatlari	Gazeta, jurnal matnlari
	Og‘zaki tarzda guvoh, gumonlanuvchi ko‘rsatmalari	Nomlar(tashkilot, firma, kafe, restoran va boshqalar)	Qo‘lyozma guvoh, gumonlanuvchi ko‘rsatmalari	Reklama matnlari

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni inobatga olgan holda, lingvistik ekspertizaning predmeti – tilning amaliy funksiyasini yurisprudensiya, xususan, kriminalistikaga tatbiq etish jarayonida aniqlangan faktik materiallar va munozaraga sabab bo‘luvchi konfliktli holatlar deyish mumkin. Turli tipdagi anonim xatlar, konfliktli matn turlari lingvistik ekspertiza o‘tkazishda obyekt vazifasini bajaradi.

Lingvistik ekspertizani og‘zaki yoki yozma ko‘rinishdagi nutqni protsessual tartibga solishda dastak vazifasini bajaruvchi vosita deyish ham mumkin. O‘z navbatida, lingvistik ekspertiza qilish mutaxassisidan chuqur bilim va malaka talab qiladi. Bunda yuridik, lingvistik bilimlar bilan bir qatorda, psixologik bilimlarga ham ehtiyoj tug‘iladi.

Til o‘ziga xos yirik tuzilishga ega bo‘lgan sistema va unda mavjud imkoniyatlar, o‘ziga xos jihatlar ko‘p. Shu sababdan uni anglash va o‘z o‘rnida to‘g‘ri talqin qila olish biroz murakkab jarayon. Nutqda esa turli nozikliklar, qochirimlar yoki ironiya o‘z aksini topadi. Nutq aktini tahlil qilish orqali lingvist-ekspert muallif, uning kommunikativ maqsadi, nutqning pragmatik mazmuni va shaxsning psixologik holati haqida tushuncha hosil qilishi, umumiy xulosa berishi mumkin. Lingvistik

ekspertiza ziddiyatli matnlarda uchrovchi kichik belgilarni umumiy belgiga yetkazish uchun mo'ljallangan jarayon. Lingvistik ekspertiza yordamida o'z isbotini topishi shart bo'lgan tergov jarayonidagi dalillar tahlil qilinadi. Muayyan konfliktli matnning asl mohiyatini asoslashda uning lisoniy komponentini tahlil qilish orqali yakuniy xulosalash lingvistik ekspertiza orqali amalga oshiriladi.

Matnni o'rganish, uning tub mohiyatini tushunish va talqin etish uchun chuqur bilimlar majmuyi talab etiladi. Muayyan matnni maxsus filologik bilimlarsiz tahlil qilish, umumiy xulosa chiqarish va uning mohiyatini ochish mumkin emas. Ayniqsa, ziddiyatli matnlarda umumiy baho berish, matndagi so'zlarning qiymat darajasini aniqlash matn mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Matn deyilganda, badiiy asarlar matnigina emas, balki yuridik matnlar ham ko'zda tutiladi. Istalgan turdagi yuridik matnlarning xoh og'zaki, xoh yozma ko'rinishi bo'lsin, mohiyatini yoritish lingvistik ekspertiza o'tkazish orqali kechadi.

Rus lingvistik ekspertologiyasida matn va uni sharhlash, ekspertizadan o'tkazish masalasiga ancha ilgari qo'l urilgan. Sud jarayonida guvohlarning ko'rsatmalari, ayblanuvchi, gumondorning nutqini baholash, aytilgan fikrning ijtimoiy xavflilik yoki xavfsizlik darajasini aniqlash ehtiyoji o'laroq lingvistik ekspertiza yuzaga keldi. O'zbek yozma matnlarini lingvistik ekspertizadan o'tkazishda etnik xoslik, mentalitet kabi jihatlar yaqqol bo'rtib turadi. Boisi turli vulgar unsurlari, evfemik vositalar o'zbek yozma matnlarida baho darajasi jihatdan bir-biridan farq qiladi¹³. Ayrim vulgar unsurlarning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo'lsa, ayrimlarida esa muallifning jismoniy, emotsional va axloqiy sifatlaridan kelib chiqqan holda qo'llanadi va bu ijtimoiy xavfli deb baholanmaydi.

Qonunchilikda haqorat, obro'sizlantirish, sha'niga putur yetkazish kabi holatlarga nisbatan ma'muriy jazo chorasi qo'llanadi. "Ma'muriy jazo javobgarlikka tortish chorasi, u ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek, ana shu huquqbuzarning o'zi tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llanadi."¹⁴ Ma'muriy huquqbuzarlikning (xususan, haqorat, obro'sizlantirish kabi) turli ko'rinishlarida huquqbuzarlik sodir

¹³ Гулямова Ш.К. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хосланиши : Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – 145 б

¹⁴ О'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. 22.09.1994. <https://lex.uz/ru/docs/-97664>

etganlik uchun turli tartibda ma'muriy jazo choralari qo'llanishi mumkin.¹⁵

Ammo shuni unutmaslik kerakki, jazo har doim ham muammoning to'la bartaraf etilishi omili bo'lib xizmat qilmaydi. Ayniqsa, haqorat darajasini belgilash, uni qonuniy asoslash masalasi turgan bir vaqtda, bunday holatga qat'iy jazo tartibini sud hukmi orqaligina belgilash o'rinsiz. Sababi huquqiy matnlar ham xuddi badiiy asarlarda bo'lgani kabi o'ziga xos tuzilishga ega bo'ladi va u alohida qismlarga ajraladi. Bunday matnlar nutq muallifining ruhiyati, maqsadi, estetik qarashini umumlashtirgan holda mutlaqo pragmatik dasturini aks ettiradi¹⁶.

Matnni lingvistik ekspertiza qilish jarayonida ana shunday tarkibiy qismlarga ajratish ham yetakchi omillardan biri, bunda unsurlarning aniq muvofiqlashtirilishi, rasmiy-ishbilarmonlik uslubi talablariga mos keladigan kombinatsiyasi, stereotip va sxematikligi hujjatdagi noaniqlik, nomuvofiqlikdan qochishga imkon beradi. K.I.Brinev fikriga ko'ra, sud-lingvistik ekspertizasida ekspertga qo'yilgan savollardan kelib chiqadigan holda haqiqat/yolg'onlikning mavjud/mavjud emaslik kabi jihatlari tekshiriladi¹⁷. A.N.Baranovga ko'ra esa haqorat qilishning jinoiy javobgarlik ekanligi shubha ostiga qo'yiladi¹⁸. Bizningcha, haqorat qilish, tuhmat qilish, obro'sizlantirish kabi holatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra jinoyat yoki huquqbuzarlik sifatida baholash uchun asos zarur.

Umumiy nuqtayi nazardan olib qaraganda, haqorat – ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori/o'rta darajada bo'luvchi huquqbuzarlik. Bunda ma'naviy zarar yetkazish omillari yuqori ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda haqorat bilan bog'liq holatlar fuqarolik sudida ko'rib chiqilishi va jazo chorasi tayinlanishi mumkin.

Ushbu mulohazalar orqali lingvistik ekspertizaning maqsadi masalasi biroz oydinlashadi. Yuqorida ta'kidlangan fikrlardan xulosa chiqarish orqali lingvistik ekspertizaning maqsadi nimadan iborat degan savolga javob topish mumkin. Sud-lingvistik ekspertizasining maqsadi maxsus

¹⁵ O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. 22.09.1994. <https://lex.uz/ru/docs/-97664>

¹⁶ Бондаренко Е.Н. Роль композиционного анализа документов в лингвистической экспертизе // Материалы международной научно-практической конференции Восток-Запад: партнёрство в судебной экспертизе. Актуальные вопросы теории и практики судебной экспертизы (г. Алматы, 6 ноября 2014 г.). – Астана, 2014. – С.62-64.

¹⁷ Бринев К.И. Проблема тождества языковых единиц, задачи лингвистической экспертизы и пределы компетенции лингвиста-эксперта // Мир науки, культуры, образования. – 2009. - № 6 (18). – Б. 66-69.

¹⁸ Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика: учеб. пособие / А.Н. Баранов. – М.: Флинта: Наука, – 2007. – 507 С.

filologik bilimlarga asoslanib, muayyan bir vaziyatda isbotlanadigan holatlarni aniqlashdan iborat. Bunda lingvistik ekspertologiya oldida turgan amaliy muammolarni hal qilishda ekspert uchun zarur bo'lgan maxsus bilimlarni chuqurlashtirish ko'zda tutiladi. Lingvistik ekspertologiyada o'zbek tilidagi yozma matnlar, ziddiyatli nutq vaziyatlari, qonuniy matnlar, til va qonun birlashmasidagi boshqa hodisalar hamda ularning amalda bajarilishini aniqlashtirish va oydinlik kiritish maqsad qilib qo'yiladi.

O'zbek tilshunosligida yozma, og'zaki nutqning sotsiolingvistik, pragmatik va pragmalingvistik, psixolingvistik xususiyatlariga doir tadqiqotlar yaratilgan. Bu esa, o'z navbatida, o'zbek yozma matnlarini lingvistik ekspertizadan o'tkazishning o'ziga xos jihatlarini aniqlash, asoslash uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi¹⁹. Lingvistik ekspertiza orqali lingvist-ekspertning vakolat chegaralari aniqlanadi va yechilishi kerak bo'lgan masalalarga oydinlik kiritiladi.

Ekspertiza jarayonida yozma yoki og'zaki matnning o'zi asosiy dalil vazifasini o'taydi. "Shuningdek, adovat, verbal tajovuz, haqoratli so'zlarni qo'llash, so'z erkinligini suiiste'mol qilish, qadr-qimmat, obro'ga putur yetkazish singari qonun bilan qo'riqlanadigan ma'lumotlarga oid ishlarni hal qilishda maxsus lingvistik bilimlardan foydalanish zarur. Og'zaki tarzda aytilgan haqoratning huquqbuzarlik sifatida baholanishi yoki baholanmasligi, og'zaki huquqbuzarlikning mavjud yoki mavjud emasligi, yozma matnlarni lingvistik ekspertizadan o'tkazishda ijtimoiy-siyosiy xavflilik darajasini baholash lingvistik ekspertologiya oldiga qo'yilgan asosiy maqsadlardan biri sanaladi."²⁰ Lingvistik ekspertologiya – o'z yechimini topmagan muammoli matnlar bo'yicha lingvistik ekspertiza metodlari orqali tahlil qilish va baholash natijasida ekspertning yozma tarzda xulosa berishini ifodalaydigan protsessual tartibga solish vositasi sanaladi.

Odatda lingvist-ekspertlar tomonidan politsiya va gumonlanuvchilar o'rtasidagi suhbatlar, ko'rsatmalar dalil sifatida ishlatiladi. Dastavval lingvistik ekspertiza sud jarayoniga to'la tatbiq etilmadi. Tadqiqotlar va shu asosda yuzaga kelgan nazariyalar sud jarayonida qo'llanmadi. Boisi lingvistik ekspertiza xulosalari sud uchun faktik material bo'la olmaydi degan qarashlar mavjud edi. Shu sababdan nazariy tadqiqotlar ko'p

¹⁹ Shahobitdinova Sh., Rustamov D., Popov D., Rustamova D. va boshqalar. Ommaviy lisoniy madaniyat, jamoaviy monografiya. Andijon: – © Lambert Academic Publishing. – 2020. 150 b.

²⁰<https://wiselawyer.ru/poleznoe/43591-razvitie-sudebnykh-rechevedcheskikh-ehkspertiz-rossii>

yaratilganligiga qaramay, sohaning amaliyotga tatbiqi masalasi ancha kechikdi. Bunga sabab yuqorida ta'kidlanganidek, lingvist-ekspertlar qo'llaydigan usullar tergov uchun dalil bo'lib xizmat qilmaydi, deb baholanishi bo'lsa, ikkinchi tomondan, lingvist-ekspertlar buyurtmachi manfaatiga asosan ish ko'radi degan stereotip shakllanib qolganligi bo'ldi. Jahonda bu masala nisbatan jadalroq rivojlandi. Bugungi kunda ingliz lingvistik ekspertologiyasida maxsus korpuslar orqali masala yechimini topish metodikasi yaratilgan. Biroq shuni alohida ta'kidlash lozimki, lingvist-ekspert mavjud dalil asosida ishlaydi. Ekspert xulosalari ham sud tomonidan berilgan savollarga, dalillarga asoslanib tuziladi. Demak, lingvistik ekspertiza obyektiv tarzda ish ko'radigan jarayon. U kriminalistika bilangina chegaralanib qolmaydi. Har bir lingvistik ekspertiza faqat jinoyat bilan bog'liq holatlarni tahlil qilmaydi. Ziddiyatli matnlarning aksariyat turlarida lingvistik ekspertiza amal qiladi. Yaqin kelajakda soha rivoji uning natijalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismlari tavsifi

Sud-huquq tizimida konfliktli matnlarni lingvistik ekspertiza qilish matnni lingvistik tahlil qilishdan farq qiluvchi jarayon. Lingvistik tahlil matnga lingvistik bilimlar orqali munosabat bildirishni ifodalasa, lingvistik ekspertiza obyekti aynan sud jarayonidagi konfliktli matn sanaladi. Mavjud nazariy bilimlar amaliyotga tatbiq etilib, ekspert tomonidan umumlashmalar hosil qilinadi. Har qanday matn ham lingvistik ekspertiza o'tkazish obyekti bo'la olmaydi. Og'zaki ko'rinishdagi matnlar, telefon yozishmalari, audio va video xabarlar, favqulodda qo'ng'iroqlar, turli irqiy kamsitish, haqorat, obro'sizlantirish, tashviqotlarga qaratilgan ommaviy murojaatnomalar bo'lishi mumkin. Yozma matnlar ko'lami esa biroz kengroq.

Qo'lyozma matnlar lingvistik ekspertizasida muallifning psixologik holati, yoshi, kasb turi kabi har xil ma'lumotlarni aniqlash imkoniyati birmuncha yuqori. Xatshunoslik ekspertizasida namunalar asosida konfliktli matn tahlil qilinadi. Aynan lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismlari sifatida qo'lyozma matnlar ham kiritilar ekan, bunda o'ziga xos xususiyatlar ajralib turadi. Umumiy alomatlar harf elementlarining shakliy xususiyatlaridagi o'xshashlikka asoslansa, xususiy alomatlar kengroq qamrovga ega. Bunda nafaqat elementlarni bajarishdagi

xususiylilik, balki soʻz va jumalarning tanlanishi, qoʻllanilishi; sintaktik qurilishning oʻziga xosligi singarilar nazarda tutiladi.

Umumiy alomatlar har qanday matn tipida takrorlanadi. Xususiyl alomatlarda noadabiy unsurlar, ortiqcha soʻzlar, iboralarni notoʻgʻri ishlatish, soʻzlar takrori, soʻz boyligi yetishmasligi kabi unsurlar uchraydi. Bu esa ekspertga muallif haqida umumiy jihatlarni ochishga yordam beradi.

Sud jarayonida turli obyektlarni tekshirishda maxsus mutaxassisning malakasiga ehtiyoj tugʻiladi. Quyidagi ziddiyatli holatlarda aynan matn bilan ishlash zarurati tugʻilganda, lingvist-ekspert malakasiga ehtiyoj seziladi:

- 1)shaxsni obroʻsizlantirish bilan bogʻliq holatlar aniqlanganda;
- 2)ekstremistik faoliyat bilan bogʻliq holatlar aniqlanganda;
- 3) tovar belgilari, domen nomlari, savdo nomlari va boshqa intellektual mulk va mualliflik huquqi obyektlarining oʻxshashlik darajasini belgilash;
- 4) mualliflik huquqining buzilishi (plagiat) bilan bogʻliq holatlarni aniqlashda;
- 5)reklama mahsulotlarining salbiylik bilan bogʻliq holatlarini aniqlashda;
- 6)meʼyoriy hujjatlar, shartnomalar va boshqalarning mazmunini aniqlashda;
- 7)ogʻzaki suhbatlar va yozma matnlarda yashirin maʼlumotlarni oshkor qilishda;
- 8)lingvistning maxsus bilimlarini talab qiladigan boshqa holatlarda.

Lingvistik ekspertizani tarkibiy qismlarga ajratishda mutaxassislar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjud. Ushbu soha XX asrning soʻnggi oʻn yilliklarida rivojlangan. M.A.Grachev talqinida esa lingvistik ekspertiza alohida turga ajratilgan har xil turdagi tadqiqot materiallari, moddalar, mahsulotlar, shuningdek, materialshunoslik bilan ish koʻradigan yuridik sohaning tarmoqlaridan biri²¹.

Germaniyalik olim Yurgen Xandke fikrlariga koʻra, “lingvistik ekspertizada ikki muhim omil mavjud:

- 1) ovozli xabarlar identifikatsiyasi – yozib olingan ovozning fonetik xususiyatlari, ovoz tempi, ritm va uzunligini hisobga olish;

²¹ Grachev M. A. Problems of formation and the formation of language minoriyas science// Bulletin of the Nizhny Novgorod state University n.a.N.A Lobachevsky. – 2010, -No .4 (2).-S.499.

2) yuridik matnlar identifikatsiyasi – shikoyat, anonim va suitsid mazmunli xatlar, talab shaklidagi so‘rovnomalar, guvoh ko‘rsatmalari va boshqalarni tahlil qilish.”²²

Demak, ushbu tasnif lingvistik ekspertizaning shakliy jihatiga asoslangan. Agarda shaklan ovozli va matn ko‘rinishidagi xabarlar lingvistik ekspertizaga ajratilsa, mazmun jihatidan ham guruhlariga bo‘lish zarurati bor.

I.K.Brinyevga ko‘ra, lingvistik ekspertologiyada lingvistik ekspertizani turlarga ajratish muhim ahamiyat kasb etmaydi. Eng muhimi, sohaga doir yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iborat²³. Bizningcha, lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismlarini belgilab olish joiz. I.K.Brinyev fikrini inkor etmagan holda aytish mumkinki, lingvistik ekspertizaning turlarini belgilash ishning aniq yo‘nalishda tashkil etilishiga yordam beradi.

L.V.Ajnyuk lingvistik ekspertizaning maxsus bilimlar talab qilinadigan ikki asosiy turini ko‘rsatadi. Birinchidan, ommaviy axborot vositalari materiallari (televideniye, radio, gazeta, jurnallar bilan bir qatorda ijtimoiy tarmoq xabarlar ham nazarda tutiladi), dasturlar, og‘zaki taqdimotlar, reklama matnlari, tovarlarda iste’molchilar uchun ma’lumot va xizmatlar, firma nomlari, teledasturlar va boshqalar). Olimning fikriga ko‘ra, ushbu tarkibiy qismlarda til huquqiy jihatdan tartibga solish vositasi sifatida ishlaydi. Ushbu fikrni to‘la inkor etmagan holda aytish mumkinki, teledasturlarni lingvistik tahlil qilish mumkin, ammo aynan huquqiy tartibga solish vositasi sifatida lingvistik ekspertiza qilish zarurati yo‘q. Shu sababdan ushbu bandni zaruriy hollarda teledasturlar lingvistik ekspertizasi degan jumla bilan almashtirish maqsadga muvofiq. Agarda teledasturda ekstremistik va terrorchilik yoki shovinistik g‘oyalar mavjudligi bo‘yicha da’vo qilinsa va aniqlansa, lingvistik ekspertiza tayinlash o‘rinli bo‘ladi.

Ikkinchidan, sotsial munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha lingvistik ekspertiza. Bunda turli me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shaxsiy yozishmalar asosiy obyekt bo‘lib xizmat qiladi. U o‘z fikrini quyidagi misol orqali dalillaydi: *Ipoteka shartnomasining X bandida ipoteka egasi nazarda tutilgan omonatchiga o‘ziga xos ma’noda rasmiy talabni ma’lum tarzda yuboradi sabablari (bu ma’lum bir huquqiy natijaga ega). Ushbu*

²² Handke Jurgen. Forensic Linguistics - An Overview. https://www.youtube.com/watch?v=n4wZ-O_f5ds. – 2014.

²³ Бринев К.И. Проблема тождества языковых единиц, задачи лингвистической экспертизы и пределы компетенции лингвиста-эксперта // Мир науки, культуры, образования. – 2009. - № 6 (18). – С. 66-69.

*ипотека shartnomasining Z bandi ипотека egasi depozitga rasmiy xabarnoma yuborishi bilan ta'minlaydi. Boshqa sabablarga ko'ra, ma'lum ma'no (bu boshqa qonuniy natijaga ega). Iпотека egasi omonatchiga bitta rasmiy hujjat (ariza – talab) yuboradi, bu bir vaqtning o'zida rasmiy xabarni ham, rasmiy talabni ham anglatadi. Depozit bunday harakatlarning qonuniyligini shubha ostiga qo'yadi va qonuniylarni sharhlaydi*²⁴.

L.V.Ajnyuk tomonidan belgilangan tarkibiy qismlarni boshqa olimlar va mutaxassislar tomonidan berilgan mulohazalarga nisbatan solishtirganda, umumiyroq xarakter kasb etadi. Olim ikki turga ajratishda asosiy xususiyatlarga tayanadi va shunga ko'ra bo'linishni ma'qul topadi.

A.N.Baranov tomonidan taklif etilgan lingvistik ekspertiza tarkibiy qismlari esa tashkil etish shakliga ko'ra ajratilgan deyish mumkin:

1) rasmiy ekspertiza (sudning talabiga binoan amalga oshiriladi va u yuridik maqomga ega);


2) tashabbus ekspertizasi (har qanday manfaatdorning talabiga binoan amalga oshiriladi (jismoniy yoki yuridik shaxs)).

Ko'rinadiki, bunda muallif lingvistik ekspertizaning asosiy parametrlariga urg'u berib o'tadi. Har doim ham lingvistik ekspertiza o'tkazishga ehtiyoj tug'ilmaydi. Sud jarayonida ayblanuvchi, gumondor, guvoh ko'rsatmalari, dalillar tahliliga asosan, mavjud qonun hujjatlariga ko'ra sud hukmi chiqariladi. Biroq matn bilan bog'liq sud ishlari ko'rib chiqilayotganda, e'tirozlarni to'g'ri baholash, muammoning xolisona yechimini ta'minlash uchun ekspertizadan o'tkazish zarurati tug'iladi. Aksariyat hollarda, faqat yuridik bilimlarnigina tatbiq etib masalani yechishning imkoniyati bo'lmaydi. Anonim xatlarda matnlar avtorizatsiyasi masalasiga oydinlik kiritish (muallifning o'zi yozganmi-yo'qmi, tashqi ta'sir faktori bormi-yo'qmi, fonetik-leksik va grammatik jihatdan qaysi hudud vakillari nutqiga xos yoki leksik birlikning qo'llanishi gender xoslanganmi va h.k.) kabi holatlarda lingvist-ekspertning bilimi va tajribasiga tayaniladi. Yuqorida keltirilgan A.N.Baranov ajratgan lingvistik ekspertizaning birinchi ko'rinishi ayni shu va shu singari vaziyatlarda tayinlanadi.

²⁴ Ажнюк Л.В. Типологія об'єктів лінгвістичної експертизи і методика їх дослідження/ Леся Вікторівна Ажнюк // Мовознавство. – 2016. – № 3. – С. 6.

Ingliz lingvist-eksperti Jon Olsson lingvistik ekspertiza tarkibida matn avtorizatsiyasi, plagiatlik holatlari, ovozli xabarlar identifikatsiyasi kabi tarkibiy qismlarga alohida urg'u beradi²⁵.

Yuridik va filologiya fanlari doktori O.Y.Kutafin nomidagi Moskva davlat yuridik universiteti professori Y.I.Galyashina lingvistik ekspertizada lingvistik va huquqiy jihatlarni farqlash, ekstremistik materiallar lingvistik ekspertizasi, metod va metodologiya masalasi yuzasidan qator tadqiqotlar amalga oshirgan. Xususan, o'z tadqiqotlarida lingvistik ekspertizaning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatadi:



“1.1-rasm.E.Galyashina talqinida lingvistik ekspertiza turlari”.

Galyashina o'z fikrlarini umumlashtirar ekan, “har qanday nutq mahsuloti lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismi bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.”²⁶

Yuqorida olimlar bildirgan fikr-mulohazalar lingvistik ekspertizaning umumiy qonuniyatlariga to'la-to'kis muvofiq. Biroq o'zbek yozma matnlarining xarakterli xususiyatlari, turli dialektlarning anonimik holatlarda voqelanishi, leksik birliklarning qator semalari, shuningdek, sudga tushayotgan va ziddiyatga sabab bo'layotgan matnlarning turi, xarakterli xususiyatiga muvofiq lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- ✓ Haqorat va tuhmat holatlari bo'yicha lingvistik ekspertiza;
- ✓ muallifi noma'lum matnlar lingvistik ekspertizasi (anonim xatlar yoki muallifi shubha ostida bo'lgan suitsid matnlar);
- ✓ antiplagiat dasturlardan farqli ravishda mazmuniy va g'oyaviy jihatdan “adabiy o'g'rilik”ni baholash;

²⁵ John.Olsson. Forensic linguistics. – New York.: Continuum International Publishing Group, – 2008. P 5-10.

²⁶Galyashina E. And the foundations of judicial received any. – M.:Stanke, – 2003. P-28-32.

✓ reklamada konstitutsiyaviy tuzum, shaxs ongi va dunyoqarashiga daxl qiluvchi elementlarning bor/yo‘qligini asoslash, boshqa reklama matnlari bilan o‘xshashlik, o‘zlashtirilganlik faktorini aniqlash;

✓ ekstremistik materiallar lingvistik ekspertizasi;

✓ tovar belgilari lingvistik ekspertizasi.

Lingvistik ekspertizaning har bir tarkibiy qismi muayyan konfliktli vaziyatlarga yechim topishga yordam beradi. Sud ekspertizalari negizida xatshunoslik, muallifshunoslik, siyosatshunoslik ekspertizalari alohida ajratib ko‘rsatiladi. Biroq ushbu ekspertiza turlarida ham matn bilan bog‘liq holatlarda lingvistik ekspertizaga zarurat tug‘iladi. Shu boisdan lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismlarini belgilashda matn bilan ish ko‘ruvchi va konfliktli vaziyatlar yuzaga keluvchi holatlarni nazarda tutish lozim.

Har bir ko‘rsatilgan tarkibiy qismlarning tekshirish obyekti va muammoli masalalarini quyida ko‘rib chiqamiz.

Sha’ni, qadr-qimmat va ishchanlik obro’sini kamsitish bilan bog‘liq holatlar aniqlanganda:

✓ Nashr matnida “. . . ” (aynan qanday nashr ekanligi ko‘rsatiladi. Masalan, maqola, xabar nomi.) ma’lum bir shaxs haqida haqorat mazmuni mavjudmi? (shaxsning to‘liq ismi-sharifi ko‘rsatilishi lozim).

✓ Matnning kommunikativ, pragmatik yo‘nalishi qanday?

✓ Haqorat mazmunini ifoda etuvchi birlikning semantik mohiyati qanday?

Matn avtorizatsiyasi bilan bog‘liq matnlar lingvistik ekspertizasi:

✓ Qo‘lyozma matni va taqdim etilgan boshqa qo‘lyozmalar muallifi birmi (namuna uchun berilgan qo‘lyozma matn va konfliktli matn)?

✓ Imzo bir muallifga tegishli yoki tegishli emasmi? (namunalar asosida)

✓ Matn ijrochisi va muallifi bir shaxsmi?

✓ Matn muallifini aniqlash uchun yozuvning umumiy va xususiy belgilari mavjudmi?

✓ Matn muallifini aniqlash uchun ajralib turadigan alohida leksik birliklar mavjudmi?

✓ Matn muallifini aniqlash uchun alohida sintaktik, stilistik xususiyatlar mavjudmi?

✓ Lingvistik belgilar orqali muallifning yosh, gender, ijtimoiy xoslanish kabi ma’lumotlarini aniqlash mumkinmi?

Plagiatlik holatlarini aniqlash lingvistik ekspertizasi

✓ “. . . ” (lingvistik ekspertizaga tortilgan asar nomi keltiriladi) asari asl nusxami yoki boshqa asarning qayta ishlangan versiyasimi?

✓ “. . . ” va “. . . ” (ikkita qiyoslanuvchi asar nomi ko‘rsatiladi) asarlarida so‘zma-so‘z matnli mosliklar bormi?

✓ Asarning og‘zaki komponenti, iborasi, unsuri (sarlavha, belgi nomi va boshqalar) aslmi?

✓ “. . . ” va “. . . ” matnlari individual muallifning nutq xususiyatlariga mos keladimi?

✓ “. . . ” matni yoki uning alohida qismlari bitta odam tomonidan yozilganmi?

✓ Asarda o‘ziga xoslik, yangilik va ijodkorlik alomatlari bormi?

Reklama matnlari lingvistik ekspertizasi:

✓ Reklama matni qanday belgilarga ega? Bu matnli reklamami?

✓ Reklama xabarida taqqoslash mavjudmi?

✓ Reklama xabarida boshqa kompaniyalar tovarlari (xizmatlari)ga o‘xshash ma’lumotlar bormi? Ushbu ma’lumot salbiymi?

✓ Reklama xabarida lisoniy vositalar ma’lumotlarning ma’nosini buzadigan yoki qo‘shimcha ma’nolarni shakllantiradigan vositalardan foydalanilganmi?

✓ Reklama qilinadigan tovarlardan foydalanmaydigan shaxslarga nisbatan salbiy munosabatni shakllantiradimi?

✓ Matnda biron-bir murojaat, chaqiriq mazmuni bormi? Ularning mazmuni nimadan iborat?

✓ Reklama xabarining semantik dominantlari qanday? Uning tarkibiy qismlarining vazifalari nimadan iborat?

✓ Reklama tashviqot (spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar va boshqalar) ni o‘z ichiga oladimi?

✓ Reklama xabarida taklif vositalari, til manipulyatsiyasi qo‘llanadimi?

Qonun hujjatlari lingvistik ekspertizasi:

✓ Hujjat matnida atamalar to‘g‘ri ma’noda ishlatilganmi?

✓ Hujjat matnida ifodalangan me’yorlarning mazmuni aniq va tushunarli bayon qilinganmi?

✓ Qo‘llanilgan so‘z birikmalari va gap bo‘laklari to‘g‘ri tanlangan hamda o‘zaro mantiqiy bog‘langanmi?

So‘nggi yillarda ilm-fan va ijtimoiy-siyosiy aloqalarning rivojlanishi natijasida savdo belgilari, shuningdek, nomlanish bo‘yicha turli yangi unsurlar jadallik bilan kirib kela boshladi. Ushbu nomlar va belgilar ayrim xususiyatlari bilan xalqning milliy mentaliteti, xususiyatlariga

ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Buning natijasi o'laroq, savdo belgilari lingvistik ekspertizasiga ehtiyoj tug'iladi. T.A.Soboleva va A.V.Superanskayaning bayon etishicha, "tovar belgisi – bu tovarni tasarruf etish, foyda olish va sifatsiz mahsulotni yetkazib berish uchun zarar yetkazish bo'yicha eksklyuziv huquq kimga tegishli ekanligini ko'rsatadigan tijorat mulkining maxsus belgisidir²⁷".

Savdo markalari tijorat nomiga o'xshash funksiyalarni bajaradi, xususan, farqlovchi, ma'lumot beruvchi, nominativ, ekspressiv va boshqalar. Demak, savdo belgilarida ham axborot tashish funksiyasi mavjud. Savdo markalari xavfsizlik va kafolat funksiyalarini bajarishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, savdo markalari ham alohida lingvistik ekspertiza qilinishi lozim.

Yuqorida lingvistik ekspertologiyaning tarkibiy qismlari masalasi xususida fikr yuritishga harakat qildik. O'z obyektiga ko'ra baholanadigan bo'lsa, lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismlarini yanada kengaytirish mumkin. Sud jarayoniga kelib tushuvchi arizalarning mazmun ko'lamini o'zgarishi lingvistik ekspertizaning yangi tarkibiy qismlarini yuzaga keltirishi shubhasiz. Matnni qamrab olish darajasiga ko'ra ham lingvistik ekspertizalar turlicha bo'ladi. Materialni qamrab olish holatiga muvofiq, yaxlit va xususiy lingvistik ekspertizalarga bo'linadi. Rasmiy parametrlariga ko'ra, A.N.Baranov taklif etganidek, rasmiy va tashabbuskor ekspertizalarga bo'lish mumkin. Ko'rinadiki, har bir bildirilgan fikr bir-birini takrorlamaydi, ayni vaqtda, bir-birini taqozo etadi. Lingvistik ekspertizaning ushbu turlari jahon tajribasida tahlil qilingan va asoslangan. Biroq o'zbekcha matnlar (og'zaki va yozma) milliy-etnik xususiyatlarga ega, bunday matnlarni lingvistik ekspertiza qilish o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Xususan, o'zbek adabiy tilidagi va o'zbek shevalaridagi matnlar bir-biriga aslo o'xshamaydi. Ularni farqlash, matn avtorizatsiyasini aniqlashda qo'llanadigan usul va uslublar ham turlicha bo'lishi tabiiy. Lingvistik ekspertiza turlarini belgilashda masalaning ana shu jihatlariga ham e'tibor qaratish zarur deb hisoblaymiz. Fikrlarimizni umumlashtirib aytadigan bo'lsak, lingvistik ekspertiza o'tkazishda quyidagilarni ham mazmuniga ko'ra tarkibiy qismlar sirasiga kiritish o'zbek yozma matnlari lingvistik ekspertizasi uchun maqsadga muvofiq:

1) noverbal nutq vositalari orqali bayon etilgan nutq ekspertizasi (imo-ishoralar);

²⁷ Соболева Т.А.Товарные знаки. – М.: Наука, 1986. – 15с.

2) nomlanish bo'yicha ekspertizalar tarkibida logotiplar, firma, korxona, kafe, restoran nomlarini ham lingvistik ekspertiza qilish;

3) siyosiy nutqlar lingvistik ekspertizasi.

Imo-ishoralar ham nutq aktida ishtirok etadi va axborot tashish funksiyasini bajaradi. Turli jinoiy to'dalar, ekstremistik guruhlar nutqida ana shunday imo-ishoralar ishtirok etishi mumkin. Ishoraning nutq aktida voqelanishi, kommunikativ vaziyat yaratishi ekspert tomonidan tahlil qilinadi. Bundan tashqari, yirik jinoiy to'dalar tilida ishlatiluvchi so'zlar (argotizmlar) ham lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismi sifatida baholanishi lozim. Boisi lingvist-ekspert so'zning etimologiyasi, stilistik xoslanishi, kontekstual ma'nosi, semalarini atroflicha tahlil qilib, so'z "shifr" ini ochishi mumkin. Nomlash bo'yicha o'tkaziladigan lingvistik ekspertiza qo'yilgan nom xorijiy mashhur firma nomlarining mualliflik huquqiga daxl qiladi/qilmaydi, nom mavjud adabiy til normalariga mos/yoki mos emas, ijtimoiy xavfli ishora bor/yo'q ekanligini asos-lashga harakat qiladi. Har bir firma nomi nomlanishidan va ro'yxatdan o'tishidan oldin lingvistik ekspertiza tayinlanishi lozim. Boisi turli ko'ngilochar va ovqatlanish markazlari, firmalarga nom qo'yishdan oldin lingvistik ekspertiza tayinlash "Davlat tili to'g'risidagi" qonun va adabiy til normalari buzilishining oldini oladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, konfliktlarga sabab bo'lgan siyosiy nutqlarni ham lingvistik ekspertiza qilish maqsadga muvofiq.

Siyosiy nutqlar lingvistik ekspertizasi sud siyosatshunoslik ekspertizasidan farq qiladi. Sud siyosatshunoslik ekspertizasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz, millatlar, elatlar o'rtasida irqiy, etnik nizolarni qo'zg'atish, urush va ekstremistik g'oyalarni targ'ib qilish bo'yicha amalga oshirilsa, siyosiy nutq lingvistik ekspertizasi yirik davlat arboblari, mansabdor shaxslar nutqini zarurat tug'ilganda lingvistik ekspertizadan o'tkazishga qaratiladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, sud-siyosatshunoslik ekspertizasi zahirida ham lingvistik ekspertiza bor va sud-siyosatshunoslik ekspertizasi obyekti bo'lgan materiallar bevosita lingvistik ekspertiza uchun ham obyekt vazifasini bajara oladi. Xususan, konstitutsiyaviy tuzumga tajovuz, davlat xavfsizligiga daxl qiluvchi turli yozishmalar, SMS-xabarnomalar, ijtimoiy tarmoq matnlari bevosita til bilan aloqador. Siyosiy nutqlar lingvistik ekspertizasi ham nutq aktining pragmatik yo'nalishini aniqlashga, jamoatchilik e'tiborini to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi. Masalan, keyingi vaqtlarda siyosiy partiyalar o'rtasidagi

raqobat aksar hollarda sog‘lom raqobat muhitidan holi ko‘rinadi. Partiya yetakchi rahbarlari nutqini lingvistik ekspertiza qilish esa ziddiyatli vaziyat bor yoki yo‘qligini asoslaydi. Mansabdor shaxslar nutqi keng jamoatchilik tomonidan e‘tiroz va muhokamalarga sabab bo‘lgan holatlarda, lingvistik ekspertiza tayinlash lozim bo‘ladi. Bunda mansabdor shaxs nutqida mansabni suiiste‘mol qilish holatlari mavjudmi, xalq manfaatlariga qarshi qaratilganmi, g‘oyaviy yo‘nalishga bo‘ysundirilganmi yoki yo‘qmi singari muammoli savollar yechimiga javob topiladi. Xususan, quyidagi siyosiy nutqlar xalq tomonidan turli talqin qilindi va ularga siyosiy arbob tomonidan munosabat bildirildi. Bu munosabat esa aksariyat hollarda o‘zini oqlamadi: go‘sht narxi ko‘tarilishiga A.Hayitov nutqi²⁸, farroshlik bilan shug‘ullanuvchi ayollarni o‘qitish masalasida E.Turdimov nutqi²⁹, kambag‘allik ko‘rsatkichini baholash bo‘yicha O.Hakimov nutqi³⁰, jinsiy tarbiya xususida T.Norboyeva nutqi³¹, Davlat tili to‘g‘risidagi qonunning 12-moddasi qabul qilinmaganligi xususida U.Vafoev nutqi⁵⁵. Ushbu holatlar xolisona yechim topishi uchun lingvistik ekspertiza o‘tkazilishi zarur. Tegishli qonun hujjatlari va kodekslarda mazkur holatlarga nisbatan lingvistik ekspertiza o‘tkazish tartibi, tayinlanish shakli va muddati xususida bandlar kiritilishi lozim.

Lingvistik ekspertiza jarayonda lingvistik va huquqiy bilimlar birday ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikning amaliy funksiyasini yanada takomillashtirish nafaqat yurisprudensiyada, balki fanning boshqa tarmoqlarida ham sezilarli ijobiy natijalarga olib keladi. Yuqori tajriba, bilim va malakalarga ega lingvist-ekspertlarni tayyorlash, ularning malakalarini oshirish mexanizmini ishlab chiqish lingvistik ekspertologiyaning dolzarb masalalaridan biri. Zero, lingvist-ekspert oldida qat’iy vazifalar va mas’uliyatli burch turadi. Lingvist-ekspert chuqur lingvistik, psixologik va yuridik bilimlarga ega mutaxassis bo‘lishi lozim. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismlari to‘liq holatda deb bo‘lmaydi. Sababi yozma matnlar bilan bog‘liq turli ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Ayni shu jarayonda matnning lingvistik xususiyatlari orqali masala yechiladi. Xususan, yozma ko‘rinishda berilgan tushuntirish xatlari, da’vo arizalari

²⁸ <https://kun.uz/uz/news/2019/09/10/biz-juda-kop-gosht-yemoqdamiz-aktam-xayitov-gosht-narxi-oshib-ketayotgani-sababi-haqida>.

²⁹ <https://kun.uz/uz/news/2020/10/08/erkinjon-turdimov-oqsoch-ayollarga-talab-ortib-bormoqda-xotin-qizlarni-shu-kasbga-o-rgatishimiz-kerak>.

³⁰ <https://nasafnews.uz/?p=16138&l=lat>.

³¹ <https://daryo.uz/2020/11/13/jinsiy-tarbiya-yopiq-mavzu-bolmasligi-kerak-tanzila-norboyeva>.

singari. Demak, lingvistik ekspertizaning asosiy tarkibiy qismlari negizida yangi tarmoqlari ham shakllanishi shubhasiz. Sababi axborot tashish funksiyasini bajaruvchi har qanday matn, qanday ko‘rinishda bo‘lishidan qat’iy nazar, lingvistik ekspertiza o‘tkazish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Lingvistik ekspertizada metodologiya, metodika va metod masalalari

Lingvistik ekspertologiya boshqa fan sohalari bilan o‘zaro aloqada. Lingvistik ekspertizani amalga oshirishda bevosita turli sohalarga murojaat qilish zarurati tug‘iladi. Uning mohiyatini quyidagi sohalalar bilan bog‘lash mumkin:

- Lingvistika;
- Yurisprudensiya;
- Psixologiya;
- Ekspertologiya.

Albatta, bu bog‘liqlik qat’iy chegaralanmaydi. Soha taraqqiyoti fanlararo o‘zaro bog‘liqlik, metodologik masalalar yechimida hamkorlikni amalga oshirishga ehtiyojni paydo qiladi. Lingvistik ekspertologiyada metodologiya soha bo‘yicha konfliktli matn tiplarini ajratish, ularga yechim topishning samarali usullarini tanlash, tahlil bosqichlarini belgilash, natijalarni umumlashtirish va xulosalarni shakllantirish majmuyini ifodalaydi.

Lingvistik ekspertologiya metodologiyasi mohiyatidan kelib chiqqan holda uning funksiyalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- birinchidan, lingvistik ekspertizani mavzu yo‘nalishiga ko‘ra tarkibiy qismlarga ajratadi;
- lingvistik ekspertiza chegarasini aniqlaydi;
- lingvistik ekspertiza qilish zarur bo‘lgan matnlarni konfliktli va konfliktli bo‘lmagan jihatlariga ko‘ra aniqlaydi;
- lingvistik ekspertizaga asos bo‘luvchi matnlarni belgilaydi va tarkibiy qismlarga ajratadi;
- metodlarni to‘g‘ri tanlash va qo‘llash mezonlariga e’tibor qaratadi;
- lingvist-ekspert vakolatlarini belgilab beradi;
- ekspert xulosalarini to‘g‘ri shakllantirish mezonlarini ishlab chiqadi.

Umumiy metodlarning o‘ziga xos ishlatilish tizimi, xususiyl metodlarning qo‘llanishi haqida keyingi qismlarda batafsil to‘xtalamiz.

“Mavjud adabiyotlarda lingvistik ekspertiza metodikasida ma’lum metodik tamoyillarni ajratish mumkinligi, ularning har biri ma’lum bir


ekspertiza turi bilan bog‘liqligi, metodikasi tuzilmasida ma’lum metodik tamoyillarni ajratish mumkin, ularning har biri bilan ekspertizaning ma’lum bir turi bog‘liqligi ta’kidlanadi va ushbu jarayonda qo‘llanadigan eng muhim yondashuvlar, standart, o‘zgartiruvchi, o‘xshash, sinov, kognitiv yondashuvlar sifatida belgilanishi lozimligi aytiladi.”³²

Lingvistik ekspertologiyada metodologiya konfliktli matn tipiga muvofiq samarali metodlarni to‘g‘ri tanlash va amaliyotda qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon nutq atributlarini belgilash bilan bevosita bog‘liq. Matnda nutqning turli atributlari o‘rganiladi. Lingvistik ekspertologiyada qo‘llaniluvchi kognitiv yondashuvning o‘ziga xos jihati shundaki, turli nutq aktlarida semantik unsurlarni aniqlashga yordam beradi. Lingvistik ekspertologiyada metodik yondashuv ikki yirik tendensiyaning qo‘llashga imkon beradi. Ya’ni:

1)lingvistik ekspertizani o‘tkazishda ishonchli, tasdiqlangan amaliyotlar orqali standart metodik yondashuvni qo‘llashga qaratilgan;

2)innovatsion lingvistik metodlarni ekspertiza jarayoniga tatbiq qilishdan iborat.

Bu ikki tendensiya tabiatan lingvistik ekspertizalarni amalga oshirishda birdek qo‘llanishi lozim. Bugungi kunda sud-huquq, sud-ekspertiza va lingvistika mohiyatiga to‘g‘ri keladigan, asosiy maqsadni o‘zida yaqqol ifodalaydigan lingvistik ekspertiza metodikasini ishlab chiqish lozim. Bunda, eng avvalo, ekspertga qo‘yiladigan savollarni oydinlashtirib olish muhim ahamiyat kasb etadi.




“2.1-rasm. Lingvistik ekspertizaning tarkibiy tuzilmasi”

³² Арутюнов А. С. Методология производства судебной лингвистической экспертизы с целью установления проявлений экстремизма// ОБЩЕСТВО И ПРАВО – 2019. – № 2. – С. 80.

Lingvistik ekspertiza metodologiyasi umumiy ko‘lamda matnlar tahlilida “Kim qilgan?”, “Nima qilgan?”, “Qanday qilgan?” degan savollarga oydinlik kiritadi.

Shu orqali ekspertizaga tortilgan matnning mazmuni yoki mavzusini ochib beradi. Sud-lingvistik ekspertizasi metodologiyasining uchinchi unsuri o‘rganilayotgan nutq materialining kommunikativ maqsadini ochib beradi va “nima maqsadda?” degan savolga javob beradi. Konfliktli matnni lingvistik ekspertiza qilish jarayonida yuqorida ta’kidlangan uch tarkibli tuzilmani alohida e’tiborga olish lozim. Ekspertizaga taqdim etilgan matn ayni shu yo‘nalishda tarkibiy qismlarga ajratiladi.

**“2.1.-jadval. Lingvistik ekspertiza metodologiyasi”.
Sud-lingvistik ekspertizasi metodologiyasini quyidagicha
ifodalashga harakat qilamiz:**



Sud-lingvistik ekspertizasi jadal rivojlanish bosqichiga kirgandan so'ng sohaning metodologiyasini belgilash, metodologik muammolarini asoslash soha mutaxassisleri faoliyatida asosiy munozaralar mavzusiga aylandi. Ushbu jarayonda lingvistik ekspertizani ishlab chiqishga qaratilgan qator tadqiqotlar ham yuzaga kelib ulgurdi.³³

Yuqorida keltirilganlardan tashqari, diqqat qaratish lozim bo'lgan jihat –lingvistik ekspertizani sud ekspertizalari tizimida alohida bir tur sifatida nomlash masalasidir. Dastavval lingvistik bilimlarga ehtiyoj tug'ilgan o'rinlarda gumanitar soha vakillaridan ekspertlar tayinlandi. Buning natijasida esa, lingvistik ekspertiza termini keng qo'llana boshladi. Biroq matnlarni ekspertiza qilish jarayoniga sinchiklab qaraladigan bo'lsa, ekspertizaning bu turini nomlashda kengroq yondashish lozimligini ko'rish mumkin. Xususan, ijtimoiy tarmoq, OAV orqali uzatilgan konfliktli matnlarni ekspertiza qilishda lingvistik bilimlarning o'zi kifoya qilmaydi. Lingvistik bilimlar bilan bir qatorda jurnalistik, psixologik va sotsiologik bilimlar ham talab etiladi. Ekstremistik matnlarni lingvistik ekspertiza qilish jarayonida esa psixologik, falsafiy va ideologik bilimlar zarur. Shu sababdan lingvistik ekspertizani amalga oshirishda lingvistlar ko'magiga tayanmasdan alohida ekspert kadrlarni tayyorlash lozim. Boisi ushbu ekspertiza turida ham yuridik, ham lingvistik, psixologik, ideologik, grafologik bilimlarni amaliyotda qo'llash zarurati paydo bo'ladi. Metodologik masalalar qatoriga kiritilgan lingvistik ekspertizani tur sifatida nomlash bilan bir qatorda, ushbu ekspertizalarni amalga oshiruvchi ekspertlarga qo'yiladigan talablarni ham alohida e'tiborga olish lozim. Quyida ularni qisqacha keltirib o'tamiz:

- Birinchidan, matnni texnik ko'rikdan o'tkaza olishi lozim(qog'ozdagi matnlarda qog'ozning sifati, yozuv vositasining xususiyati, shikastlanish alomatlari; og'zaki, audio va video xabarlarda ovozga qo'shimcha tovushlar, ohang tempi, xabar ritmi);
- ikkinchidan, psixologik tashxis qo'ya olishi lozim (yozuv, qo'llangan

³³Qarang: Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика: учеб. пособие. Флинта: Наука, – 2007. 592 с. Будаев Э.В., Ворошилова М.Б., Руженцева Н.Б. Эволюция лингвистической экспертизы. Методы и приемы Моногр. – М.: ФЛИНТА, – 2019. 264 с. Изотова Т.М., Кузнецов В.О., Плотнокова А.М. Методика проведения судебной лингвистической экспертизы по делам об оскорблении М.:ФБУ РФЦСЭ при Минюсте. – России. – 2016. 90 с.

leksik birliklar yoki ovozda titroq, asabiylik, xotirjamlik, qo‘rquv va shu kabilarga asoslanib, matn muallifining ruhiy-psixologik holatini baholash);

- uchinchidan, yuridik bilimlarga ega bo‘lishi lozim (matnning jinoiy yoki ma‘muriy javobgarlikka tortish mumkin/mumkin bo‘lmaganlik faktorini aniqlash, maxsus qonun hujjatlari va kodekslarga muvofiq matnni tavsiflash);

- to‘rtinchidan, grafologiya, yozuv xususiyatlari bilan bog‘liq bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishi lozim (qo‘lyozmalarda harf shakliga muvofiq muallifning qiziqishlar doirasi, ruhiy-fiziologik holatini taxminiy baholash);

- beshinchidan, matnning xususiyatidan kelib chiqqan holda diniy, falsafiy, tibbiy bilimlardan qisman xabardor bo‘lishi lozim (matn muallifining jismoniy holati va uning matnga ta’siri – tibbiy nuqtayi nazardan, ekstremistik materiallarda muqaddas kitoblarda diniy talqini keltirilgan/keltirilmaganlikni asoslashda);

- oltinchidan, lingvistik bilimlardan chuqur xabardor bo‘lishi va tegishli

manbalardagi nazariy fikrlardan amaliy foydalana olishi lozim.

Albatta, yuqorida keltirilganlar qamrovi keng va uni yanada kengaytirish mumkin. Sud jarayonidagi konfliktli matnlarga xolisona va adolatli yechim topishga yordam berishda lingvist-ekspertlar ko‘rsatilgan bilim va malakalarga ega bo‘lishlari lozim. Zarurat tug‘ilgan hollardagina mutaxassis (diniy ulamo, yurist, psixolog) yordamiga tayanish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4125-son qaroriga muvofiq, sud-filologik ekspertizasi alohida tur sifatida ajratiladi³⁴. Biroq sud-filologik ekspertizasidan tashqari, sud-xatshunoslik ekspertizasi, videomateriallarning sud ekspertizasi kabi ekspertiza turlarida ham lingvistik bilimlarga bevosita tayaniladi. Masalaning ayni shu jihatlarini atroflicha o‘rganish va lingvistik ekspertizaning ishlash mexanizmini asoslash – ayni jarayondagi dolzarb masalalardan biri. Jahonda ham xususiy sud ishlari bilan bog‘liq jarayonda yuzaga keluvchi konfliktli matnlar bo‘yicha olib boriladigan xususiy ekspertlik faoliyat turiga nisbatan *lingvistik ekspertiza* va ushbu jarayonni amalga oshiruvchi shaxsga nisbatan

³⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori PQ-4125-son. 2019-yil 17-yanvar. Manba: lex.uz.

ekspert atamasi qo‘llaniladi. Bizningcha, lingvistik ekspertiza muayyan holat bo‘yicha matn ustida amalga oshiriladigan jarayonni ifodalasa, lingvistik ekspertologiya ushbu sohaning keng qamrovini, alohida amaliy tilshunoslikning yo‘nalishini ifoda etadi. Lingvistik ekspertizani amalga oshiruvchi shaxsni esa lingvist-ekspert deb nomlash zarur. Bu esa ekspert, mutaxassis va lingvistdan farqli va qamrovi keng tushunchani ifodalaydi.

Endigi navbat lingvistik ekspertologiyani vakolat doiralarini belgilab olish, ekspertga qo‘yiladigan talablarni va shu bilan bir qatorda, ekspertlar faoliyatini takomillashtirishga oid asosiy mezonlarni ishlab chiqish lozim. Xususan:

- lingvistik ekspertiza o‘tkazish bo‘yicha ekspert kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishga e‘tibor qaratish;
- soha bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash maqsadida tilshunoslik ta‘lim yo‘nalishida bakalavr va magistrlar uchun alohida ta‘lim dasturlari, o‘quv qo‘llanmalari yaratish;
- lingvist-ekspert vakolatlari doirasida egallashi lozim bo‘lgan umumiy va sohaviy bilimlar majmuasini yaratish.

Ushbu sanalgan mezonlar qatorini talab va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda takomillashtirib borish lozim bo‘ladi.

Navbatdagi metodologik masalalardan biri davlat va nodavlat ekspertiza tashkilotlarida qo‘llanadigan terminlar va ularning mohiyatini talqin qilish, ekspertning vazifasi va vakolat chegaralarini belgilash. Ekspert qanday masalalarga oid materiallarni ko‘rishi kerak va bunda qanday ilmiy-nazariy manbalarga tayanishi lozim degan savollarni o‘rtaga qo‘yish kerak.

“2.2-jadval. Shaxsni obro‘sizlantirish mazmunli terminlar”.

T/r	Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar	Terminlar talqini
1.	O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘grisidagi kodeksi	Haqorat qilish, shaxsning sha‘ni, qadr-qimmatini axloq-sizlik bilan qasddan tahqirlash(140-modda).

2.	O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi	“Tuhmat qilish, ya’ni bila turib boshqa shaxsni sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatish, tuhmat, ya’ni bila turib yolg‘on, boshqa bir shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarni tarqatish ³⁵ .”
----	---	---

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga muvofiq, kishilarning sha’ni, obro‘ va qadr-qimmatini tushirishga qaratilgan haqorat, tuhmat kabi holatlarda jazo tayinlash tartibi keltiriladi. Qanday holatlarda aytilgan og‘zaki yoki yozma ko‘rinishdagi matnlar haqorat yoki tuhmat bo‘lishi, uning darajalarini belgilash esa masalaning lingvistik tomoniga kiradi. Ushbu masalalarga oydinlik kiritilmas ekan, ekspertning matnga xulosa berish vakolati chegaralanadi.

Lingvistik ekspertiza metodologik masalalari qatorida obyektini belgilab olish ham asosiy ahamiyat kasb etadi. Xo‘sh, ekspert qanday materiallar bilan ishlashi mumkin? Ekspertiza jarayonida nimalarga atroflicha e’tibor qaratiladi? Quyida ushbu savollarga yechim topishga harakat qilamiz.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, barcha davlat va nodavlat tashkilotlar ekspert tilshunoslari shartli ravishda uch guruh tarafdorlariga bo‘linishi mumkin:

birinchi guruh lingvistik ekspertizaga tor yondashuv tarafdorlari tomonidan shakllantiriladi. Ular lingvistik ekspertiza obyektini belgilashda tilshunoslik obyektidan kelib chiqqan holda yondashadilar. Shu sababdan ular tilning tabiiy va ijtimoiylik xususiyatidan kelib chiqqan holda xabarning tarkibiy qismi bo‘lmasa, og‘zaki bo‘lmagan tahlildan voz kechish kerak deb hisoblashadi;

ikkinchi guruh ekspertlar esa lingvistik ekspertiza obyektini sifatida nutq faoliyati mahsulotlarini ko‘rib chiqadi. Ushbu guruh tarafdorlari asosiy e’tiborni “kodlangan” matnlarga qaratishadi;

uchinchi guruh – keng yondashuv tarafdorlari. Lingvistik ekspertiza obyektlari nafaqat nutq, balki imo-ishoralar, yuz ifodalarini ham hisobga oladi, aloqa ishtirokchisi tanasining pozitsiyasi, emotsiyasi ham obyekt vazifasini bajarishi mumkin deb hisoblashadi. Boisi turli holatlarda ham

³⁵<https://lex.uz/acts/-97664>

nutq bilan ishlash imkoniyati mavjud bo'lmaganda, tashqi tasvirlar ham matnni tahlil qilish imkoniyatini beradi³⁶.

Lingvistik ekspertizalarni ishlab chiqarish doirasida nutqqa e'tibor qaratmasdan vizual tasvirlarni tahlil qilishga ko'proq diqqat qilish muhokamalarga sabab bo'ladi. Chunki ekspertizaning boshqa turlaridan farqli ravishda lingvistik ekspertiza lingvistik bilimlar majmuyini amaliyotga tatbiq etishni taqozo qiladi. Albatta, bu jarayonda, yuqorida qayd etilganidek, lingvistik degan nomlanish biroz nisbiylik kasb etadi. Chunki lingvistik ekspertizani ishlab chiqish jarayonida nafaqat lingvistik bilimlar majmuyi, balki yondosh sohalarga oid nazariy bilimlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Vizual vositalar masalasiga keladigan bo'lsak, tahlilda ularni lingvist-ekspert vakolatidan chetga chiqarib bo'lmaydi. Bunday vositalarga ekspert xulosaga yordam beruvchi va ta'sir ko'rsatuvchi vosita sifatida qarashi lozim. Shuningdek, bunday vizual omillarning og'zaki va yozma nutqqa ta'siri masalasini ham inobatga olish lozim. Belgining semantik tabiatini aniqlash lingvist-ekspertning vakolati doirasida bo'ladi. Bungacha bo'lgan jarayonda esa, nutq akti, ovoz tempi, tana harakatlari, imo-ishoralar va boshqa kommunikativ jihatlar psixologik ekspertizalarni ishlab chiqarish doirasida odatda tekshiriladi. Bu jarayonda olingan xulosalar asosida obyektning lingvistik belgilari tahlil etiladi va uning materialga aloqadorligi masalasi ekspert tomonidan umumlashtiriladi. Shuni alohida qayd etish joizki, og'zaki va yozma bo'lmagan kommunikativ vositalar ham ekspertiza obyekti bo'la oladi. Bundan ko'rinadiki, lingvistik ekspertizaning obyektini belgilash soha taraqqiyoti natijasida yanada kengayib boradi. Obyekt sifatida verbal va noverbal nutq vositalarini belgilashni baholash zarur.

Lingvistik ekspertologiya obyektiga keng yondashuv ekspert mutaxassisliklari va ularning dasturlarini belgilab olishni taqozo etadi. Keng qamrovdagi lingvistik ekspertizada turli tipdagi materiallar, xususan, qo'lyozma matnlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, har xil reklama matnlari, logotiplar, imzolar, xatlar, shiorlar va logotiplarda chaqiriq, isyon, ekstremistik maqsadlarning yashirin ifodasini aniqlash, video va audio ko'rinishidagi materiallarda hududiy xoslanishni nutqning lingvistik jihatlarini orqali asoslash kabilarga e'tibor qaratiladi.

³⁶ Гарт И.В. Методологические проблемы лингвистической экспертизы // Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы. Россия, г. – Москва, – 2019. С . 174-184.

Fikrimizcha, lingvistik ekspertiza obyektini belgilash bilan bir qatorda, lingvist-ekspert vakolatlari masalasi ham metodologik jihatdan asosiy ahamiyat kasb etadi. Lingvist-ekspert faqat yozma va og‘zaki ko‘rinishdagi materiallarni tahlil etmaydi. Balki kommunikativ faoliyat mahsuli bo‘lgan har qanday material ustida tadqiq olib boradi. Bunda muloqot ishtirokchilarining kommunikativ harakati, noverbal vositalar ham ustuvor ahamiyat kasb etadi. Olingan ma’lumotlar asosida ziddiyatli matnning umumiy xulosasi beriladi. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, *A* shaxs haqida ikkinchi *B* shaxsning haqorat, kamsitish, tuhmat tarzidagi nutqini ekspertiza qilishda matnning lingvistik va psixologik belgilariga tayanib baholanadi. Bunda lingvist-ekspert mavjud ziddiyatli matnlar ekspertizasini obyektiv va subyektiv omillar asosida tekshirishi lozim bo‘ladi. Quyida ularni ketma-ket ifodalab chiqamiz:

Obyektiv tomondan:

1) nafrat yoki dushmanlik shaxslarning qadr-qimmatini kamsitish, jinsi, irqi, millati, tili, kelib chiqishi, dinga bo‘lgan munosabati, qanday ijtimoiy guruhga tegishliligini asoslash;

2) siyosiy tashkilotlar, diniy birlashmalar, milliy urf-odatlar va boshqalarga tahdidning yo‘qligi;

3) oshkoralik;

4) joy;

5) vaqt;

6) vaziyat;

7) usul;

8) shakli (og‘zaki, yozma);

9) asos (jins, irq, millat, til, kelib chiqishi, dinga bo‘lgan munosabati, har qanday kishiga tegishli ijtimoiy guruh);

10) ommaviy axborot vositalaridan foydalanish jihati va boshqalar.

Subyektiv tomondan:

1) aybdorlik; 2) sabab; 3) maqsad.

Ekspert oldindan hukm chiqarmaydi, balki mavjud obyektga umumiy va xolisona baho beradi. Xulosa esa yuqorida ta’kidlanganidek, turli omillar asosida aniq va dalillik jihatdan asoslangan holda bo‘lishi lozim.

Ekspertizalarni belgilash, ishlab chiqish va yakunlash jarayonida turli muammoli vaziyatlar, muzokara va muhokamalar yuzaga kelishi, tabiiy. Bunday vaziyatlarni xolisona baholash va asoslashda sohaga oid mutaxassislarni jalb etish, har bitta ekspertizani ishlab chiqishda ekspertlar jamoasini shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. E’tibor

qaratish lozim bo'lgan yana bir masala shundaki, asosiy ekspertiza markazlari negizida hududiy filiallarni tashkil etish va ular faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish lozim. O'z o'rnida, bu lingvist-ekspert kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini yaratish, takomillashtirish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Tashkil etilgan markaziy tuzilmalar turli metodologiyaga asoslangan o'ziga xos metodik yondashuvlari mavjud bo'lishi lozim. Bunday metodik yondashuv markaziy tuzilma negizida viloyatlar kesimida ixtisoslashtirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ekspert sifatida faoliyat yuritadigan mutaxassislarining lingvistik bilim va malakalari ham bo'lishi lozim. Adovat ruhidagi, mamlakat xavfsizligiga, shaxs qadr-qimmatiga daxl qiluvchi mazmunli matnlar uchun ekspertiza tayinlashda qiyinchilik va muammolar yuzaga kelishi, tabiiy. Boisi ekspertizani amalga oshiradigan lingvist-ekspertlarning asosan filolog-mutaxassislar jamoasidan iborat ekanligi lingvistik va yuridik, psixologik bilimlarni umumlashtirish imkoniyatini pasaytiradi. Bu esa jarayonning samarali va tezkor amalga oshirilishiga to'sqinlik qiladi. Demak, lingvistik ekspertiza maxsus bilimlarga ega bo'lgan ekspertlar jamoasi tomonidan amalga oshiriladigan amaliy jarayon. Aynan shunday malakaga ega bo'lgan lingvist-ekspert kadrlar muammoning obyektiv ko'rib chiqilishi va yechim topilishiga yordam beradi. Bu jarayonda lingvist-ekspertning vazifalari nimadan iborat? Albatta, sud-ekspert faoliyatining, xususan, lingvist-ekspertning ham vazifasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq murojaatchi va sud jarayoniga amaliy yordam ko'rsatishdan iborat. Ushbu jarayonda zarurat tug'ilganda maxsus mutaxassislar ko'magiga tayaniladi. O'z navbatida, mutaxassis va ekspert termini farqli ekanligi oydinlashadi. Lingvist-ekspert keng qamrovli bilimlarga ega shaxsni ifodalaydi. Afsuski, mavjud qonun hujjatlarida ekspertlar faoliyatini tashkil etish, ularning vakolat doirasi kabi masalalarga e'tibor qaratilmagan. Ekspertning, aynan lingvist-ekspertning, vakolati, unga qo'yiladigan talablar bo'yicha qonuniy asos yaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jan Svartvik. The Evans statements. – Goterborg, 1968. – 27 p.
2. Solan L.M., Tiersma P.M. Speaking of Crime: The Language of Criminal Justice. – Chicago and London: The University of Chicago Press, 2005. – P. 40-46.
3. Голев Н.Д. Юридический аспект языка лингвистическом освещении. // Юрислингвистика. Проблемы и перспективы:

Межвуз.сб. научных трудов / Под ред. Н.Д.Голева. – Барнаул: Изд-во Алт.ун-та, 1999. – С. 7–38.

4. Malcom C., Johnson A. The Routledge handbook of forensic linguistics (Routledge Handbooks in Applied Linguistics). – London: Routledge, 2010. – P.673.

5. Галяшина Е.И. Назначение, производство и оценка заключения судебной лингвистической экспертизы. – М., 2002. – 13 С. (Методические рекомендации)

6. Галяшина Е.И. Назначение, производство и оценка заключения судебной лингвистической экспертизы. – М., 2002. – 15 С. (Методические рекомендации)

7. Бринев К.И. Проблема тождества языковых единиц, задачи лингвистической экспертизы и пределы компетенции лингвиста-эксперта [URL: http://silberiaexpert.com/publ/problema](http://silberiaexpert.com/publ/problema).

8. Карлин И.П. и др. Основы криминалистической экспертизы материалов, веществ и изделий. – М.: 1993. – 58 С.

9. Malcolm C., Johnson A. An introduction to forensic linguistics. Language is evidence. UK: Routledge Park Square, Milton Park, Abingdon, – 2007. – P 250.

Malcolm C., Johnson A.. The routledge handbook of forensic linguistics. UK - Routledge, – 2007. – P.702

10. Гулямова Ш.Қ. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хосланиши : Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – 145 б

11. О‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. 22.09.1994. <https://lex.uz/ru/docs/-97664>

12. О‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. 22.09.1994. <https://lex.uz/ru/docs/-97664>

13. [Бондаренко Е.Н.](#) Роль композиционного анализа документов в лингвистической экспертизе // Материалы международной научно-практической конференции Восток-Запад: партнёрство в судебной экспертизе. Актуальные вопросы теории и практики судебной экспертизы (г. Алматы, 6 ноября 2014 г.). – Астана, 2014. – С.62-64.

14. Бринев К.И. Проблема тождества языковых единиц, задачи лингвистической экспертизы и пределы компетенции лингвиста-эксперта // Мир науки, культуры, образования. – 2009. - № 6 (18). – Б. 66-69.

15. Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика: учеб. пособие / А.Н. Баранов. – М.: Флинта: Наука, – 2007. – 507 С.

16. Shahobitdinova Sh., Rustamov D., Popov D., Rustamova D. va boshqalar. Ommaviy lisoniy madaniyat, jamoaviy monografiya. Andijon: – © Lambert Academic Publishing. – 2020. 150 b.

¹<https://wiselawyer.ru/poleznoe/43591-razvitie-sudebnykh-rechevedcheskikh-ehkspertiz-rossii>

17. Grachev M. A. Problems of formation and the formation of language minoriyas science// Bulletin of the Nizhny Novgorod state University n.a.N.A Lobachevsky. – 2010,

-No .4 (2).-S.499.

18. Handkie Jurgen. Forensic Linguistics - An Overview.https://www.youtube.com/watch?v=n4wZ-O_f5ds. – 2014.

19. Бринев К.И. Проблема тождества языковых единиц, задачи лингвистической экспертизы и пределы компетенции лингвиста-эксперта // Мир науки, культуры, образования. – 2009. - № 6 (18). – Б. 66-69.

20. Ажнюк Л.В. Типологія об'єктів лінгвістичної експертизи і методика їх дослідження/ Леся Вікторівна Ажнюк // Мовознавство. – 2016. – № 3. – С. 6.

1.3. Plagiatlik tushunchasi va plagiatlik holatlarida lingvistik ekspertiza*³⁷

Ma'lumki, XX asrning ulkan kashfiyotlaridan biri sifatida e'tirof etilgan qoidaga ko'ra har qanday harakat "nisbiy" ekanligi inkor etilmaydi. Buni quyidagicha izohlashimiz mumkin. Deylik, avtomobilda ketyapmiz. Mashina oynasining narigi tomonida birma-bir o'tib borayotgan predmetlarni kuzata turib, avtomobil harakatlanayotganini payqaymiz, ammo transport ichidagi boshqa bir odamga nisbatan olib qaraganda biz o'z joyimizdamiz. Shuning uchun harakatning mavjudligini harakatsiz biror obyektga nisbatan aniqlash mumkin. Bu esa Eynshteyn nazariyasining birinchi qismini tashkil etadi. Biz uni quyidagicha ta'riflashimiz mumkin. Kosmik kenglikda jismning doimiy tezlik bilan harakatini boshqa bir obyektga nisbat bermasdan qayd etish mumkin emas.³⁸ Eynshteyn nazariyasining ikkinchi qismiga ko'ra, olim yorug'lik tezligini koinotdagi yagona o'zgarmas hodisa deb biladi. Bu o'rinda biz uchun kerakli jihat nisbiylik hodisasining muhim ekanligidir.

Vaqt o'tishi bilan voqea-hodisalarda narsa-buyumlarning turli o'zgarishlarga uchrashini anglash qiyin emas. Masalan, XII asrdan XX asr boshlariga qadar amalda bo'lgan arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvini o'qish o'z davrida shunchaki savodxonlik hisoblangan. Biroq 1929, 1940 hamda 1993-yilda imlo bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar natijasida bunday manbalarni mohirona o'qish yuqori ilmiy darajali mutaxassislarga xos malaka sifatida qaraladigan bo'ldi. Xuddi shu fikrlardan kelib chiqib, undan ham oldinroq sodir bo'lgan bir holatning tahliliga e'tibor qaratsak. O'zbek adabiyotida hazrat Navoiy dahosini, uning turkiy til va adabiyotiga qo'shgan ulkan va betakror hissasi shubhasiz, shu ma'noda "Xamsa" shoir ijodining eng yuqori cho'qqisi hisoblanadi.

Xamsachilik – Sharq xalqlari adabiyotida dostonnavislik shakllaridan biri; "Xamsa" yozish bilan bog'liq adabiy an'ana bo'lib, bunga Nizomiy Ganjaviy tomonidan asos solingan.³⁹

Ijodkorlar Nizomiyni "Panj ganj"ini ("Besh xazina") tashkil etuvchi "Maxzan ul-asror", "Xusrav va Shirin", "Layli va Majnun", "Haft paykar", "Iskandarnoma" dostonlarining mavzusi, qisman syujet va kompozitsiyasi, qahramonlari, vazni va joylashish tartibini saqlagan

³⁷ Abror Murtazoyev.ToshDO'TAU katta o'qituvchisi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

³⁸ Болалар учун универсал энциклопедия. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. – Б. 45.

³⁹ <https://qomus.info/>

holda o‘z asarlarini yozganlar. Bu o‘sha davrda badiiy ijodda katta mahorat maktabi sanalgan. Xamsa dostonlarining har bir mavzusi, qahramonlari, hatto qo‘yilgan masalalarigacha ma’lum bir aniqlikka ega. Bu janrda ijod qilgan yozuvchi o‘z mahoratini ana shu an’anaviy vositalar yordamida ko‘rsatishi shart ekanligi ma’lum. Buning ta’sirida Sharqda 50 dan ortiq xamsalar vujudga kelgan. Xamsaning alohida dostonlariga javoblar ham yozilgan. Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”sining syujet va mavzulari turli xalqlar badiiy adabiyotlariga ta’sir etib, XIII–XX asrlar davomida 600 dan ortiq asar yaratilganligi e’tirof etiladi. Bu o‘rinda Alisher Navoiy o‘zigacha bo‘lgan buyuk xamsanavislar – Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiylarni o‘ziga ustoz deb bilgan. Shuningdek, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” (Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoniga) “Arba’in” Jomiyning “Chihil hadis”ini turkiyga tarjima qilgan va bu asarlar ham Navoiyning o‘z asari sifatida e’tirof etiladi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, “xamsanavis” bo‘lishi uchun “Xamsa” tarkibidagi dostonlarning mavzusi, syujet va kompozitsiyasi, qahramonlari, vazni, joylashish tartibi qanday bo‘lsa, (garchi yaratilgan har bitta “Xamsa” g‘oya va muallif aytmoqchi bo‘lgan fikr nuqtai nazaridan farqli bo‘lsa-da) shunday yozish talab va bu talabni mohirona uddalash (bir til doirasida bo‘lsa ham) ijodkorlik hisoblangan. Bu holat faqatgina Sharqqa xos bo‘lmay, G‘arbda ham tabiiy hodisa sifatida qaralgan. Masalan, Antik davrda, boshqalarning matnlaridan ilmiy qarz olish keng tarqalgan edi. O‘tib ketgan ijodkorlarning asarlaridan tarixchilar va geograflar, shu jumladan, Gerodot (Gekateydan qarz olgan) va Plutarx kabi mashhur odamlar erkin foydalanganlar.⁴⁰ Xuddi shunday XVIII asrda Ota Barr “Histore Allemagne” asarining bir qismi sifatida Volterning “Istori Karla XIII”dan 200 betlik parchasini nashr etdi. Jan-Jak Russo plagiatda ayblangan, ammo uning “Contrat social” va Ulrich Hubertning “De jure institis” kitoblari o‘rtasidagi o‘xshashlik ba’zi fikrlar tasodifidan boshqa narsa emas edi.

Vaqt o‘tishi bilan tushuncha va qarashlar o‘zgara bordi. Bunday o‘zgarishlarga ko‘ra, voqelikka munosabatlar ham ilgarigidan farqlilikka o‘tdi. Masalan, 1812 yilda taniqli sharqshunos Ye.Langle tomonidan nashr etilgan “Voyage Abdoul Rizzak”ning o‘z asari niqobi ostida nashr etilgan tarjimasi aslida asarning eski tarjimasidan olingan parcha ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ye.Langle Galland matni bilan daftarni yo‘q

⁴⁰ <https://ru.wikipedia.org/>

qilgan, ammo uning nusxasi borligini bilmagan edi. . Bunday munosabatlar natijasida “plagiat” tushunchasi faollashdi. Yevropa tillaridagi hozirgi ma’nosida “plagiat” so’zi XVII asrda qo’llanila boshladi. Rim qonunchiligida plagium (so’zma-so’z o’g’irlash) ozod odamni jinoiy ravishda qullikka sotish ma’nosini bildirgan, u qamoq (ad plagas) bilan jazolangan. Shu ma’noda, bu “Kulgan odam” romanida bola o’g’irligi bilan bog’liq holda keltirilgan. Dastlab adabiy mulkni o’g’irlash “plagium litterarium” deb nomlangan . Rus tilidagi “plagiat” so’zi frantsuzcha plagiat – “plagiat, taqlid”. Bunday munosabatlar natijasida davr o’tishi bilan mualliflik huquqining tushuncha sifatida yuzaga kelishi hamda uni har tomonlama himoya qilish muhim masala sifatida yuzaga chiqdi.

Bu holat ko’pgina mamlakatlar qatorida O’zbekistonda ham huquqiy jihatdan tartibga solingan. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 fevraldagi “Intellectual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-4168-son va 2019-yil 1-iyuldagi “O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellectual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-4380-son qarorlari hamda shu qarorlarga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-iyuldagi 609-son qarori bilan huquqiy jihatdan tartibga solinishi belgilab qo’yilgan. Mualliflik huquqida qarshi kurashiladigan illat bu – ko’chirmakashlik. O’zbek tilining izohli lug’atida bu tushunchaga quyidagicha izoh berilgan: ko’chirmakash, ko’chirmakashlik, ko’chirmachi, ko’chirmachilik – o’zganing ishini ko’chirib olib, o’ziniki qilib ko’rsatuvchi kishi, o’zganing ishini ko’chirib olish bilan shug’ullanishdir.⁴¹ Bu umumiy izoh, yuridik atama sifatidagi ma’nosi quyidagicha izohlangan: “Adabiy o’g’irlik. Plagiat – birovning asarini ko’chirib, o’ziniki qilib olish. Bunday o’g’irlik muallif ijozatisiz, ilmiy, adabiy, musiqiy yoki badiiy asarni o’z nomidan to’la yoki qisman bostirib chiqarish, kashfiyot yoki ixtirochilik takliflarini o’ziniki qilib olish...”.⁴² Bundan ko’rinib turibdiki, qonunchilik ko’chirmakashlikning maqomini uning qay hollarda jinoyat ekanligini belgilab qo’ygan, biroq ish bu bilan tugamaydi. Biror ishni ko’chirmakashlik ekanligini o’sha soha mutaxassisleri masalan, san’at asarini ko’chirilganligini rassom yoki haykaltaroshlar, ilmiy-badiiy asarning ko’chirmakashlik ekanligini soha

⁴¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. II жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2020. – Б. 477.

⁴² <https://kitobxon.com/oz/kitob/ozbekcha-ruscha-inglizcha-yuridik-atamalar-lugati>

olimlari aniqlab beradi. Bu masalada muammolarning ko'payishi oliy ta'limda amalga oshirilayotgan ilmiy ishlarni internet tarmog'iga joylashtirib borish bilan bog'liq. Yuzaga kelgan bunday vaziyat bugungi kunga kelib, dunyoda o'zganing intellektual mulkidan noqonuniy foydalanishga qarshi kurashishni yangi bosqichga ko'tarishni talab qilmoqda. Ushbu kurashning avjiga chiqishi internetning keng tarqalishi, undan arzonroq foydalanish, (masofadan turib olinadigan xizmatlar) xizmatlar sonining ko'payishi, elektron tijorat tizimlarining mavjudligi bilan bog'liq. Bu borada qilingan ishlarni muallifning original ishi yoki ilmiy odobga amal qilinmay amalga oshirilgan ko'chirmakashlik ekanligini aniqlash uchun inson omilining o'zi yetarli bo'lmay qoldi. Zero, biror sohadagi tadqiqotlar haqidagi batafsil ma'lumotlarni (barcha ilmiy ishlarni) bir yoki bir necha nafar inson xotirasida jamlash imkonsiz ekanligini bilishning o'zi fikrimizni dalillaydi. Shuningdek, insoning aqliy, ruhiy hamda boshqa his-tuyg'ulari (tanish-bilishchilik, dushmanlik) kabilar ham bu jarayonni aniq va xolis amalga oshirishga monelik qiladi. Inson tabiati har doim ham mashaqqatni xohlayvermasligi sababidan, u buning ham yechimini izlaydi. Jahon tajribasida ko'chirmakashlikning oldini olish uchun maxsus elektron antiplagiat dasturlar ishlab chiqilgan va amaliyotda qo'llanmoqda. Bu dasturlar matnlardagi aynanlikni tekshirib, uning umumiy hajmidan kelib chiqqan holda noqonuniy o'zlashtirishlar miqdorini foizlar hisobida ko'rsatib beradi. Biroq internetda bunga qarshi ko'chirmachilik (plagiat)ni chetlab o'tishga doir turli tijoriy takliflar ham paydo bo'ldi. Dastlab antiplagiat dasturini matndagi alifbolarni, jumladan, rus alifbosidagi harflarni masalan "a", "o" va "s" lotin alifbosiga yoki aksincha qilib almashtirish bilan ko'chirmakashlikni kamaytirishga erishildi va bu 2016-yilgacha foyda berdi. Antiplagiat dasturini aldash uchun matn orasiga turli ko'rinmas belgi yoki harflarni kiritib, uni oq rangga bo'yash kabi usullardan ham foydalanilgan, bular ham 2020-yilga kelib dasturni mukammallashtirish natijasida foyda bermay qo'ydi. Antiplagiatning dastlabki ko'rinishi "aynan bir xil matnlarni tekshirgan" bo'lsa, keyingi bosqichi – bu "niqoblangan", ya'ni alifbo harflarini boshqa alifboga o'zgartirib matn tayyorlash, turli ko'rinmas belgilar qo'shilgan matnlarni aniqlashga xizmat qildi. Shuningdek, hozirda antiplagiatning "mazmuniy o'xshashlikni", "ko'p tilli" (tarjima ishlarni aniqlovchi) hamda "g'oyaning o'g'irlanganligini" aniqlovchi turlari haqida bir qator nazariyalar mavjud. Bugungi kunda matnlar o'rtasida mazmuniy o'xshashlikni aniqlovchi antiplagiat dasturiga

bo‘lgan ehtiyoj har doimgidan ko‘ra yuqori ekanligini ta’kidlash lozim. Fikrimizning dalili sifatida 2019-yilda “Aqlli sinonimizatorlar” deb nomlangan dasturlar avlodi paydo bo‘lganligini ta’kidlashning o‘zi kifoya. Bu dasturlar yarimavtomat tarzida ishlab, matndagi so‘zlarni sinonimlariga almashtirib beradi va bu bilan ko‘chirmakashlik foizining keskin pasayishiga olib keladi. Bundan kelib chiqadiki, mazmunan o‘xshashlik darajasini aniqlash uchun antiplagiat dasturining keyingi bosqichini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biridir. Shu kungacha bo‘lgan davr mobaynida matnlardagi aynanlik, mualliflik huquqini himoya qilish masalasi kompyuter dasturchilari bilangina yechilayotgan edi. Vaqt o‘tishi bilan o‘ylab topilgan turli hiylanayranglar ham barham topgach, endi yana-da murakkab nayrang – “Aqlli sinonimizatorlar” paydo bo‘ldi. Bu esa antiplagiat dasturining takomillashuvida kompyuter muhandislari bilan filolog mutaxassislarning professional hamkorligini talab qilmoqda.

Tilning ijtimoiy hodisa ekanligini tasdiqlovchi dalillar nihoyatda ko‘p. Buni jonli hayotimizda ham fanlarning o‘zaro ta’siri va bog‘liqligiga ko‘ra, tilshunoslikning o‘rni yuqori ekanligidan ham yaqqol namoyon bo‘lishi tasdiqlaydi. Shuningdek, buni har qanday egallanadigan ma’lumotlarni tartibga solishi bilan xarakterlanishini ham inobatga olish muhim. Vaqt o‘tishi bilan sodir bo‘layotgan yangiliklar yangi fan sohalarini ham yuzaga kelishiga turtki bo‘lmoqda. Xuddi shunday yangi sohalardan biri kognitiv tilshunoslikdir. Tilshunoslik kognitologiya fani shakllanishida poydevor bo‘lib xizmat qilganligi sababli uch soha – kompyuter lingvistikasi, kognitiv psixologiya hamda generativ grammatika qatoridan bejiz joy olmagan.⁴³

Amerikalik psixolog H.Gardner kognitiv fanlar kesishuvida falsafa, psixologiya, tilshunoslik, sun’iy intellekt, nevrologiya hamda antropologiya fanlarini sanagan. Inson borliq va undagi narsalar haqida falsafiy tafakkur qiladi hamda buni til orqali tartibga soladi va taqdim etadi. Mavjud fanlarning dastlab falsafiy yondashishga ko‘ra tadqiq etilishini e’tiborga olgan holda, biz ham birinchi galda o‘zimiz uchun muhim bo‘lgan aynanlik tushunchasining falsafa va boshqa fanlardagi o‘rni, mazmun-mohiyatini yoritishdan boshladik.

Falsafada “Bilish nazariyasi”ga ko‘ra, aynanlik bu aynan o‘xshashlik (lotin./iden) so‘zidan olingan, “o‘shaning o‘zi”, “aynan” degan

⁴³ Сафаров.Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 19.

ma'nolarni ifodalaydi .⁴⁴ Ya'ni aynanlik biror narsa yoki voqea-hodisaning boshqasiga aynan o'xshash ekanligi, o'zaro bir-biriga to'la muvofiqligi. Shu bilan birga bu fanda narsa va hodisalardagi o'zaro o'xshash tomonlar birligiga ayniyat deyiladi. Tafakkurda mavjud bo'lgan aynanlik tamoyili turli vaziyat va sharoitlarda o'z-o'zining aynanligini saqlab qolgan holdagina o'z-o'ziga teng bo'ladi. Ayniyat tamoyili faqat fikrlash jarayonida, mushohada paytida qo'llaniladigan tushunchaning aynan bir ma'noda ishlatilishini talab qiladi. Narsa o'z-o'zigagina nisbatan aynan bo'lishi mumkin. Aynan narsa va hodisalardagi o'xshashlik hamda mutlaq tenglik (barcha muhim xususiyatlarning o'zaro bir-biriga to'la mosligi) shakllarida namoyon bo'ladi.

Narsa-hodisalar ma'lum nisbatdagina o'z-o'ziga aynan bo'ladi, aslida u doimo o'zgarishda bo'lgani uchun uning to'la, batamom aynanligi haqida fikr yuritish aksariyat hollarda noto'g'ri bo'ladi. Ong ham o'z-o'ziga aynan (teng) bo'lishi mumkin emas, u taraqqiy etib boradi, lekin bu taraqqiyot "men"ning taraqqiyoti tarzida kechadi .⁴⁵ Bu o'rinda "nisbiylik nazariyasi"ni yodga olish zarur. Bu izohlardan falsafada aynanlik mavjud bo'lish bilan birga, narsa va hodisalarning ma'lum bir vaqtda aynan bir xil bo'lishi mumkin ekanligi hamda vaqt o'tishi va boshqa omillarga ko'ra voqea-hodisalar hamda narsalarning o'zaro aynanlik holati yo'qolishi ham tabiiy hodisa ekanligi oydinlashadi. Borliq narsa, voqea-hodisalarning turli-tumanligidan iborat. Lekin narsalar qanchalik xilma-xil, turli-tuman bo'lmasin, ular o'rtasida yaqinlik, aynanlik mavjuddir . Bu aynanlik unga katta hajmdagi ma'lumotlarni o'xshatish va farqlash belgilari orqali tanib olish, foydalanish kabi o'rinlar uchun muhim ko'rsatkich sanaladi.

Adekvat (lot. *adaegautus* – tenglashgan, mos, aynan bir, o'xshash) – bilish nazariyasida narsa va hodisalarning xossalari va aloqalarini ularning obyektiv mazmuniga to'g'ri keladigan, aniq va mos qilib olishdir . Bundan kelib chiqadiki, inson ongi ob'ektiv borliqni ijtimoiy amaliyot asosida aynan aks ettirib boradi. Aslida ham nazariyaning yuzaga kelishi uchun real hayotdagi voqea-hodisalar ta'sir qiladi va bunga nisbatan mavjud bilimlar tartibga solinib, amaliyotga tatbiq etiladi, nazariya va amaliyot muvozanati ta'minlanadi. Nazariya va

⁴⁴ Абдуллаева М., Аликулов Х., Жалолов А., Назаров Қ. Қисқача фалсафа луғати. – Тошкент: "Шарк" НМАК, 2004. – Б. 14

⁴⁵ Абдуллаева М., Аликулов Х., Жалолов А., Назаров Қ., Қисқача фалсафа луғати. – Тошкент: "Шарк" НМАК. 2004. – Б. 14.

amaliyotda biri ikkinchisini aks ettirishda aynanlikka amal qilishi uning mazmun-mohiyatini to'g'ri va aniq bilishga xizmat qiladi.

Bu fikrlarga binoan insonlarning aynan o'xshash jihatlarini sanaydigan bo'lsak, tashqi ko'rinishi, oziq-ovqat iste'mol qilmasa yashay olmasligi, oyoq va qo'ldan bir xil tarzda foydalanishi (doimiy ravishda oyoq yurish vositasi, qo'l ushlash va. h.larda), onglilik, "Har bir jon o'limni totguvchi...", ya'ni o'lim hodisasining barcha insonlar uchun aynan xos birdek sodir bo'ladigan hodisa ekanligidir. Aynanliklar bilan birga yakka shaxslarning bir-biridan farq qiladigan ko'plab jihatlar mavjud ekanligini "Albatta, uning barmoq uchlarini ham asl holiga keltirishga qodirmiz..." mazkur dalil ham tasdiqlaydi. Ya'ni, har bir insonning barmoq izlari bir-biridan keskin farq qilib turadi. Bu o'rinda aynanlik tushunchasining ilmiy, falsafiy talqin etilganda yana bir bor nisbiy hodisa ekanligi tasdiqlanadi. Falsafa fanida analogiya (yun. analogiya – muvofiqlik, aynanlik, o'xshashlik) tushunchasi ham mavjud bo'lgani holda predmet va hodisalarda biror xususiyatning o'xshashligi, ya'ni barcha xususiyati bilan emas, balki ba'zilar bilan o'xshashligini ifodalaydi. Falsafa bilan mushtarak bo'lgan mantiq fanida esa, bu tushunchaga ko'ra, ikki predmetning qandaydir bir xususiyati o'xshasa, boshqa xususiyatlari ham o'xshashligi haqida xulosa chiqariladi. Yuzaga kelgan xulosaning to'g'ri yoki noto'g'riligini amaliyotda tekshirish orqali aniqlanadi. Masalan, bir oilada egizaklar (aka-uka, opa-singil) jinsi bir ekanligi uchun bir xil (aynan) bo'ladi, degan xulosa mavjud. Bu xulosaning to'g'ri yoki aksincha ekanligini tibbiy, psixologik, mantiqiy tekshiruvlar orqali aniqlash mumkin.

Aynanlik har bir fanda o'ziga xos talqinga ega ekanligini Kvant fizikasi misolida ham ko'rib chiqishimiz mumkin. Bu fanda ayniylilik printsiipi – kvant mexanikasining asosiy qonuni, unga ko'ra bir xil zarralarning bir-biridan farq qilishi mumkin emas. Klassik mexanikada fizik xossalari (massasi, zaryadi va boshqalar) ayniy (bir xil) bo'lgan zarralar o'z xususiyatini yo'qotmasligi ta'kidlanadi. Shuningdek, fizik xossalari bir xil bo'lgan zarralar bir-biridan farq qilmaydi, ya'ni ushbu printsiipga binoan, ayniy zarralarning o'rin almashinishi natijasida zarralar tizimining ichki o'zgarish holatini hech qanday tajriba yordamida farqlab bo'lmaydi va bu bitta fizik hodisa deb qabul qilingan. Demak, kvant fizikasi ta'limotiga ko'ra zarralar bir xil bo'lishi me'yoriy holat sanaladi.

Aynanlik shu qadar keng tushunchaki, uni turli fan va sohalarda uchratish mumkin. Masalan, huquqshunoslik sohasida analogiyaga ko'ra

hukm chiqarish 1959 yilga qadar davom etgan. Bu tushunchaga ko'ra, biror tayin harakat qonunda bevosita ko'rsatilmagan holda shunga o'xshash hodisani ko'zda tutadigan huquqiy normani bu harakatga tatbiq etishdir. Aniqroq aytadigan bo'lsak, fuqarolik huquqida biror turdagi aybli qilmish qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmagan hollarda, sud shunga o'xshash munosabatlarni ko'zda tutadigan boshqa qonuniy chorani (bir-biriga yaqin deb qaralgan jinoyatning birida jazo belgilangan bo'ladi va aynan shu jazo qo'llaniladi) qo'llash hodisasidir. Bunda aynanlik hodisasi mutlaq mos emas va bu adolatli hukm chiqarish uchun jiddiy salbiy ta'sirga ega. Bu tushuncha bilan hukm chiqarish O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi hozir mavjud emas. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 4-moddasida ko'rsatilishicha, "sodir etilgan qilmishning jinoiyligi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanadi." Demak, qonunchilikda jinoyatga jazo berishda aynanlikka amal qilish, ya'ni aynan bir turdagi jinoyatga bir xil jazo chorasini qo'llash adolatli deb e'tirof etiladi. Huquqshunoslikdagi aynanlik qonunchilikning mukammalligini hamda uning ijrosida adolat tamoyilini ta'minlovchi asos tushunchalardan hisoblanadi. Masalaning yana bir jihatida shundaki, aynanlikka ko'ra ish tutishni o'zlari uchun qat'iy tartib sifatida belgilash bilan birga qonunchilik turli munosabatlarni tartibga solganligi sababli mualliflik huquqini himoya qilishda noqonuniy ko'chirmakashlik (aynanlik)ni taqiqlaydi. Ya'ni biror ilmiy ish, kashfiyot, san'at asari ko'chirilganligini da'vo qilinganda bu shikoyat murojaati qonuniy asos bilan qondiriladi. Masalan, biror san'at asarini surat, haykal yoki qandaydir narsaning ko'z bilan ko'rib xulosa qilish mumkin bo'lgan o'rinlarda u qadar chuqur yondashishga doim ham zarurat sezilmaydi. Biroq ilmiy ishlarga nisbatan bunday qarab bo'lmaydi. Masalan, filologiya (o'zbek tili) sohasida ilmiy tadqiqot matning originalligini aniqlash - ancha murakkab jarayon sifatida qaraladi.

Aynanlik tushunchasi betaraf, uning salbiy yoki ijobiy ekanligi munosabatlarda hal etiladi. Masalan, matnshunoslik va adabiy manbashunoslikda aynanlik ko'proq ijobiy ma'no kasb etib, muallif asarining aynan nusxasini topish va uni ilmiy muomalaga kiritish muvaffaqiyat hisoblanadi.

Soha olimlarining "Matnning muallif ishtirokisiz amalga oshirilgan har qanday tahriri esa asar mohiyatiga zarar yetkazishi jihatidan maqsadga muvofiq emas", degan munosabati ham buni isbotlaydi.

Tilshunoslikda ham aynanlik tushunchasi mavjud bo'lsa-da bu hodisa nazariy jihatdan jiddiy tadqiq etilmagan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "Aynan [a. – xuddi o'zi] rvsh. kt. 1 Qanday bo'lsa, shunday, hech qanday o'zgarishsiz. Aynan tarjima. Elmurod javob berish uchun ko'p o'ylab turmadi. Ilgari bo'lgan voqeani bugunga aynan ko'chirib aytib qo'ya qoldi. 2 yukl. Xuddi. Otasining aynan o'zi..." izohidan ma'lumki, aynanlik hech istisnosiz bir xillikni, farqlar bo'lishini rad etadi. Lekin bu izohlarda keltirilgan misollarni tahlil qiladigan bo'lsak, aynanlik mutlaq bo'lmasligi ham mumkin ekanligi ma'lum bo'ladi. Masalan, birinchi misolda voqea qanday bo'lsa aynan shunday aytib berish mumkin. Lekin, Otasining aynan o'zi deganda uning tashqi ko'rinishi yoki xarakter xususiyatlari bir ekanligini nazarda tutish mumkin. Ya'ni otasining aynan o'zi degan o'sha odamning to'liq o'rnini bosa oladi, degan xulosani bermaydi. Bundan tashqari, izohli lug'atda baravar, teng, bir, birday, bir xil, dublet (fr) 1 Biror narsaning ikkinchi nusxasi; ikkita bir xil, teng qimmatli narsaning biri., dublyor (fr) 1 Biror ishni navbatlashib baja-ruvchi yoki bir ishda bir-birining o'rnini bosa oluvchi ikki kishidan biri., dublikat (fr) Biror yozma hujjatning asl nusxasi bilan bab-baravar rasmiy, yuridik kuchga ega bo'lgan boshqa nusxasi, kabi so'zlar, aynanlik tushunchasini turli tomondan turli o'rinlarda ifodalash uchun qo'llaniladi.

Biz tilshunoslikda aynanlikni sodda gaplar va ular tarkibidagi so'zlar miqyosida o'rganamiz. Albatta, so'z - filologiyada eng muhim tushunchalardan biridir. Har bir so'z muayyan tushuncha yoki fikrni ifodalashga (atov gap sifatida kelganda) xizmat qiladi. Tabiiyki, so'z yoki so'zlar birikmasi grammatik jihatdan shakllanib, gaplarni hosil qiladi hamda yuzaga kelgan gaplar muayyan fikr, hukmni ifodalaydi. Gapning mazmuniga qiziqish undagi turli so'zlarga xos turfa ma'nolarining ochilishiga olib keladi. So'zlarning shakl va ma'nosiga doir tadqiqotlar natijasida sinonimlik, antonimlik va giponimlik hodisalari ma'lum bo'ldi. Biz mavzu doirasida bu tushunchalar haqida ham to'xtalamiz. Tilshunoslikda sinonimiya – shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli bo'yoq va ottenka tusi bilan ifodalaydigan leksemalar. "(gr. synonymos – "bir nomli"). Sinonim leksema orasidagi munosabat sinonimiya yoki sinonimik munosabat deb yuritiladi".

Bu qoidaga binoan sinonim deb qaralayotgan leksemalarning semalaridagi atash hamda vazifa semasi aynan bo'lgani holda ifoda semasida farqlar mavjud ekanligi ta'kidlanadi. Misol sifatida yuz – bet – aft – bashara – turq so'zlarining barchasi tepadan odam peshanasining

soch bitgan joyidan toki iyaklari ostigacha, ikki yon tarafdin ikki quloqlarining yumshoqlarigacha bo'lgan chegara qismni ifodalovchi so'zni tushunish mumkin. Biroq ifoda semalarida muayyan tafovutlar bor, ya'ni, "shaxsiy munosabat": yuz leksemasida "shaxsiy betaraf munosabat", turq leksemasida "o'ta kuchli shaxsiy munosabat"ni ifodalash holatida bo'ladi. Bu o'rinda keltirilgan misolda namoyon bo'lgan aynanlik mutlaq emasligi ma'lum bo'ladi. Sinonimlarga xos xususiyat so'z ma'nosida aynanlikka xos, ya'ni biri o'rnida ikkinchisini qo'llashning ustun ekanligi bilan xarakterlanadi. Sinonimiya hodisasi leksema bilan frazema, frazema va frazema o'rtasida ham uchraydi:

"1) Sinonim iboralar. Shakli har xil, ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan ibora sinonim ibora (frazeologik sinonim) deyiladi: toqati toq bo'lmoq – sabr kosasi to'lmoq; yaxshi ko'rmoq – ko'ngil bermoq; terisiga sig'madi – boshi osmonga yetdi." kabi.

Lug'aviy birlik sifatida ibora leksema bilan sinonimlik tashkil qila oladi: g'azablanmoq – joni chiqmoq, sevmok – yuragidan urmoq, maqtamoq – ko'klarga ko'tarmoq.

Bundan tashqari, tilshunoslikda analogiya atamasi til unsurlarining (so'z yasalishi, shakl yasalishi va boshqa holatlarda) muayyan munosabat ta'sirida aynanlik kasb etishiga nisbatan qo'llaniladigan tushunchadir. Macalan, "ko'r" ob'ektli fe'lga "qara" ob'ektsiz fe'l sinonim bo'lib kelishi (uchishini ko'r – qara), "ko'r" ko'makchi fe'lga "boq" fe'lning sinonim bo'lishi (qilib ko'r – boq), bet so'zining kitob so'zi bilan qo'llashda sahifa so'zi bilan sinonim bo'lishini misol qilish mumkin. Sahifa va bet aynan kitobning ichidagi varaqlarning tartib raqamini aytishda qo'llaniladi "beshinchi bet", "beshinchi sahifa" kabilar. Ko'rinib turibdiki, ma'no-mazmunda aynanlik mavjud.

Aynanlik kategoriya sifatida tildagi mavjud tushunchalar ularning aloqadorliklari va o'zaro ta'sir doiralarini aniqlashtirib berishda hamda ulardan foydalanish samaradorligini oshirishda alohida ahamiyatga ega. Zero, tildagi darajalanish umumiy borliqning o'zida mavjud bo'lgan darajalanish bilan shartlangandir. Ya'ni darajalanish aynanlik uchun ham o'rinli hodisa sifatida mutlaq yoki nisbiy bo'lishi mumkin.

Aynanlik va o'xshashlik, farqlilik falsafiy, ijtimoiy nuqtai nazardan ijobiy hodisa sifatida qaralishi mumkin. Ammo ilmiy jihatdan matnlarni, tafakkur mahsuli hisoblangan o'ziga xos (original) fikrlarni o'xshash bo'lishi to'g'rirog'i aynan o'xshash bo'lishi ijobiy hodisa emas. Shu nuqtai nazardan matn yaratishda o'zgalar fikridan foydalanish bir qator axloqiy, ijtimoiy, huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shu ma'noda

globallashuv sharoitida tayyor ma'lumotdan foydalanish etikasi buzilgan holatlarda, ya'ni intellektual mulk hisoblangan fikr va g'oyalarni o'zlashtirilishi lingvistik ekspertiza sohasini yanada rivojlantirishga turtki beradi. Bu ijtimoiy zarurat ilmiy matnlarda aynanlik, o'xshashlik va farqlilik hodisalarini maxsus, keng miqyosda monografik o'rganishni taqozo qiladi.

O'zbekistonda ilmiy-tadqiqotning rivojlanishi, original ilmiy matnlarning paydo bo'lishi, muayyan lingvistik nazorat tartibini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Buning uchun elektron shaklda mavjud ilmiy matnlarning mazmuniy o'xshashlik darajasini aniqlaydigan dasturiy ta'minot yaratilishi zarur.

Shu o'rinda biz mavjud aynanlik, o'xshashlik tushunchalarini birlashtirish tarafdorimiz, ya'ni o'xshashlik ilmiy matnlarni tekshirish jarayonida qoniqarli darajada ish bermaydi. Tadqiqot ishmiz doirasida "aynanlik" sifatida sodda gaplarda shakliy o'xshashlik va farqlilik bo'lganda ham ularning mazmunidagi bir xillik nazarda tutiladi va shu nuqtai nazardan aynanlik mazmunga ko'ra tekshiriladi. Bu holatlarni e'tiborga olib, o'xshashlik nisbiy bo'lishini ta'kidlagan holda biz "aynan o'xshashlik" birikmasini ham taklif qilamiz.

O'xshashlik kognitiv mundarijasi va turlari

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligi ham bugungi kunda jahon tilshunosligida sodir bo'layotgani kabi yangi rivojlanish bosqichiga chiqmoqda. Albatta, taraqqiyot davrining davomiyligi doim ham turli sabablarga ko'ra bir xil bo'lmasligi ayni voqelikdagi haqiqatlardan. Biroq bunga bir qancha jiddiy sabablar, mamlakat mustaqilligi, iqtisodiy o'sish, xalqaro maydondagi umumiy yuksalish va buning yuqori saviyadagi talablari, umumiy qilib aytganda, keng ma'nodagi qulay muhitning paydo bo'lishidir. Barcha fanlardagi kabi tilda ham rivojlanish (birlamchi yoki oldingi) metodologiya bilan bir xil tarzda ish ko'raverish bilan amalga oshib boradigan jarayon emasligini hayotning o'zi yaqqol ko'rsatib berdi.

Hozirgi zamon tilshunosligining asoschilaridan biri bo'lgan Ferdinand de Sossyur o'z davrida butun til mexanizmining faqat o'xshashlik va tafovutlar atrofida aylanishini yoxud faqat tilning aynanlik va farqliliklardan iborat ekanligini ko'rsatgan holda tilshunoslik uchun farqliliklarni o'rganish katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan edi. Masalaning qiziq tomoni shundaki, Ferdinand de Sossyurning yuqoridagi fikrlarining ildizlarini qadim yunon ilm-fanida ham kuzatish mumkin. Insoniyat tarixida qadimgi yunon olimlaridan Arastuning o'рни

beqiyosdir. Arastu o'zining mashhur "Poetika" asari "Poeziyaning tabiiy paydo bo'lishi" nomli bo'limida o'xshatish haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: "Poetikaning kelib chiqishiga ochiq-oydin ikkita sabab, ikkisi ham tabiiy. Birinchidan gavdalantirish, o'xshatish insonga bolalikdan xos xususiyatlardan biridir. Inson boshqa mavjudotlardan o'xshatish qobiliyatining mavjudligi bilan ham farqlanadi, hatto u dastlabki bilimlarni o'xshatishdan oladi va bu jarayon samaralari barchaga huzur bag'ishlaydi. Bundan ma'lum bo'ladiki, aytilayotgan asosli fikrlarning ildizlari ancha uzoq tarixga borib taqaladi va bunga esa, inson qancha taraqqiy etmasin, qancha vaqt o'tmasin, jamiyat bilan faol aloqada ekan, muammolar, vaziyatlar o'xshash va takror bo'laveradi, deb qarash o'rinli bo'ladi. Endi bu masalaga tilshunoslik nuqtai nazaridan qarasak, hozirga qadar faoliyat ko'rsatgan empirik tilshunoslik bosqichidan til qurilishini ziddiyatlar orasidagi o'xshashliklarni o'rganish davriga o'tish vaqti allaqachon kelganligini anglashimiz mumkin. Ya'ni, tilni tahlil qilishda binar (oppozitsiyalarga) ajratib o'rganishga katta e'tibor berish boshlandi. Gradual oppozitsiya esa darajalanish (gradatsiya) hodisasiga tayanadi.

Tilning tabiiylik xususiyati sababli uning qurilishidagi darajalanish hodisasining falsafiy-mantiqiy, gnoseologik asoslari atroflicha talqin etilgan. Bunda har bir fanning taraqqiy etishi uchun o'z davrining eng ilg'or falsafiy fikrlari bilan uzviy bog'liqlik alohida ahamiyatga ega. Bu o'rinda davrning yetakchi falsafiy ta'limoti xususiy fanlarning o'rganish manbasi uchun qaysi tomonlariga alohida e'tibor berishi zarurligini belgilovchi vosita ekanligi bilan muhim o'rin egallaydi. Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlarda empirizm ustunlik qilgan bosqich anchayin muomaladan qola boshlagach, amalga oshiriladigan ilmiy izlanishlar sifat jihatidan boshqacharoq (amaliy foyda keltiradigan ishlar) vazifalar faollashmoqda. Analitik (qismlarga ajratish, analiz) tahlil o'z o'rnini asta-sekin sintetik (sintez, o'zaro bog'liqlik, aloqadorlik) tadqiqot ishlariga bo'shatib bera boshladi. Ya'ni, empirizm bosqichiga ko'ra butun zaminida turib qismlarni o'rganish orqali hozirgi yangi bosqichda qismlar asosida butunning xususiyatlarini o'rganish faollashdi. Bu jarayonda qismlar orasidagi bevosita va bilvosita bog'lanishlar, turli munosabatlarning xossa va xususiyatlarni, (makro va mikrostrukturalar, sistemalar) tadqiq etish qoniqarli darajada o'sdi. Bunday munosabat esa, tilshunoslikka oid tadqiqotlar oqimining yangi asos va yo'llarga, metodologiyaga ko'chirilish uchun muhim turtki vazifasini bajardi.

Hozirgi o'zbek tilshunosligi o'ziga metodologik asos sifatida dialektik falsafa, dialektik mantiq, dialektik gnesologiya kabilarni qabul qilmoqda. Shunday qilib nisbiy tugallangan empirizm bag'rida va asosida hissiy bilishdan nisbatan xoli bo'lgan intilish ilmiy-nazariy (aqliy-ratsional) tahlil oqimi chuqurligi sari bosqichma-bosqich borilishiga yo'l ocha boshlaydi. Bu o'rinda e'tiborga olinishi zarur bo'lgan masala shuki, biz ta'kidlayotgan hozirgi yangi bosqich ham tilshunoslikning "so'nggi yuqori cho'qqisi" deb hukm qilinmaydi. Bu bosqich ham keyingisi uchun "empirik maydon", ya'ni navbatdagi nazariy bosqich uchun analitik dalillar, muammolar manbai bo'lib qolishi ayni haqiqat, deb qabul qilinadi. Bu bilan tilshunoslik fani ham boshqa fanlar kabi taraqqiyotining cheksizligi, til mohiyati ichiga kirib borgan sari tubi noma'lum ummon ekanligi va unga yetish yo'li nihoyasizligi haqidagi xulosani e'tirof etish o'rinli bo'ladi.

O'tgan asrda empirik tilshunoslikda umumiy-nazariy masalalarga xususan, gnoseologiya, metodologiya, til falsafasi va mantiq'i kabi masalalarga kam e'tibor berib kelindi. Bunga esa, o'sha empirizm davrida bu jihatlarning faol ishtirokisiz tadqiqotlarni amalga oshirish mumkinligi sabab bo'ldi. Endi esa vaziyat butunlay o'zgarayotganligi sabab, nafaqat empirizm asosida yotgan oddiy (formal) mantiq, balki dialektik falsafa, dialektik mantiq, dialektik gnoseologiya, semiotika, til psixologiyasi, shuningdek, jahon miqyosida karvonboshilik qilayotgan boshqa fanlarning zamonaviy ish tajribalari va yutuqlari bilan tanishmasdan turib, tilni atroflicha va chuqur tahlil etish hech bir anjomlarsiz baland tog' cho'qqisini egallashga urinishga o'xshagan harakat sifatida baholanmoqda.

Bu fikrlardan kelib chiqib, til ijtimoiy hodisa o'laroq, o'xshashlik tushunchasining boshqa fanlarda tutgan o'rni va ahamiyati haqida batafsil to'xtalishni maqsad qildik. Til o'zida tabiiylikni mujassam etganligi sababli ichki sistemasi ham o'zaro o'xshash va farqlilik kategoriyalari asosida qurilgan deyish o'rinli bo'ladi. O'zbek tilining izohli lug'atida bu tushunchaga quyidagicha izoh berilgan: "O'xshash – 1. Xususiyat, xislat, tuzilish va b. belgisi bilan bir xillikka (o'xshashlikka) ega bo'lmoq; o'xshash bo'lmoq. Bola otasiga o'xshaydi. 2. J. k. shaklidagi so'z bilan shu so'z anglatgan narsa haqidagi taxminni, taxminiy tasavvurni bildiradi; bo'lib ko'rinmoq. 3 s. t. Ko'ngildagidek bo'lmoq, o'rinlamoq. Ish uncha o'xshamadi. Osh juda o'xshabdi. 4 (rvdsh. sfdsh. har. n. shaklida – o'xshab, o'xshagan, o'xshash) ko'm. vzf. Qiyos, o'xshatish munosabatlarini ifodalaydi; kabi, singari".

Borliqdagi har bir narsaning umumiy va xususiy jihatlari mavjud ekanligi, aynanlik qaysi jihatga ko'ra olinishi bilan xarakterlanishi va bu tushunchaning nisbiy ekanligi haqida bobimizning avvalgi faslida to'xtalgan edik. Shuningdek, sinonim⁷ degan atamaning bugungi ma'nosi bir-biriga yaqin so'z deb ta'riflanishini ham keltirib o'tgan edik. O'zbek tilining izohli lug'atida o'xshash so'zi o'xshamoqning 1 ma'nosi sifatida ko'rsatilib, izohida bir xillikka (o'xshashlikka) ega bo'lmoq tarzida berilmoqda. Bundan ma'lum bo'ladiki, bir xil deyilganda hech qanday farq yo'q bo'lishi shart bo'ladi. O'zbek tilining izohli lug'atida "AYNAN [a. – xuddi o'zi] rvsh. kt. 1 Qanday bo'lsa, shunday, hech qanday o'zgarishsiz. Aynan tarjima. Elmurod javob berish uchun ko'p o'ylab turmadi. Ilgari bo'lgan voqeani bugunga aynan ko'chirib aytib qo'ya qoldi. P. Tursun, O'qituvchi. 2 yukl. Xuddi." tarzida berilgan, o'xshash va aynan so'zlaridagi izohlar mazmunan farqsiz. Bu masalaga keyinroq yanada batafsil to'xtalib o'tamiz.

Olimlarning falsafa haqidagi qarashlariga ko'ra bir fan voqelikdagi muayyan bir masalani tadqiq etgani holda falsafa ulardagi qonuniyatlarning umumiylikini o'zida mujassamlashtiradi. Falsafa olimning dunyoqarashini, borliqni ko'rish va tushuncha olish, uqish va uni talqin qilish ko'nikmasini shakllantiradi: aniq falsafiy tushunchaga ega bo'lmagan kishi hodisalarni shunchaki ko'radi, lekin ularning zamiridagi mohiyatini anglay olmaydi. Ushbu xulosalarga ko'ra, o'xshashlik tushunchasini dastlab falsafa fani misolida ko'rib chiqishdan boshlashni lozim topdik. Falsafa faniga ko'ra, "Aqliy bilish, bu – dalillarga asoslanib, narsa va hodisalar, ularning xususiyatlari o'rtasidagi o'xshashlikni aniqlaydi." Ya'ni o'xshashlik uchun yetarli asoslar bo'lishi bu aqliy bilishning omili hisoblanadi. Bundan tashqari ingliz faylasufi Sepenser Gerbert (1820–1903)ning «Sotsiologiya asoslari» asarining o'zagini biologik va ijtimoiy organizmlar o'rtasida o'xshashlik mavjud, degan qoida tashkil etadi. Shuningdek, tipologiyada ham o'rganilayotgan ob'ektlarni o'xshash tomonlarini aniqlash va farqli tomonlarini o'rganish, o'xshashlikning ishonchli usullarini izlash, nazariy mukammal shaklda tadqiqot tizimining tuzilishini tasvirlash, hozircha noaniq ob'ektlar mavjudligini bashorat qilish, uning qonuniyatlarini aniqlashga intiladi. Olmon faylasuflaridan Shelling (1775–1854) naturfalsafa va transtsendental idealizm orqali ruh va tabiatning o'xshashligi, ularning o'zaro mos kelishi g'oyasiga o'tadiki, bu uning falsafiy ta'limotining asosiy mag'zi hisoblanadi. Biroq umrining so'nggi yillarida o'xshashlik falsafasidan voz kechadi va

mifologiya hamda din tarafiga o'tib, o'zining diniy-falsafiy ta'limotini yaratadi. Shelling o'zining "ijobiy falsafasi"ni «mifologiya falsafasi» va «muqaddas kitob falsafasi»ga ajratib, ular yordamida e'tiqod va bilimni birlashtirishga harakat qiladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, birgina falsafaning o'zida o'xshashlik turli mohiyatni anglatib kelmoqda. O'xshashlik tushunchasi fizika fanida ham o'ziga xos ma'no-mazmun ifodalaydi.

O'xshashlik nazariyasi – fizik hodisalarning o'xshash sharoitlarini miqdoriy jihatdan tadqiq qilish usullarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan ta'limot. Fizik o'xshashlik turdosh hodisalar orasidagi muvofiqlikni, ya'ni bir fizik hodisaning barcha miqdoriy ko'rsatkichlari mutanosib ravishda o'zgartirilishi natijasida hosil bo'lishini bildiradi. O'xshashlik nazariyasining asosiy vazifasi turli fizik hodisalarning o'xshashlik mezonlarini aniqlash va shu mezonlar yordamida hodisalarning o'zini o'rganishdir. Fizik hodisalar, jarayonlar va sistemalar o'xshashligi bir tizim holatini ifodalovchi, o'zgaruvchi kattaliklarning vaqtning o'xshash paytlarida fazoning o'xshash nuqtalaridagi qiymatlari boshqa sistemaning xuddi shunday kattaliklariga mutanosib bo'lishiga asoslanadi. Kattaliklarning har biriga tegishli mutanosiblik (proportsionallik) koeffitsiyenti o'xshashlik koeffitsiyenti deyiladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, fizika fanining tadqiqot usullarida o'xshashlik eng muhim hodisalardan biri sifatida erishilishi lozim bo'lgan natijaga olib boruvchi zaruriy vositadir.

Forobiy mantiq ilmi haqida "Bizning maqsadimiz aqlni, xatoga yo'l qo'yish mumkin bo'lgan barcha hollarda, to'g'ri tafakkurga yetaklaydigan, uning yordamida har safar xulosa chiqarayotganda adashishga qarshi ehtiyot choralarini ko'rsatadigan san'atni – mantiq san'atini o'rganishdir. Uning asosiy qonun-qoidalarining aqlga bo'lgan munosabati grammatika san'ati qoidalarining tilga bo'lgan munosabatiga o'xshash; xuddi grammatika kishilarning tilini to'g'rilash ehtiyoji sababli yaratilgani, unga xizmat qilishi zarur bo'lgani singari, mantiq ham tafakkur jarayonini yaxshi amalga oshirish maqsadida xatoga yo'l qo'yish mumkin bo'lgan barcha hollarda aqlni to'g'rilab turadi". Mantiq ilmi ham tilshunoslik kabi barcha fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lgani holda tilni tadqiq etishda, uni mazmunini anglashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Mantiq fanining grammatika bilan bog'liqligi shundaki, mantiq tafakkurning umumiy qoidalarini tushuncha, hukm, ularning tarkibiy qismlari, o'zaro munosabatlarini o'rganadi. Grammatika esa, mantiq o'rganuvchi hodisalarning shakliy

ifodasini, tilning grammatik shakllarini tadqiq etadi . Shuningdek, tilshunoslikning antik davrdan toki bugungi kunga qadar mantiq fanidan ajrala olmasligini dunyo tilshunosligida o‘zlashib, singib ketgan ega va kesimni nomlovchi ing. subjekt, fr. sujet, nem. subjekt, isp. sujeto atamalarini mantiq fanidan olinganligini va Yevropaning bu atamalarni almashtirishi imkonsiz ekanligining ta’kidlanishidan ham bilish mumkinki, muayyan darajada tadqiqotlar uchun mantiq fanidan ham foydalanish o‘rinli bo‘ladi.

Mantiq fanida o‘zining alohida o‘rniga ega bo‘lgan ingliz olimi Dj.Mill fikricha, hukm hodisalar o‘rtasidagi munosabatlarning ifodasi. Shu fikrga asoslangan holda u hukmlarni 5 turga ajratadi:

- 1) mavjudlik hukmlari;
- 2) davomiylik, ketma-ketlik hukmlari;
- 3) o‘zaro mavjudlik hukmlari;
- 4) sababiy bog‘liqlik hukmlari;
- 5) o‘xshash munosabatlarni ifodalovchi hukmlar .

Tushuncha predmet va hodisalarning umumiy, muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli bo‘lgani holda belgilar deb, predmetlarni bir-biridan farq qiluvchi hamda ularning bir-biriga o‘xshashligini ifoda qiluvchi tomonlar, xususiyatlar nazarda tutiladi. Barcha predmetlar o‘zaro bir-biri bilan (bevosita yoki bilvosita) aloqada bo‘lganligi uchun ko‘plab belgilarga ega. Ular faqat bitta predmetga xos bo‘lgan belgilari va predmetlarning ma’lum bir guruhiga tegishli, umumiy belgilar borligi bilan izohlanadi. Masalan, har bir kishi faqat o‘zigagina xos bo‘lgan ruhiy kechinmalar va shu kabi individual belgilarga ega. Shuning bilan birga kishilarning ma’lum bir guruhiga (mehnat jamoasi, millat va shu kabilarga tegishli) yoki barcha kishilarga (mehnat qilish, fikr yuritish qobiliyatlari, ijtimoiy munosabatlarda ishtirok qilishi va shu kabilar) xos bo‘lgan umumiy belgilarga ega .

Borliq va undagi narsa-hodisalarni taqqoslash yordamida predmetlar o‘zaro solishtirilib, ularning o‘xshash, umumiy tomonlari va bir-biridan farq qiluvchi individual belgilari aniqlanadi. Mantiq fanida o‘xshashlik metodi mavjud, unga ko‘ra, hodisaning sababi haqidagi xulosaga kelish uchun shu hodisaning bir qancha natijalarini solishtirish, ularning o‘xshash tomonini aniqlash orqali yakuniy xulosa chiqariladi. Demak, o‘xshashlik metodining mohiyatiga ko‘ra, hodisaning kuzatilayotgan bitta holatigina umumiy bo‘lsa, ana shu holat bu hodisaning sababi. “Mnemonika – o‘xshashlik va bog‘liqlik asosida xotirani kengaytirishi va kerakli ma’lumotlarni eslab qolish uchun ishlab chiqilgan maxsus

uslublar to'plamidir." Bunda yangi noma'lum bo'lgan tushunchalar inson ongida allaqachonlar ma'lum bo'lgan ma'lumotlar bilan bog'lanadi va natijada yangi ma'lumotni eslab qolish osonlashadi. Masalan, muhabbat haqida asar o'qigan odam uni, shu mavzuda o'zi avvaldan bilgan asari ("O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Romeo va Jul'etta")ga bog'lab eslab qoladi.

Shuni aytish kerakki, o'xshashlik metodidan foydalanib, hosil qilingan xulosaning asoslanganlik darajasi ko'p omillarga, xususan, kuzatish va eksperiment o'tkazilayotgan sharoitlarning xilma-xilligi, ko'rib chiqilayotgan holatlarning miqdori va shu kabilarga bog'liq bo'ladi. Agar o'xshash holat kuzatilayotgan hollar miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, u holat turli xil sharoitlarda har xil boshqa holatlar bilan turlicha komplekslarda olinsa, uning vujudga kelayotgan hodisaning sababi bo'lishi ehtimoli ortadi. Lekin shunga qaramasdan bu metod vositasida olingan xulosaning chinligi ehtimoliy xarakterga egaligicha qolaverishi ta'kidlanadi. O'xshashlik metodini qo'llash natijasida olingan xulosa hodisadan avval keladigan barcha holatlar aniqlanganda, ya'ni sabab bo'lishi ehtimol qilingan holatlar yopiq tizimni tashkil etganda, shuningdek, bu holatlar o'zaro bir-biriga ta'sir o'tkazmaydi, deb olib qaralgandagina chin bo'lishi va argumentlash jarayonida ishonchli asos sifatida qo'llanilishi mumkin. Masalan, ikki yoki undan ortiq matnlardagi o'xshashlik tahlil qilinganda ular o'rtasidagi o'xshash holatlar soni qanchalik ko'p bo'lsa, ularni o'xshash deyish ehtimoli ortib, hatto hukm darajasiga chiqishi ham mumkin. Shunga qaramasdan, o'xshashlik metodida hodisaning sababini u haqda turli gipotezalar ko'rish orqali aniqlash muhim ahamiyatga ega. Undan ilmiy bilishda juda ham samarali foydalanish mumkin. Eng muhim jihati shundaki, analogiyada xulosa chiqarish borliqning cheksiz ko'rinishlari hamda unda mavjud bo'lgan turli xil sistemalarning xususiyatlari, munosabatlari, tarkiblaridagi o'xshashliklarga asoslanadi. Masalan, sayyoralar, davlatlar, ijtimoiy tuzumlar mohiyatida muayyan o'xshashlik mavjud. O'xshashlik shunchalik muhim tushunchaki, buni barcha fanlarda kuzatish mumkin. Masalan, matematikada ham O'xshash haddlar atama sifatida bir-birlaridan faqat koeffitsientlari bilan farq qiluvchi hadlarga nisbatan qo'llaniladi. Xuddi shuningdek, matematikaning yondosh sohasi bo'lgan geometriyada ham o'xshashlik – o'lchamlari turlicha bo'lgan geometrik figuralarning shakllari bir xil bo'lishi. O'xshashlik o'lchamlarining konstruktiv masalalarini yechishda, binolar, inshootlarning modellari va chizmalarini

tayyorlashda (o'xshash nusxalar olishda) keng qo'llaniladi . Bu tushuncha fizika fanida ham alohida ahamiyatga ega, O'xshashlik nazariyasi — fizik hodisalarning o'xshash sharoitlarini miqdoriy jihatdan tadqiq qilish usullarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan ta'limot. Fizik o'xshashlik turdosh hodisalar orasidagi muvofiqlikni, ya'ni bir fizik hodisaning barcha miqdoriy ko'rsatkichlari mutanosib ravishda o'zgartirilishi natijasida hosil bo'lishini bildiradi. O'xshashlikning asosiy vazifasi turli fizik hodisalarning o'xshashlik mezonlarini aniqlash va shu mezonlar yordamida hodisalarning o'zini o'rganish. Kattaliklarning har biriga tegishli mutanosiblik (proportsionallik) koeffitsienti o'xshashlik koeffitsienti deyiladi. Fizik o'xshashlik hodisasi geometriyada biz yaqqol va sodda ravishda ko'radigan geometrik o'xshashlikning umumlashmasidir. Geometrik o'xshashlikda o'xshash figuralar yoki jismlarning o'xshash geometrik elementlari orasida mutanosiblik (o'xshashlik) bo'ladi. Maydonning fizik o'xshashligida ikki sistemaning mos fizik parametrlari fazo va vaqtda o'xshash bo'lishi bilan xarakterlanadi. Qaralayotgan hodisalarni aniqlovchi parametrlardan tuzilgan o'lchovsiz kombinatsiyalarni o'xshashlik mezonlari deb atash qabul qilingan. O'xshashlik mezonlaridan tuzilgan ixtiyoriy kombinatsiya ham ko'rilayotgan fizik hodisalar uchun o'xshashlik mezoni bo'ladi. Ko'rilayotgan fizik hodisalar yoki sistemalarda barcha mezonlar emas, ulardan ba'zilar teng bo'lgan hollarda o'xshashlik qisman o'xshashlik deb qaraladi va aynan mana shunday o'xshashlik amalda eng ko'p sodir bo'ladi. Bunday tengligi saqlanmaydigan mezonlarning fizik jarayonlarga ko'rsatadigan ta'siri sezilarli bo'lmasligi yoki ikkinchi darajali bo'lishi shart. O'xshashlik mezoniga kiruvchi o'lchamli fizik parametrlar o'xshash sistemalar uchun bir-biridan katta farq qiluvchi qiymatlar olishi mumkin, faqat o'lchamsiz o'xshashlik mezonlarigina birday bo'lishi kerak. O'xshash sistemalarning ana shu xossasi modellash usuliga asos qilib olingan . Bu o'rinda biz uchun muhim jihatlaridan biri — o'xshashlikning qisman deb hukm qilinish o'rnini ham keltirilganligidir. Adabiyotshunoslikda o'xshashlik bilan bog'liq ko'plab jihatlar borki, yuqorida sanab o'tilgan falsafa, mantiq, fizika kabi fanlardagi kabi analogiya atamasi adabiyotshunoslikda ham tilshunoslikda ham mavjud. Bu atama ma'no-mohiyatiga ko'ra barcha fanlar kesimida bir-biriga o'xshashlikka ega. Adabiyotshunoslikda analogiya (yun. analogiya — o'xshashlik, mushtaraklik) — adabiy asardagi obrazlar, syujet motivlari, ayrim epizodlar, xarakterlar va sh.k.larda kuzatiluvchi mushtaraklik,

o'xshashliklar. Aynanliklar bitta asar doirasida ham, shu asar bilan boshqa (turli davr yoki turli milliy adabiyotlarga mansub) asarlar orasida ham kuzatilishi mumkin. Macalan, "O'tkan kunlar" romanidagi Otabek va usta Olim, "Kecha va kunduz"dagi Zebi va Maryam taqdirlari orasidagi analogiyalar yozuvchiga qiyos vositasida muayyan fikrlarni ifodalash, muammoni anglash va anglatishda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, asarda yozuvchi tomonidan ongli ravishda yoki boshqa sabablar bilan voqe bo'luvchi analogiya ham kuzatilishi mumkin. Macalan, "O'tkan kunlar" bilan xalq dostonlari syujet motivlarida shunday holat kuzatiladiki, ular g'arb adabiyotiga xos roman janrini milliy zaminga o'tkazilishi, milliy adabiy an'analar ta'siri o'laroq yuzaga kelgan. "Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani bilan A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon", L.Tolstoyning "Tirilish" va "Anna Karenina" romanlari orasida ham qator analogiya mavjud, birlari ijodiy ta'sirlanish, boshqalari ijodiy musobaqa istagi natijasida yuzaga kelgan."

Adabiyotshunoslikda bu hodisani milliy adabiyot tarixining turli bosqichlari orasida ham boshqa milliy adabiyotlar orasida ham kuzatish mumkin va bu yondashuvga ko'ra tadqiqotlar amalga oshiriladi, jumladan adabiyotshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan tarixiy-qiyosiy tadqiqotlar ham aynan analogiya masalasi bilan yuzaga keladi. Ya'ni tarixiy-qiyosiy adabiyotshunoslikka ko'ra, turli davr yoki turli milliy adabiyotlardagi analogiyalarni aniqlash, ularning omillarini o'rganish asosida keng ko'lamli nazariy umumlashmalar chiqarish, adabiyot taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini aniqlashni maqsad qiladi. Adabiyotshunoslikda vasf atamasi, u (tavsiflash, tasvirlash, sifatlash) – biror narsa, hodisa yoki shaxsni maqtash, madh etish, chiroyli o'xshatishlar, majoziy iboralar bilan ta'rifu tavsif berish, ma'nosida keladi. Bu alohida janr emas, balki tavsifiy xarakterdagi qator janrlar (qasida, madhiya, faxriya va b.)ga xos ifoda yo'sini, usuli hisoblanadi. Bu usulning yuzaga kelishining bosh omili o'xshatishdir. Xuddi shunday muhim atamalardan biri sifatida istiorani ham keltirish mumkin. "Istiora – (ar. vaqtincha omonatga, oriyatga olmoq) mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, bir so'z shaklini vaqtincha "omonatga olib", boshqa, ya'ni ko'chma ma'noda ishlatish." Bunda ham so'zni o'z ma'nosidan boshqa ma'noda ishlatish o'xshashlik asosida amalga oshadi. Macalan, Navoiyning: "Ul oy avsofini ahli zamondin Eshitur erdi bal yaxshi-yamondin", baytidagi "oy" so'zi "erning tabiiy yo'ldoshi" ma'nosidan "omonatga olinib", "yor" ma'nosida ishlatilgan

va o'ziga xos obrazli ifoda yuzaga kelgan. Bir qarashda oy so'zini ma'shuqa, yor ma'nolarida ishlatish notabiiydek tuyulsa-da, nur taratib turgan oy bilan yorning nurli jamoli o'rtasidagi o'xshashlik mana shu notabiiylikni tabiiy, go'zal ifodaga aylantiradi . Bunday atamalar sirasiga istihroj ham kirib, u (ar. – keltirib chiqarmoq) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, baytda qo'llanayotgan tashbehlarda arab harflarini mushabbihun bih vazifasida keltirib, ularning yig'indisidan biror so'z chiqarishdir . Ya'ni istihroj san'atini yuzaga keltirishda arab harflarining turli shakllari bilan biror narsa (ko'proq yorning biror a'zosi) o'rtasidagi o'xshashlik asos bo'ladi . Bu kabi o'xshashlik bilan bog'liq ko'plab adabiy san'atlar borki, tadqiqot ishimizda ularning barchasini keltirish imkonsiz va zaruriyat ham yo'qligi bois tasavvur va takror uchun shularning o'zi kifoya.

Yuqorida analogiya atamasini turli fanlardagi o'rnini ko'rib chiqdik. Endi esa tilshunoslikda ushbu atamaning mazmun-mohiyatini ochishga harakat qilamiz. Tilshunoslikda Analogiya (yun. analogia) – muvofiqlik, moslik, o'xshashlik). Til unsurlarining (so'z yasaliş, shakl yasaliş va boshqa modellarining) o'zaro qandaydir munosabat ta'sirida o'xshashlik kasb etishi, mahsuldor bo'lgan hodisaning boshqasiga yoyilishi: Analogiya yo'li bilan o'zgarish:

Analogiya asosida yasaliş. Masalan, qara ob'ektsiz fe'lining ko'r ob'ekтли fe'liga sinonim sifatida qo'llanishi (cho'chimasligini qara), shuningdek, ko'r ko'makchi fe'liga qara, boq fe'llarining sinonim sifatida qo'llanishi (o'qib ko'r, o'qib qara, o'qib boq) ham analogiya natijasidir: ...buning natijasida o'quv yurtini tanlashda kelishmovchiliklar va yanglishmovchiliklar kelib chiqadi Bu misolda yanglishmovchilik so'zi noto'g'ri qo'llangan. Uning qo'llanishi anglashilmovchilik so'zining ta'siridadir . Borliqda narsa-hodisalar hajm va miqdor jihatidan juda ko'p ekanligi sababli ularning har birini alohida eslab qolish inson uchun juda katta qiyinchilik tug'dirganligi bois ularni bir-birga o'xshash jihatlari bilan eslab qolish qulay yo'l sifatida tanlangan. Til yaxlit sistema sifatida o'zining ichki qurilishida ham til hodisalarining o'zaro eng yaqin va o'xshash bo'lganlarini birlashtirish orqali tartibga solingan. Buni quyida keltiriladigan tushuncha va atamalar izohidan ham bilib olishimiz mumkin. Masalan, “xususiylkdan umumiylikka” qoidasiga ko'ra, til hodisasini dastlab umumiy hodisalar sharhidan boshlash o'rinli bo'ladi. Tilning eng kichik birligi bo'lgan tovushlar masalasida ham o'xshashlik bilan bog'liq ko'plab o'rinlar bor. Masalan, assimilyatsiyada nutq tovushi qator kelganda ba'zan bir-biriga

ta'sir qilib, biri ikkinchisini o'ziga moslashtiradi. Assimilyatsiya ikki xil bo'ladi: progressiv va regressiv assimilyatsiya. Agar oldingi tovush keyingi tovushni o'ziga o'xshatsa, moslashtirsa, progressiv assimilyatsiya yuz beradi: ket-di – ketti, ayt-di – aytti, ot-dan – ottan, yurak-ga – yurakka. Keyingi tovush oldingi tovushga ta'sir qilib, uni o'ziga o'xshatsa, moslashtirsa, regressiv assimilyatsiya yuz beradi: yigit-cha – yigichcha, bir-ta – bitta, uch-so'm – usso'm . Bu til hodisasiga ko'ra qator kelgan ikki tovushning biri ikkinchisiga moslashishi, aniqrog'i aynan o'xshash bo'lishi birlashtirish asosida yuzaga kelganligini ko'rishimiz mumkin.

Tovushning so'zdagi o'rni, urg'uli yoki urg'usiz bo'g'inda kelishi bilan bog'liq holda yuz beradigan o'zgarishlar ham pozitsion o'zgarishlar nomi ostida birlashtirilgan, “1) proteza - so'z boshida bitta unlining orttirilishi (shkaf – ishkaft, stol – ustol, stul – ustul), 2) epenteza - so'z boshida, o'rtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda, unli tovushning orttirilishi (fikt – fikir, hukm – hukum), 3) epiteza - so'z oxirida bir o'rinda kelgan ikki undoshdan so'ng a tovushining qo'shilish hodisasi (disk – diska, bank – banka), 4) prokopa - so'z boshida unli yoki undosh tovushning tushib qolishi (yigna – igna, yog'och – og'och), 5) sinkopa hodisasiga binoan so'z o'rtasidagi va oxiridagi keng unlilar tor unlilar kabi talaffuz qilinadi va ayrim holatlarda tushib qolishi (traktor – traktir, direktor – direktir), 6) apakopa - so'z o'zagidagi oxirgi unli yoki undoshning tushishi (do'st – do's, xursand – xursan), 7) sinerezis hodisasiga ko'ra so'z o'rtasida bir joyda kelgan ikki unlining biri kuchsizlanadi va nutqda tushib qoladi, ikkinchi unli fonema esa cho'ziq talaffuz qilinishi (maorif – mo:rif, saodat – so:dat), 8) reduktsiya - so'zning birinchi bo'g'inida biror unlining (odatda tor unlining) kuchsizlanib talaffuz qilinishi: a) (yoza oladi – yozoladi, bora oladi – boroladi; b) unli bilan boshlanuvchi ikkinchi so'zning bosh unlisi tushib qoladi: borar ekan – borarkan, borar yemish – borarmish, yozgan ekan – yozgankan kabi; d) Abdusalom so'zining Absalom, Abdujabbor so'zining Abjabbor, olib kel so'zining opke tarzida talaffuz qilinishi natijasida bir unli va bir undoshning tushib qolishi hodisasi ham eliziyaning yuqori, murakkablashgan shakli hisoblanadi.” Bunday hollarda eliziyaning murakkablashishi natijasida so'zlarning qisqargan shakllari hosil bo'ladi . Birgina tovush o'zgarishi bilan bog'liq sakkizta hodisani birlashtirilishi uni tez, oson eslab qolish va o'rganishni ta'minlaydi. Agarda bu hodisalarning har birini xususiy holda o'xshashlikka ko'ra emas, farqlilikka ko'ra bir-biri bilan bog'lamay

tadqiq etilsa, o'zlashtirish bilan bog'liq jiddiy turli muammolar yuzaga kelar edi. Kiritma gap atamasi ham, xuddi kiritma so'zga o'xshash vazifani bajaruvchi gap. Masalan, Zokir qo'ng'iroq chaldi (u katta-kichik hamma majlislarni qo'ng'iroq bilan olib boradi) va qovog'ini solib dedi (P. Qodirov). Garchand bu matn badiiy asarga tegishli bo'lsa-da fikrni ifoda etishda so'z va gap qo'llashning o'rni va mavqeyiga ko'ra tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etilishi o'rinli bo'ladi. Aslida kiritma gap tushunchasining mohiyati uni kiritma so'zga o'xshatish orqali oydinlashadi. Bunga ko'ra, kiritma so'z gap bo'laklari bilan shakliy-grammatik bog'lanmagan, asosiy fikrga qo'shimcha, yo'l-yo'lakay qo'shimcha fakt bayon qiluvchi, to'ldirish, aniqlik kiritish va sh. k. maqsadda qo'llanuvchi so'z. Kiritma so'z, kirish so'zdan farqli holda, modal ma'no ifodalamaydi, gap boshida kelmaydi. Xuddi shuningdek, metafora (yun. *metaphora* – ko'chirish) ham bir predmetning nomini boshqa predmetga biror tomondan o'xshashligini e'tiborga olib ko'chirish. Metafora so'zning yangi ma'nolari hosil bo'lishida qatnashadigan omillardan biri sifatida, qanot, kosa, arafa so'zlarining samolyot qanoti, tarvuzning kosasi, bayram arafasi birikmalaridagi ma'nosi metafora asosida hosil bo'lgan. Bu qoidaning mantiqiy davomi sifatida funktsional ko'chirishni ham keltirish mumkin, bunda bir predmet nomini boshqa predmetga bajaradigan vazifasidagi o'xshashlik asosida ko'chirish asos bo'ladi. Bu kabi hodisalar qatorida bir predmetning belgi, harakat jihatdan boshqa predmetga o'xshash ekanini bildirishda qo'llaniladigan -dek, -day (toshdek, suvday) qo'shimchalarni ham o'xshatish shakli deb qabul qilinganligini keltirib o'tish mumkin.

Ishimizning keyingi o'rinlarida sodda darak gaplardagi mazmuniy o'xshashlikning darajalanishini aniqlash va uning lingvistik modellarini ishlab chiqish muhim vazifa va maqsad qilib olinganligi sababli o'xshashlik bilan bog'liq ko'plab holat va o'rinlarni keltirishimizga to'g'ri keladi. Til birliklaridan bo'lgan qo'shma gap ham tuzilishi jihatidan sodda gapga o'xshaydi, biroq unda sodda gapga o'xshash ikki va undan ortiq predikativ birlikning ohang va mazmun jihatidan bir butunlik hosil qilishi bilan alohida farq qiladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, sodda va qo'shma gapda ega-kesimlik, ikkinchi darajali bo'laklar ishtiroki va tugal fikr ifodalaganligi sababli ularni o'xshash deb olamiz, aynan bo'lishi uchun esa mavjud barcha jihatlarga ko'ra aynan mos va bir xil bo'lishi kerak. Sodda gaplar ega va kesimdan, ega va kesim tarkibidan iborat bo'lishi mumkin yoki bu elementlardan birining

bo'lmashligi mumkin. "Shunga qarab, sodda gaplar ikkiga bo'linadi: ikki tarkibli gaplar va bir tarkibli gaplar." Yuqorida ta'kidlanganidek, o'zbek tili ham o'zining tabiiy xususiyatlari va taraqqiy etishi uchun yuzaga kelgan keng shart-sharoitlardan natijasida nazariy qoidalarida turli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Masalan, O'zbek tili sintaktik qurilishida ot-kesimlar ham, fe'l-kesimlardagi kabi egali yoki egasiz qo'llanishi mumkin. Rus tilshunoslarining e'tiroficha, otlarga qo'shiladigan predikativ shaxs-son qo'shimchalari yo'qligi tufayli bu tilda otning o'zi mustaqil holda ma'lum bir morfologik ko'rsatkich yordami bilan kesimga aylana olmaydi. U faqat ega bilan kelib, kesim vazifasini bajarishi mumkin». Masalan, Tadbirkorman. – Ya biznesmen. Demak, o'zbek tilidagi gaplarning lisoniy sathdagi eng kichik qurilish qolipi asosan [WPm] (so'z+kesimlik ko'rsatkichi)shaklida bo'lsa, Hind-Evropa tillarida gapning minimal qolipi asosan [E-WP] (ega+so'z+kesimlik ko'rsatkichi) ko'rinishida. Bu esa ushbu tillar orasidagi asosiy tipologik va milliy farqlardan hisoblanadi. O'zbek tilida sodda yig'iq gap uch xil ko'rinishda namoyon bo'ladi: 1) egasi ifodalanmagan sodda yig'iq gap. Bu gapning qolipi [WPm] ko'rinishida berildi. 2) egasi ifodalanishi lozim bo'lgan sodda yig'iq gap. Bu gap [E-WP] yoki [E-WP] qolipi hosilasi: Men – shoir. Ukam – talaba. 3) So'z-gapdan iborat yig'iq gap ([WP]): Xo'p. Rahmat. Balli kabi. [WPm] qolipli gaplar boshqa har qanday, [E-WP] qolipli gaplar ikkinchi darajali bo'laklar bilan kengaysa, yoyiq gap hisoblanadi. So'z-gap tipidagi yig'iq gap kengaymaydi .

Umuman olganda birgina sodda gap tushunchasi o'zida tuzilishiga ko'ra, ifoda maqsadiga ko'ra, tarkibidagi bo'laklarning ishtirok etishini talab etish, etmasligi kabi masalalarni jamlagan, bu o'rinda aynan o'xshashlik emas, balki fikrni ifoda eta olish imkoniyatiga ko'ra ekanligi inobatga olingan. Masalan, Men keldim. Keldim. Ushbu gaplar shakliy jihatdan farq qilsa-da mazmun jihatidan har ikkisida ham birinchi shaxsga tegishli harakat amalga oshirilganligi ma'lum bo'lib turibdi. Shuning uchun bu gaplar shaklan o'xshash va mazmunan aynan o'xshash hisoblanadi.

Yuqorida o'xshashlik bilan bog'liq izoh va ta'riflardan kelib chiqib o'xshashlikni bevosita sifat bilan bog'liqligini inobatga olib, quyidagi jihatlarga ko'ra bo'lishini belgilab oldik:

1. Shakliy o'xshashlik: bunda ham o'z navbatida bir qismi o'xshash, bir necha qism o'xshash va barcha qismlari o'xshash bo'ladi;

2. Mazmuniy o'xshashlik: bu ham o'z navbatida aynan o'xshash va o'xshash (o'xshashligiga ta'sir etmaydigan darajada farq mavjud).

Xulosa qilib aytish mumkinki, sinonim deb qaralayotgan so'zning aynan bir xil deyishga monelik qiladigan farqlar bor mavjud, biroq bu farqlar bir qarashda sezilmaydi, yoki sezilsa-da muhimligi pastligi bilan xarakterlanadi. Bu o'rinda ham o'xshashlik shaklga nisbatan emas, balki mazmunga nisbatan e'tiborga olinayotganligi bilan xarakterli.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Болалар учун универсал энциклопедия. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. – Б. 45.

2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. II жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2020. – Б. 477.

3. Сафаров.Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 19.

4. Абдуллаева М., Алиқулов Х., Жалолов А., Назаров Қ.Қисқача фалсафа луғати. – Тошкент: “Шарқ” НМАК, 2004. – Б. 14.

5. Абдуллаева М., Алиқулов Х., Жалолов А., Назаров Қ., Қисқача фалсафа луғати. – Тошкент: “Шарқ” НМАК. 2004. – Б. 14.

6. Назаров Қ. Фалсафа .– Тошкент: “Шарқ” НМАК. 2000. – Б. 173.

7. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. 6 жилдли 1 жилд. – Тошкент: Ҳилол, 2012. – Б. 462.

8. Расулов Э., Бегимқулов У. Квант физикаси. II қисм. – Тошкент: “Шарқ” НМАК. 2009. – Б. 279.

9. Юридик энциклопедия. У. Таджихановнинг умумий таҳририда. – Тошкент: “Шарқ” НМАК. 2001. – Б. 66.

10. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. I боб. жиноят кодексининг вазифалари ва принциплари. (43-модданинг «д» банди Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 мартдаги ЎРҚ-421-сонли Қонунига асосан чиқарилган — ЎР ҚХТ, 2017 й., 13-сон, 194-модда)

11. Жабборов Н. Адабий манбаларда матн таҳрири масаласи. Адабий манба: ўрганишнинг замонавий тамойиллари ва нашр муаммолари. // Мақолалар тўплами. – Қарши: Насаф, 2013. – Б. 7.

12. Sayfullayeva R., Mengliyev B., va boshq. Кўрсатилган манба. – Б. 152.

13. Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Филол.фан. докт. ... дисс. – Тошкент. 1997.

14. Арестотель. Поэтика. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б.
15. Неъматов Ҳ., Менглиев Б., Ботирова А. Тилшуносликнинг фалсафий масалалари. (Монография) – Германия: Globe, 2020. – Б. 4.
16. Аминов М., Ахмедов Б., Каримов Н., Кароматов Х., Орипов А., Шагулямов Ш., ва б. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12 жилдди. XII жилд. Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2000-2006. – Б. 216.
17. Шарипова М., Файзихўжаева Д. Мантиқ. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2004. – Б. 175.
18. Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси, 2004. – Б. 35.
19. Ҳожиёв.А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 14.
20. Ғуломов А. Содда гап. – Тошкент: Ўзбекистон, 1955. – Б. 54.

II BOB. NUTQ HUDUDIIY VA YOSHGA XOSLIGINI ANIQLASH BO‘YICHA LINGVISTIK EKSPERTIZA

2.1. Nutq hududiy xosligini aniqlash bo‘yicha lingvistik ekspertiza. Tilshunoslikda noadabiy leksik unsur tushunchasi.*⁴⁶

O‘zbek tili ko‘p shevalikka asoslangan va me‘yor sifatida belgilangan har bir so‘z ham o‘z ekvivalentiga ega. Nutqiy faoliyatni ixcham, ravon, tez va tushunarliroq ifodalash uchun, albatta, bu variantlardan foydalaniladi. Shunda so‘zlovchi o‘zi bilmagan holda nutqda adabiy me‘yordan chekinish holatlariga duch keladi. Lisoniy birliklarning bunday ko‘rinishi tilshunoslikda noadabiy unsur (leksik, grammatik, sintaktik) lar nomi bilan yuritiladi. Jahon tilshunosligida Y.V.Fomenko, L.P.Demidenko, L.I.Skvotsov, S.N.Zeitlin, F.P.Sergeyev, V.A.Grigorev noadabiy unsurlar haqida tadqiqot ishlari olib borganlar⁴⁷. Ular grammatik qoidalarning buzilishini “substandart” deb atashdi⁴⁸. V.P.Korovushkinning fikriga ko‘ra, “substandart” atamasi XX asrning 30-yillarining o‘rtalarida ingliz tilida mustahkamlangan va “adabiy bo‘lmagan til” sifatida qaralgan⁴⁹. O‘zbek tilshunosligida gazeta matnlarida leksik me‘yorning buzilishi haqida A.Abdusaidov⁵⁰, talaba yoshlar nutqida noadabiy unsurlarning voqelanishi haqida N.Azizova⁵¹, noadabiy leksik unsurlardan shevalar va uning adabiy me‘yorga mosligi yuzasidan Sh.Shoabdurahmonov va M.Mirzayev, gazeta tilida noadabiy leksik unsurlar maslasida G‘.Karimov, I.Rasulov, N.Qodirova kabi

⁴⁶ Dildora To‘rayeva. ToshDO‘TAU katta o‘qituvchisi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

⁴⁷ Фоменко Ю. В. О типологии речевых ошибок // Рус. яз. в школе.— 1987.— № 2.— С. 50—56.;

Ю. В. Фоменко ТИПЫ РЕЧЕВЫХ ОШИБОК Учебное пособие НОВОСИБИРСК 1994.;

Цейтлин С. Н. Речевые ошибки и их предупреждение: Пособие для учителей.— М., 1982.— 143 с.;

Скворецкая Е. В. Культура речи: (Упражнения и рекомендации).— Новосибирск, 1991.- 88 с.;

Сергеев Ф. П. Речевые ошибки и их предупреждение: пособие для учителя.- Киев, 1988.- 123 с.; Скворцов Л. И. Правильно ли мы

говорим по-русски?: Справоч. пособие по произношению, ударению и словоупотреблению.- М., 1980.- 224

с.; Цейтлин С. Н. Лексические неправильности в детской речи // Рус. яз. в школе.— 1981.— № 4.— С. 51—

54.; Цейтлин С. Н. Нарушение синтаксических норм в речи школьников: (нормативное управление) // Рус.

яз. в школе.— 1980.— № 1.— С. 55—58.; Цейтлин С. Н. Речевые ошибки и их предупреждение.— М.,

1982.— 143 с.; Цейтлин С. Н. Типичные морфологические неправильности детской речи : (Материалы

исследований) // Речевые приемы и ошибки: типология, деривация и функционирование.— М., 1989.— С.

56—65.;

Демиденко Л. П. Речевые ошибки — Минск, 1986.— 336 с.;

⁴⁸ Александрович З. Д. Особенности перевода отклонений от литературной нормы (на примере романа З.

Смит «Белые Зубы»). Выпускная квалификационная работа. Челябинск 2017 год. — 14 с

⁴⁹ Коровушкин, В.П. Основы контрастивной социолектологии: дис. ... д-ра филол. наук [Текст] / В.П.

Коровушкин. - Пенза, 2005. - 187с.

⁵⁰ Abdusaidov A. O‘qituvchining nutq mahorati. Ўқув-услугий қўлланма. – Samarqand: SamDU nashri, 2013.

⁵¹ Azizova N. A. Talabalar nutqining lingvomadaniy va sotsiopragmatik xususiyati. Magistr diss.... Qarshi,

2013, -14 b.

olimlar tadqiqot ishlari olib bordilar⁵². Shuningdek, noadabiy leksik unsurlar masalasida jahon tilshunosligi lingvistik ekspertiza sohasida qator tadqiqotlar olib borilgan. Nutqda noadabiy stilistik unsurlar masalasida B.I.Viktorovna, insonning shaxsini obro'sizlantirish, omma oldida haqorat qilish masalalarining lingvistik tadqiqi yuzasidan K.I.Brinev, A.N.Baranov, M.B.Varashova; Facebook, MySpace, Twitter ijtimoiy tarmoqlaridagi yozishmalarning punktuatsiya, imlo va noadabiy unsurlarini lingvistik tahlil qilish yuzasidan K.C.Michell kabi olimlar tadqiq etganlar⁵³. Ushbu tadqiqotlarda inson omili asosida jamiyat uchun manfaatli bo'lgan ilmiy yangiliklar haqida mulohaza yuritiladi.

Noadabiy leksik unsurlar nasrda va nazmda yozuvchi, shoirlar nutqida ham aks etadi. Ba'zan ular tomonidan asarga kiritilgan noadabiy leksik unsur ko'pchilikning ichida ommalashib me'yor sifatida qabul qilinadi va bu o'zbek adabiy tilini boyishiga xizmat qiladi. Ba'zan bu nutqning soxtalashishiga olib keladi. Matndagi til birliklarining omma tomonidan qabul qilinmagan, hamma uchun tushunarli bo'lmagan leksik qatlamni me'yorlashmagan, noadabiy leksik unsur deya baholash mumkin. Noadabiy leksik unsurlar mahalliy dialekt tarkibida emas, balki ijtimoiy dialektga mansubdir. To'g'ri, unda ham mahalliy dialekt qisman aks etadi, ammo ma'lum ijtimoiy qatlamga xos bo'lganligi, muayyan guruhdagi shaxslarning umumxalq tilidagi so'zlarga o'z manfaatlaridan kelib chiqib o'zgacha ma'no kasb etishlari yoki muayyan sohaga oid kasb-hunar leksikasi, terminologiyasidan faqat shu soha kishilarining o'zlarigina foydalanishlari asosida vujudga keladi.

Ma'lumki, nutqda noadabiy leksik unsurlarning uchrashi o'zbek milliy tili uchun xos. O'zbek milliy tili va o'zbek adabiy tili turli tushunchalardir. O'zbek milliy tili kengroq, ya'ni u nutq faoliyatining

⁵² Shoabdurahmonov Sh. O'zbek shevalarida leksik moslik va ularning adabiy tilga munosabati. "O'zbek shevalari leksikasi" to'plam, Toshkent. 1966. -B.5.; Mirzaev M. O'zbek tilining Buxoro gruppasi shevalari. Toshkent., 1969, 32-bet; Мирзаев М. Советско-интернациональные слова в узбекской периодической прессе (1945-1950). Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1951.; Расулов И. Развитие лексики узбекского языка в период Великой Отечественной войны. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1951.; Каримов Г. Некоторые вопросы развития узбекского литературного языка 1920-1930 гг. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1972.; Абдураимова Ш.К. Сўз ўзлаштириш назарияси ва ўзлаштирмаларнинг вақтлий матбуот тилида ўзгара бориши. Филол. Фан. Номз. ... дис. автореф. –Тошкент, 1995.

⁵³ Викторовна Б.И. Многоуровневая системность стилистических норм и проблема типологизации речевых отклонений от них. автореф. ... дисс. на соискание ученой степени кандидата филологических наук Краснодар 2007.; Ворошилова, М. Б. Лингвистическая экспертиза [Текст]: задачник : учеб. пособие. В 2 ч. Ч 1. Экспертиза конфликтного текста / М. Б. Ворошилова; ФГБОУ ВО «Урал. гос. пед. ун-т». — Екатеринбург, 2016. — 220 с; Баранов А.Н. Авторизация текста: пример экспертизы // Цена слова: Из практики лингвистических экспертиз текстов СМИ в судебных процессах по защите чести, достоинства и деловой репутации. М., 2002. С. 356–363; Бринсв К.И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза. автореф. ... диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. Кемерово, – 2010.

barcha sohalarini qamrab oladi. Ammo o'zbek adabiy tili o'zining uslublari, dilaektlari, kasbiy jargonlar kabilarni o'z ichiga oladi. Milliy til turli xil ijtimoiy guruhlarining argo to'plamidir va uning qat'iy me'yorlashgan varianti davlat tuzumining adabiy tili sifatida qaraladi⁵⁴. O'zbek adabiy tili milliy tilning me'yorlashgan va kodifikatsiyalashgan shaklidir. To'g'ri ma'noda, adabiy til uchun milliy til nutq birliklarining ombori vazifasini bajaradi. Adabiy tilning me'yorlashishi, odatda, ma'lum bir davrda va ma'lum bir jamiyatda qabul qilingan eng barqaror, an'anaviy tarzda muqaddaslashtirilgan til vositalari va ulardan foydalanish qoidalari majmui sifatida tushuniladi⁵⁵. Milliy til adabiy til me'yorlarini belgilash uchun asosdir. Shu tarzda til me'yorlarini belgilash, uni nutq vaziyatiga ko'ra baholash, uni ilmiy adabiyotlarga kiritish, ommaviy axborot vositalarida aks ettirish kodifikatsiya jarayoni deyiladi. O'zbek adabiy tilining kodifikatsiya manbalari lug'atlar, umumiy grammatika va darsliklardir. Har bir ziyoli kishining vazifasi til nuqsonini aniqlash, uni to'g'ri baholash va takomilga yetkazib rivojlantirish, nutqda parazit so'zlar kirib kelishining oldini olish orqali ularning lisoniy immunitetini mustahkamlashdan iborat. Zotan, til madaniyatini yuqori darajada saqlash, adabiy tildan foydalanishda me'yorlarga rioya qilish davlat tili siyosatining eng muhim vazifasidir.

Bir qator tilshunoslar: E.G.Azimova, V.S.Vinogradova, V.G.Gaka, Y.N. Retskera, L.I. Skvortsova adabiy me'yordan chetga chiqishning ikki turini farqladilar:

1) adabiy bo'lmagan, ammo har qanday xususiy normaga mos keladigan birliklar (dialektlar, umumiy nutq, jargon, varvarizm, va boshqalar);

2) umuman olganda, har qanday me'yorlarga doimiy bo'ysunmaslik xususiyatiga ega nutq ko'rinishlari (okkasionalizm, bolalar nutqi, chet ellik shaxs nutqi).

S.I.Vlaxov va S.Florinning tadqiqotlariga ko'ra, birinchi turi adabiy me'yordan jamoaviy tarzda chetga chiqish deb ataladi, ya'ni ular jamiyatning turli qatlamlari doirasida ishlatilganligi uchun o'ziga xos xususiy belgilariga ega va ikkinchi tur nutqi odamlar bilan bog'liq emas, balki insonlarning umumiy faoliyati, hududiy mansubligiga ko'ra yuzaga keladi⁵⁶. Shu qatorda, individual normadan chetga chiqish

⁵⁴ Елистратов, В.С. Арго и культура [Текст] / В.С. Елистратов. - Москва, 1995. - 231 с.

⁵⁵<https://www.philol.msu.ru/~RKIEF/INDEX>.

⁵⁶ Влахов, С. Непереводимое в переводе [Текст] / С. Влахов, С. Флорин. - М., 2006. - 324с.

atamasi ishlatiladi⁵⁷. Oʻzga tilli shaxs tilning meʼyorlaridan, tabiiyki, bexabar boʻladi va shunga koʻra noadabiy unsurlardan bilib-bilmay foydalanaveradi. Shunga koʻra yosh bolalar nutqida ham bu jarayon kuzatilishi mumkin. Bu ham jamoaviy tarzda emas, balki har bir yosh bola oʻzining intellektual salohiyati, yoshi, jinsiga koʻra leksik boylikdan foydalanadi.

Nutqning sofligiga putur yetkazadigan lisoniy unsurlar, yaʼni noadabiy leksik qatlamlarga dialektizmlar, varvarizmlar (chetdan kirgan soʻzlarni nooʻrin, haddan tashqari koʻp ishlatish), vulgarizm, kanselyarizm va parazit soʻz kabilar kiradi.

Ushbu leksik qatlamning inson nutqida aks etishi ikki yoʻnalish boʻyicha tahlil qilinadi:

1. Dialektologiya faniga oid tahlil;
2. Kriminalistikaga oid tahlil.

Ammo ushbu ikki sohaning inson nutqiy hosilalariga nisbatan qarashlari boʻlakchadir. Jadval asosida qiyoslang:

Dialektologik tahlil	Lingvistik ekspertologik tahlil
1. Leksik qatlamni oʻrganish davomida adabiy til lugʻat boyligining oshishiga xizmat qiladi;	1. Leksik qatlamni oʻrganish pirovardida inson manfaati turadi;
2. Hududiy xoslangan birliklarni yigʻish va tasniflash;	2. Hududiy xoslangan soʻz va birliklarni oʻrganish;
3. Soʻzlarni leksik boylik sifatida oʻrganish;	3. Soʻz va birliklarning semantik bloklarini tashkil etish;
4. Soʻzning va birikmalarning etimologiyasini oʻrganish;	4. Soʻzlarning nutq vaziyatiga xosligini oʻrganish;
5. Adabiy tilga oid birliklarning ekvivalentlarini aniqlash;	5. Birliklarning psixik taʼsir kuchini aniqlash;
6. Soʻzlarning tarixiy taraqqiyotini qiyosan oʻrganish.	6. Soʻz va birliklarning jinsga koʻra mansubligini oʻrganish;
	7. Soʻz va birliklarning shaxs-yosh xususiyatlariga koʻra xosligini oʻrganish;

⁵⁷ Алексеева, И.С. Введение в переводоведение [Текст] / И.С. Алексеева. - СПб., 2004. - 196с.

	8. Ijtimoiy qatlamga xos soʻzlarni oʻrganish; 9. Soʻz va birliklarning qoʻllanish yoʻnalishini aniqlash: daʼvat, tahdid, tahqirlash, ekstremizm, obroʻsizlantirish, kamsitish kabi munosabatlar.
Umumiy jihati	
1. Har bir nutq birligining semantik –sintaktik xususiyatlarini oʻrganish; 2. Adabiy va noadabiy unsurlarni farqlash; 3. Birliklarning hududiy xosligini aniqlash; 4. Lingvistik usullar asosida soʻz va birliklarni oʻrganish va tasniflash.	

Har ikki soha ham insoniyat intellektual salohiyati, manfaati uchun xizmat qiladi. Ilm-fan taraqqiyoti uchun dialektologiya sohasining xizmatlari katta. Soʻzga leksik boylik sifatida qarab, soʻzlardagi turli fonetik xususiyatlarni atroflicha tahlil qiladi. Va bu orqali soʻzlar taraqqiyotining takomiliga katta hissa qoʻshadi. Dialektologiya sohasisning yana bir yutugʻi adabiy til lugʻat boyligining oshishiga xizmat qiladi. Lingvistik ekspertologiya sohasida esa, asosan, inson omili yetakchi oʻrinda turadi. Bu soha leksik-grammatik qatlamning semantik ifodasi, psixologik-pragmatik xususiyati, nutq vaziyatiga koʻra taʼsir yoʻnalishi kabilar bilan shugʻullanadi. Va shu asosda inson manfaatini himoya qilishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻyadi. Quyida bu ikki soha mushtarakligida qator tahlillar berilgan.

Shaxsiy yozishmalarda noadabiy leksik unsurlarni qoʻllanilishi

Nutq oʻzgaruvchan, individual xarakterga ega faoliyat turlaridan biridir. Har bir inson oʻzining imkoniyat darajasi, dunyoqarashi, ilmiy salohiyati, odob-axloqiga koʻra nutqiy faoliyatni amalga oshiradi. Dinamik hodisalarda aniqlik, qatʼiylilik boʻlmaganidek, har qanday saviyaga ega insonlar ham xoh yozma, xoh ogʻzaki boʻlsin nutqiy kamchiliklarga yoʻl qoʻyishadi. Zero bu jarayon faqat shaxsning intellektual salohiyati bilan belgilanmaydi, balki bu uning nutqiy vaziyati, pragmatik va psixik holati kabi jarayonlar bogʻliq boʻlishi mumkin.

Har qancha fan-texnika rivojlangani bilan baribir inson mandfaatlari yuksak o'rinda turadi. Sud-huquq tizimida yangi yo'nalish sifatida tilshunoslikdan amaliy foydalanish jinoyatchi va jinoyat izini topishga ancha aniqlik kiritadi. Matnlarning namunaviy variantlari, yozuvning dinamikasi, harflarning hajmi va yo'nalishini aniqlashdan tashqari, yozishmadagi leksik, grammatik, sintaktik birliklarning lingvistik tahlili matn avtorizatsiyasini aniqlashga katta xizmat qiladi.

Noadabiy leksik unsrurlar masalasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan⁵⁸. Noadabiy leksik unsurlarga kiruvchi jargonlar ma'lum guruh doirasidagina qo'llanilib, shu guruh a'zolari uchun tushunarli bo'lgan so'zlardir. Masalan, o'rtoq so'zinning o'rniga "*jigar*" (yoshlar nutqida), *mejdunarodniy* (talabalar uchun³) baho), pul o'rniga "*soqqa*" (savdogarlar nutqida), darsdan ketish o'rniga "*quyon bo'ldim*" (talabalar nutqida), pulni taqsimlab olishning o'rniga "*arra qilaylik*" (o'g'rilar nutqida) kabi. Ba'zan jargonlar nisbatan, ma'lum yosh bilan chegaralangan bo'ladi. Qirq yoshli shaxslar yigirma yoshlilarning ayrim so'z va birliklarni tushunishmaydi, shunga ko'ra jargonlar, nisbatan, ma'lum vaqt doirasida yashab qoladigan til hisoblanadi.

Lingvistik ekspertiza –mustaqil sud ekspertizasi, nutq ma'lumotlari (har qanday moddiy vositada qayd etilgan xabar)ni lingvistik o'rganish bo'yicha olib boriladigan tahlil jarayoni⁵⁹. Ushbu faoliyat natijalari jinoiy, fuqarolik yoki arbitraj jarayoni doirasida qat'iy tartibga solinadi va tilshunos ekspert (yoki ekspert tilshunoslar komissiyasi) tomonidan yozma xulosa bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu xulosalar tilshunoslikda maxsus bilimlarni qo'llashni talab qiladigan masalalarni o'z ichiga oladi. Bu sud jarayonida muammoli shaxsiy yozishmalar tahlilidagi farazlar, taxminlarni oldini oladi va individual baholashning aniq mezonini belgilab beradi.

Lingvistik ekspertizadan maqsad maxsus filologik bilimlar asosida ma'lum bir sohadagi muammoli matnlardagi faktlar, vaziyatlarni aniqlash. Shu o'rinda muammoli matn nima degan o'rinli savol tug'iladi. Bahs-munozaraga sababchi bo'ladigan matnlar sirasiga quyidagilar kiradi:

- a) hujjat;
- b) gazetada e'lon qilingan maqola;

⁵⁸ Stamatatos, E., N. Fakotakis & G. Kokkinakis, Computer-based authorship attribution without lexical measures. Computers and the Humanities 35, (2001) pp. 193—214.

⁵⁹ Ярошук И.А., Жукова Н.А., Долженко Н.И. . Лингвистическая экспертиза : учебное пособие / – Белгород : ИД «БелГУ» НИУ «БелГУ», 2020. – 8 с.

- c) teleko'rsatuv;
- d) firma nomi;
- e) tovar belgisi.

Avvalo, ekspert huquqbuzarlikning turiga ko'ra, matnni tahlil qilishi va ma'lum xulolasini berishi uchun ikki yondashuv mavjud:

- 1) asosiy faktlar;
- 2) dalillarga asoslangan ma'lumotlar.

Asosiy fakt – “uning barcha elementlarida jinoyat ishi borligi yoki yo'qligi”⁶⁰ va dalil bu “boshqa faktlar bilan birgalikda asosiy fakt haqida xulosa chiqarish mumkin bo'lgan haqiqatdir”. Har qanday jinoyatning obyektiv va subyektiv tomoni bo'ladi. Jinoyatning obyektiv jihatini yoritishda asosiy va dalillarga asoslangan ma'lumotlar muhim hisoblanadi. Negaki sud hakami ekspertga mavjud ishda jinoyat bormi, yo'qmi deb savol bersa, asosiy fakt haqida so'ragan bo'ladi. Agar matndagi so'zlarning semantikasi, grammatikasi, fonetik xususiyatlari haqida so'rasa, endi ekspert dalillardan kelib chiqib javob beradi. Bu ekspertning tahlil jarayoniga obyektiv aniqlik kiritadi. Masalan, munozarali shaxsiy yozishmada haqoratomuz so'zlar mavjudligi yoki yo'qligi asosiy fakt bo'lsa, ularning kimga qaratilganligi, mazmuniy darajasi, leksik qiymati bular dalil ma'lumotlar sanaladi. Bu, albatta, barcha shaxsiy yozishmalar uchun ham taalluqli emas. Masalan, hammaga ma'lum bo'lgan axborot haqida yozilgan bo'lsa, u hamma uchun ma'lum va maxfiy ma'lumot emas. Bunday vaziyatlarda tarqatuvchi shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Ammo agar u ilgari omma oldida mavjud bo'lmagan va shaxsiy hayotga taalluqli bo'lmagan ma'lumotlarga ega bo'lsa, masalan, bola asrab olish sirlari yoki u yashirgan romantik munosabatlar bo'lsa, u holda fuqarolik va jinoiy javobgarlik paydo bo'lishi mumkin.

Jinoyatning subyektiv tomonida esa qonunbuzarning niyati aniqlanadi. Masalan, ma'ruzachi yolg'on gapirmayotgandek tutadi, shunda uning kommunikativ niyatini aniqlash muhim sanaladi. Yoinki, haqiqatni ro'y-rost da'vo qiladi, yo haqiqatni da'vo qilayotgandek o'zini tutadi. Bularning barida so'zlovchining niyati, maqsadini aniqlash lozim. Jinoyatchining niyat, maqsadini aniqlash, yoki matnga kiritilmagan faktlarni tahlil qilish, yoinki jinoyatning sababini topish – bularning bari ekspertning vakolatiga kirmaydi. Matnning lingvistik ekspertizasini ishlab chiqishda ekspertning vakolatiga matnning ma'nosini, ya'ni unda


⁶⁰Белкин Р. С. Собиране, исследование и оценка доказательств. М., 1966. С. 19.

nima deyilganini belgilash kiradi. U muallifning matnida ifodalangan niyat va maqsadini tahlil qiladi. Avvalo, dalil sifatida olingan matndagi soʻzlovchining niyati sud tomonidan aniqlanadi, lingvist esa masalaga xususiy yondashib lingvistik asoslarini belgilab beradi. Endilikda ekspert oldida maʼlum vazifalar qoʻyiladi. Bu xususda Rossiyaning Orlov davlat universiteti tilshunos olimlari L.A.Vlasova va I.V.Popova bahsli matnlarni oʻrganish uchun, dastlab, semantik mohiyatni anglash lozimligini taʼkidlashdi⁶¹. Bu yondashuv semasiologik tahlil yordamida amalga oshiriladi, shuningdek, jarayonda adabiy va noadabiy meʼyorga ega grammatik birliklarning umumiy lugʻatiga ehtiyoj seziladi. Zero, yozishmaning muallifini aniqlash uchun matndagi birliklarning leksik-grammatik maʼnolarini adabiy meʼyorga koʻra aks ettiruvchi baza zarurdir.

Birinchi boʻlimda Rossiya davlati Orlov universiteti olimlari I.V. Popova, L.A.Vlasova shaxsiy yozishmalarning Sms-chat turlarining lingvistik ekspertizasini bosqichlari haqida maʼlumot berilgan edi⁶². Bu boʻlimda lingvistik ekspertiza olimlarning uchinchi bosqich tahliliga koʻra amalga oshiriladi. Unga koʻra, matn tarkibidagi barcha shubhali, muammoli soʻzlar ajratib olinadi. Ularning mohiyati oʻrganiladi va noadabiy unsurlarga xos xususiyatlari aniqlanadi. Noadabiy leksik unsurlar shaxsning yoshiga, jinsiga, ijtimoiy va hududiy mansubligiga koʻra tahlil qilinadi. Tadqiqotning birinchi va ikkinchi boʻlimida tahlil obyekti bitta hisoblanadi. Ammo tahlil yoʻnalishi alohidadir. Birinchi boʻlimda lingvistik ekspertiza yozishmaning turi, mavzu yoʻnalishi haqida boʻlsa, ikkinchi tahlilda matn ijrochilarining qaysi hududga mansubligi lingvistik jihatdan oʻrganiladi. Lingvistik tahlil tilshunoslik bilan bir qatorda areal lingvistika, lingvistik geografiya kabi dialektologiya sohalari kesishuvida amalga oshiriladi. Quyidagi tahlil shu xususda boradi:

⁶¹ Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы : сборник научных работ по итогам Международной научной конференции «Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы» (Москва, 1–2 октября 2019 г.). – М.: Государственный институт русского языка им. А. С. Пушкина, 2019. –24 с. – 558 с.

⁶² Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы : сборник научных работ по итогам Международной научной конференции «Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы» (Москва, 1–2 октября 2019 г.). – М.: Государственный институт русского языка им. А. С. Пушкина, 2019. –24 с. – 558 с.



Lingvistik ekspertizani amalga oshirish uchun ma'lumotlar tadqim etildi, bunda birinchi bosqich yordamga keladi. Ya'ni shaxsiy yozishmada qaysi mavzuda gap borayotganini aniqlash. Bunda B ismli shaxsga B1, B2, B3 va J ismli shaxslardan telegram tarmog'i orqali SMS xabar borgan. Bu haqiqatan ham, muammoli matn deb topildi, chunki unda haqoratomuz so'zlar va tushunarsiz, ma'lum guruhgagina xos bo'lgan jargonlardan foydalanilgan. Shunda, dastlab, ekspert oldiga savol qo'yiladi yozishmalarda nima haqida gap boryapdi? Ekspertga berilgan ma'lumot ma'lum tizimda emas, avvalo, uni maqsadli ravishda sistemaga solib olish kerak. Qabul qiluvchi va jo'natuvchining suhbat faktiga ko'ra ma'lumotlar bir tizimga solindi. Yozishmalarda umumiy quyidagi so'zlar qo'llanilgan: *iflos, anka, asfalt, uje, baza, 42 million, konkretny, moskva, tochna, umoby, 45, hal qilish, pul tikkan, qog'ozlarning kopiyasi, rasmlar, kaneshna, chotkiy, anovi zavod, soqqalari, zavodga qancha beramiz, b..., hammasi o'xshasin*.

Matnda *iflos, b...* kabi qo'pol mazmunga ega birliklar qo'llanilgan. Olimlarning ta'kidlashicha, haqoratli va qo'pol so'z birikmalaridan maqsadli foydalanish – bu insonni haqorat qilish hisoblanadi va, albatta, jinoiy javobgarlikka tortish mumkin. Ammo jamoat oldida birovga nisbatan haqorat qilish maqsadida emas, balki vaziyatning ziddiyatlashuvi natijasida, shaxsning ixtiyorsiz ravishda qo'llagan qo'pol, haqoratli, hayosiz so'z birikmalari uchun jinoiy ish

qo‘zg‘atilmaydi⁶³. Masalan, sudya sud zalidan chiqayotganida jabrlanuvchi tomonidan unga nisbatan ahmoq, tentak, ovsar degan so‘zlari haqorat hisoblanmaydi, chunki bu sudyaga emas, balki sud xulosasiga nisbatan ishlatilgan qo‘pol iboralar hisoblanadi. Shuningdek, yuqoridagi yozishmada ham iflos, b... kabi qo‘pol so‘zlar so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi muammoli vaziyatga nisbatan qo‘llanilyapti. Demak, bunday birliklarning lingvistik tahlili sud jarayoni uchun muhim emas, ammo tahlil xulosasi jarayon uchun ahamiyatli sanaladi. Quyida noadabiy leksik unurning ikki soha yuzasidan tahlili berilgan:

Dialektologiyaga oid tahlil	Noadabiy leksik unsur	Linvistik ekspertiza
1.Qashshoqlik, notavonlik; 2.Kirlangan, isqirt	Iflos	1.Kirlangan, isqirt; 2.Shaxsga nisbatan omma oldida nutqiy vaziyatga nomuvofiq qo‘llanganda haqorat so‘z sifatida qaraladi.
1.Ashula aytib raqsga tushuvchi; 2.Asli vatani Hindiston bo‘lib, turli davrlarda u yerdan tarqalib, ko‘chmanchi bo‘lib yashovchi xalq.	Lo‘li	1.Ashula aytib raqsga tushuvchi; 2.Urushqoq, janjalkash, shallaqui tarzida nutqiy vaziyatga ko‘ra ayollarga nisbatan ishlatiladi.
Badanda pufakchalar hosil qilib qattiq qichishtiradigan yuqumli teri kasalligi ⁶⁴ .	Qo‘tir	1.Badanda pufakcha hosil qilib teri kasalligiga yo‘liqmagan insonga nisbatan qo‘llansa, ushbu so‘z haqorat sanaladi; 2. Bu so‘z omma oldida ataylab obro‘sizlantirish, kamsitish maqsadida qo‘llansa lingvistik-pragmatik jihatdan tahlilga tortiladi.

⁶³ Ворошилова, М. Б. Лингвистическая экспертиза [Текст]: задачник: учеб. пособие. В 2 ч. Ч 1. Экспертиза конфликтного текста / М. Б. Ворошилова; ФГБОУ ВО «Урал. гос. пед. ун-т». — Екатеринбург, 2016. — 62 с.

⁶⁴ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. –T.,2020.

Haqoratli soʻzlardan maqsadli ravishda foydalanish deganda maʼlum shaxsga nisbatan jamoat oldida uning obroʻ-eʼtiboriga nomunosib soʻzlarni qoʻllashdir. Masalan, biror xodimga nisbatan: “Vaqtli kelishning iloji yoʻqmi, ahmoq”, - tarzida munosabatda boʻlsa, bu vaziyatga koʻra jinoiy javobgarlik ishini qoʻzgʻatsa boʻladi. Buni aniqlash uchun ekspertning oldiga ikki savol qoʻyiladi:

- Bu soʻzlar, haqiqatan ham, odobsiz, beadab, haqoratli maʼnoda qoʻllanilganmi?;

- Bu soʻzlar etik jihatidan haqoratlimi?

Lingvistik ekspertizaning vazifasi esa inson, yoki biror tashkilotning qadr-qimmati, obroʻyiga putur yetkazishi mumkin boʻlgan matnlardagi haqorat soʻzlarning lingvistik tahlilini berishdan iboratdir. Haqorat soʻzning haqiqatan haqorat mazmunida qoʻllanganligi va maqsadli amalga oshirilganligini bilish uchun tilshunos I.A. Sternin qoʻpol soʻzlarning mazmuniga koʻra darajaladi. Bu quyidagi jadvalda aks etgan⁶⁵:

1.1-jadval

Tartibga koʻra	Adabiy meʼyorga muvofiq (har qanday vaziyatda foydalanishga ruxsat berilgan)	Adabiy meʼyordan chekinish hollari (vaziyatga muvofiq chegaralangan hollarda qoʻllaniladi)			
		Tahqirlash Sleng (tomi ketgan, aravachi, qallob)	Vulgar soʻzlar (Badbasha ra, bezbet, iflos, ahmoq, qorin, laqma)	Uyatli soʻzlar (hayvonlar va ularning urgʻochilarin i nomi bilan keltirish;	Jamiyat axloqiy mezonlarga toʻgʻri kelmay-digan soʻzlar (bu besh

⁶⁵ Стернин, И. А. Выявление признаков возбуждения расовой и национальной вражды в лингвистической экспертизе текста [Текст] : метод. пособие / И. А. Стернин ; Центр коммуникативных исследований Воронеж. гос. ун-та. — Воронеж: Гарант, 2010. — 16-21 с.

		Jargon (mishka, koptok) Sodda nutq (shippak, og‘makor)			so‘z bilan hosil qilinadi)
		Qo‘pol (tajovuzkor)			
Jamoat joyida qabul qilinadiga n, axloqiy mazonga xos	Odob doirasida (jamoat joylarida ishlatiladi)		Behayo ibora		
			Nopok (tabu, butunlay taqiqlangan foydalanish jamoat joyi)		
		Madaniyatsiz (noo‘rin, tavsiya etilmaydi jamoat foydalanish joy)			

Bu borada professor B.O'rinboev ham vulgarizmlarni ma'no ottenkasi va qo'llanish doirasiga ko'ra 3 guruhga bo'ladi:

a) kishilarning xarakteri va mijozidagi ojizlikni ifodalovchi vulgarizmlar: *ezma, juvonboz, xumpar, buzuq, mug'ombir, latta kabi*;

b) kishining tashqi kamchiligini ko'rsatuvchi vulgarizmlar: *mechkay*, *ko'ppak*, *maymoq*, *ilonbosh*, *simyog'och*, *qovoqbosh*, *ayronbosh*, *gumbaz*, *bordonday*, *qo'ng'iz*, *mo'ylov*, *kal*, *do'rdoq*, *qiyshiq*, *qo'tir kabi*;

v) so'kish, koyish ma'nosini ifodalovchi vulgarizmlar: *bachchag'ar*, *yaramas*, *ablah*, *xumpar*, *nomard*, *badbaxt*, *nonko'r*, *gumroh*, *qistaloq*, *ahmoq*, *sintaloq*, *xotin-taloq*, *galvars*, *kasofat*, *naxs*, *ko'ppak*, *og'moq* (*telbalanmoq*), *og'zi katta* (*kibrhavola*), *nazari ilmaydi* (*mensimaslik*) *kabilar*⁶⁶.

Haqorat so'zlarning darajalanish xususiyatiga ko'ra matnni tahlil qilish ancha samarali natija beradi. Shu asosda ekspert uchun haqorat so'zlar lug'ati muhim ahamiyatga ega. Munozarali matn mazmuniga oydinlik kiritishda ham, tekshiruv xulosasini berishda ham asos vazifasini o'taydi. Haqorat va qarg'ish so'zlarning mazmuni va hududiy xususiyatlariga ko'ra indeksi ilovada keltirilgan.

Jargonlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari rus tilshunosligida birmuncha o'rganilgan. Jumladan, V.V.Straten, L.A.Kapanadze, L.T.Loshmanova, L.I. Skvortsov, E.G.Barisova-Lukashanets kabilarning qator tadqiqotlari mavjud⁶⁷. Matnda *soqqa*, *42 million*, *45, pul tikkan* kabi birliklarning ishlatilishi suhbatdoshlarning biror oldi-sotdi muammosi borligi haqida xulosa beradi. Ammo *soqqa* noadabiy unsurining qo'llanilishi esa suhbatdoshlar birinchi bor savdo ishi bilan shug'ullanmaganligi, balki savdo-sotiq sohasi ularning kundalik ish-faoliyati ekanligidan dalolat beradi. Chunki har to'rttala shaxs uchun ma'lum bo'lgan va doimiy tazrda qo'llanib kelayotgan so'z keltirilgan. Ammo nutq jarayonida aynan *pul tikkan* so'zi ham qo'llanilgan, bu esa muammoning yechimi tahlilning keyingi bosqichlarida ayon bo'lishiga ishoradir.

Noadabiy leksik unsurlardan shunday turi mavjudki, ular nutqning ravonligi va sofligiga yaqqol ta'sir ko'rsatadi. Bu o'zga tilli so'zlarni qo'shib gapirish hisoblanadi. Yuqoridagi matnda *uje*, *karoche*, *tochna*, *chotkiy* kabi so'zlar ishtirok etgan. Bu so'zlovchining shaxsiy intellektini namoyon etuvchi, hatto jamiyatdagi o'rnini aniqlashga

⁶⁶ Sherboyeva G. Badiiy matnda sotsial chegaralangan so'zlar. Andijon., 2017., -b 32.

⁶⁷ Straten V.V. Argo i argotizm. - V sb.: "Trudi komissii po russkomu yaziku". -L., 1931.; Skvortsov L.I. Ob otsenkax yazika molodyoji. "Voprosi kul'turi rechi" Vip. 5. M. 1964. s.67; Loshmanova L.T. Jargonizirovannaya leksika v bitovoy rechi molodyoji 50-60-x godov. AKD. -L., 1975.; Kapanadze L.A. Jargon i "modnie slova". "Nasha rech'"M., 1965; Borisova- Lukashenets E.G. Angliyskiy elementi v russom molodejnom jargone.AKD,M.,1964.

yordam beruvchi noadabiy unsurlardir. Zero, varvarizmning asosiy belgisi uning ajnabiy soʻzligi va oʻz tiliga tamoman yotligidir⁶⁸. Ushbu tahlil tilshunos ekspertlar L.A.Vlasova va I.V.Popovaning lingvistik tahlil usulidagi uchinchi bosqich hisoblanadi. Bu matndagi birliklarning lingvistik tahlili edi. Bu oʻzbek tilidagi matnlarda jinoiy ishlarni fosh etishda yaxshi taklif boʻla oladi. Birinchi boʻlimda birinchi va ikkinchi usullari asosidagi lingvistik tahlil beriladi.

Noadabiy leksik unsurlar oʻz grammatik qurilishi va asosiy lugʻat fondiga ega emas. Ular buni milliy tildan oladi. Jargonlar keng jamoatga emas, balki tor doiradagi kishilarga xizmat qilishi bilan xarakterlanadi. Vulgarlar esa keng ommaga tegishli boʻlib, har ikkala qatlamning ham leksik omborni tuzish, lugʻat tarkibini shakllantirish maqsadga muvofiq deb oʻylayman. Zero, jadal taraqqiyot davrida bu koʻpgina muammolarning yechimiga sabab boʻladi. Masalan, anonim yozishmalar muallifining tili, ijtimoiy qatlami, intellektual salohiyati va saviyasini aniqlashda ancha qoʻl keladi. Bundan tashqari noadabiy leksik unsurlar shaxsning millatini aniqlashda ham yordam beradi. Lingvistik ekspertizada noadabiy leksik unsurlarning indeksi muammoni har tomonlama oʻrganish uchun ahamiyatli. Sud jarayonlarida ham aynan hududiy jihatdan kategoriyalashtirilgan noadabiy leksik unsurlarning lugʻati matnni lingvistik ekspertiza qilish uchun asos boʻladi.

Noadabiy leksik unsurlarning hududiy xosligi

Oʻzbek shevalari leksik qatlamini oʻrganishning yoʻnalishini belgilashda S.Ibrohimov, S. Rahimov, T.Yoʻldoshev kabi olimlarning tadqiqotlari yetakchi rol oʻynaydi⁶⁹. Oʻzbek tili leksik qatlamining dialektal oʻziga xosligiga qadimgi urugʻ va qabilalarning alohida hududlarda yashaganliklari muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, ijtimoiy hayot tarzi, hududiy mustaqilligi, kasb-hunari, etnografik xususiyatlari ularning tilida aks etmay qolmas edi. Natijada bu jarayon umumiy oʻzbek tilini saqlab qolgan holda maʼlum hududlarga xos shevalarning yuzaga kelishiga sabab boʻldi. Tarixiy maʼlumotlarga koʻra, Oʻrta Osiyo va Qozogʻiston hududida mavjud boʻlgan qipchoq, oʻgʻuz, qarluq-chigil, uygʻur xalqlarining til birligi oʻzbek tilida ham

⁶⁸ Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлили. -Тошкент, Ўқитувчи, 1995. -Б.35.

⁶⁹ Иброхимов С. Фаргона шеваларининг касб-хунар лексикаси. Кулоллик, тандирчилик ва шувогчиликка оид. АДД.Т.,1956. Иброгимов С. Профессиональная лексика узбекского языка (на материалах Ферганских говоров). Т.,1961. Ибрахимов С.И. Узбек тилининг Андижон шеваси. Т, 1967.;Rahimov S. Oʻzbek tili Surxondaryo shevalari.(Fonetika, leksika) Toshkent:Fan.,1985.;Yoʻldoshev T. Tojikistondagi oʻzbek shevalari morfologiyasi. Toshkent:Fan.,1986.

shunga muvofiq sheva va lahjalarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Demak, o'zbek milliy tili uchta lahjaga ega: qipchoq (janubiy-g'arbiy guruh), o'g'uz (shimoliy-g'arbiy guruh) va qarluq (janubiy-sharqiy guruh) lahjalari bo'lib, ular ma'lum hududlargagina xosdir⁷⁰.

O'zbek dialektologiyasida sheva va lahjalar o'ziga xosligi yuzasidan ko'pgina tadqiqot ishlari olib borilgan. Hududiy dialektlar masalasida professorlar Q.Muhammadjonov shimoliy o'zbek shevalarini, A.Aliyev Namangan guruh shevalarini, X. Doniyorov Samarqand va Jizzax viloyatlaridagi o'zbek shevalarini, B.Jo'rayev va A.Shermatov Yuqori Qashqadaryo hamda Quyi Qashqadaryo o'zbek shevalarini, N.Murodova Navoiy viloyati shevalarini, T.Qudratov Qashqadaryo viloyatidagi o'zbek shevalarining oraliq guruhini tadqiq etishgan⁷¹. Bu tadqiqotlar o'zbek tili shevalarining o'ziga xosligini asoslab beradi.

Professor V.V.Reshetovning tasnifiga ko'ra, o'zbek tili shevalari uch guruhga ajratiladi:

1) shimoli-g'arbiy guruh- bu qipchoq lahjasidagi shevalardan iborat va qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq tillarining ta'siri sezilib turadi;

2) janubi-g'arbiy guruh – bu o'g'uz lahjasiga taalluqli bo'lib, chegaradosh hudud tili, ya'ni Turkman tilining ta'siri bor;

3) janubi-sharqiy guruh –bu qarluq lahjasiga xos bo'lib, tojik tilining aralashuvini kuzatish mumkin.

Olimning tasnifi O'zbekiston viloyatlari tilining o'ziga xosligini belgilash uchun asos bo'ladi. Garchi barcha viloyatlar uchun umumiy so'zlashuv tili o'zbekcha bo'lsa ham, viloyatlararo leksik qatlam o'ziga xos leksik-semantik, fonetik, grammatik, sintaktik jihatdan farqlanadi. Bu masalada ham V.V.Reshetovning tasnifi muhim ahamiyatga ega. Ba'zi so'zlar semantik bir xillik, ayni bir tushunchani ifodalasa-da, shevalarda turli so'zlar bilan berilishi mumkin: *og'iz(ad.)–qag'anaq(Surx.)–falla(Sam.)–og'iz(Qash.)–uvuz(Qip.sh); chaqaloq(ad.)–nini(Bux.) –bebek(Sur.)–bovak(qip.)–chaqalag'(Qash.)–chaqalo(Tosh.)–buvek(Farg.) – bala(shim.o'zb.sh.)*. Shuningdek ayni bir

⁷⁰ Hamroev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona Tili. O'quv qo'llanma. Toshkent - 2017.,-b. 5.

⁷¹ Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.; Rajabov N.O'zbek tilshunosligining 60 yillik taraqqiyoti tarixidan. Samarqand, 1982.; Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent: Fan, 1997.; Aliyev A.Y. O'zbek dialektologiyasidan materiallar. –Toshkent: Fan, 1974. 219 bet; Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. -Toshkent: Fan, 1979.; Qudratov T. O'zbek tilining oraliq shevalari (Shahrisabz, Yakkabog', Chiroqchi va Qamashi rayonlaridagi oraliq sheva materiallari asosida).Filol. fan. nom. diss.-Toshkent,1968.236 bet; Jo'rayev B.Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari.–Toshkent:Fan,1969. -b.25-31; Murodova N. O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini. –Toshkent: Fan., 2007.; Shermatov A. Quyi Qashqadaryo o'zbek shevalari. –T., 1972.

soʻz shevalarda boshqa bir mazmunni yuzaga keltirishi mumkin: *buvi*–Toshkentda ota-onaning onasi, Fargʻonada esa ona maʼnosida; *aka*–Samarqand, Buxoroda ukadan katta yaqin qarindosh, Xorazmda esa dada maʼnosida; *pashsha* –Toshkentda chaqmaydigan hasharot, Fargʻona va shimoliy oʻzbek shevalari, Qashqadaryo, Buxoroning ayrim hududlarida chaqadigan hasharot. Bundan tashqari narsa va predmetning nimadan yasalganiga koʻra ham soʻzlar hududlararo oʻziga xoslikni yuzaga keltiradi: *nonpar* –Samarqand, Buxoro hududlarida qush va parranda patidan yasaladigan oshxona buyumi, *chekich* –Toshkent va uning ayrim viloyatlarida yogʻoch simdan yasaladigan va yassilash, urish degan maʼnolarda ishlatiladi. Aynan shu oshxona buyumi shimoliy oʻzbek shevalarida *duki* –duk-duk taqlidiy soʻzdan olingan nom bilan ataladi.

Oʻzbek xalq shevalari soʻz boyligida oʻzbek adabiy tilidagi soʻzlar bilan shaklan oʻxshash, ammo maʼnoda bir-biridan farq qiladigan leksik-semantik birliklar uchrab turadi. Masalan, uzangi shevada “narvon” adabiy tilda esa “otga minish va egarda oyoqlarni tirab turish uchun moʻljallangan metaldan yasalgan ot abzali”; qalin-gilam adabiy tilda esa “nikoh toʻyida qiz uchun kuyov tomonidan beriladigan pul”; nervan Xorazmda qayragʻoch, adabiy tilda “ikki yoni yogʻoch va unga mustahkamlangan pogʻonalardan iborat, yuqoriga chiqish va tushish uchun moʻljallangan asbob”⁷². Adabiy til va hududiy shevalarning leksik-semantik farqini kuzatar ekanmiz, bu borada Xorazm leksikasida oʻziga xoslikka ega. Bu shevaga oʻgʻuz lahjasining taʼsiri kuchli boʻlgan ozarbayjon, turk, turkman tillariga xos leksik birliklarni koʻp uchratamiz. Masalan: *gunash–quyosh*; *choʻx–juda*; *yigʻlayman* – *yigʻlaram*, *senikidur* –*saningdur*, *unda* –*anda*, *yoʻrgʻan* –*koʻrpa*, *dal* – *emas* (*inkor shakl*); *xoʻja* –*katta kabilar*⁷³. Buxoro va Qashqadaryo shevalarida *quyosh* –*oftob*, *bola* –*bachcha*, *qiz* –*duxtar*, *oʻrta yoshli erkak* –*mardakcha*, *tovuq* –*murgʻ*, *ilon* –*mor*, *chumoli* –*moʻricha*, *xushmuomala* –*shirin zabon*, *yigit* –*pisar* tarzida uchraydi. Maʼlum boʻladiki, janubi-sharqiy hududlardagi viloyatlarda tojik tilining taʼsiri kuchli va bu ham oʻsha hudud leksik qatlamining oʻziga xos xususiyatlaridan biridir. Arab tilining taʼsirida leksemalarni buzib talaffuz qilish hodisasi uchraydi. Masalan, *muborak boʻlsin–morak boʻsin*, *oilali–oyilali*, *muallim–ma:lim*, *maorif–mo:rif* tarzidagi soʻzlar oʻzbek tilida qator unlilarning mavjud emasligi bilan belgilanadi.

⁷² Allaberdiyev. A.A. Buxoro oʻgʻuz shevalari leksikasi. Fil.fan.dok.diss... Toshkent.,-2018.-88 b.

⁷³ Xudayberganova D.Q. Xorazm xalq dostonlari leksikasida nafaol qatlam. Urganch – 2017.39-Bet.

O'zbek tili boshqa tillardan ajralib mustaqil taraqqiy eta boshlagan davrdan boshlab, unga turkiy va eroniy tillarning kuchli ta'siri bo'lgan. Jumladan, Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalariga qoraqalpoq va qozoq tillarining, Toshhovuz o'zbek shevalariga (Xorazm shevalariga) turkman tilining, shimoliy o'zbek shevalariga qozoq tilining, Qirg'izistondagi o'zbek shevalariga qirg'iz tilining, Samarqand, Buxoro, Namangan, Sariosiyo va Tojikistondagi o'zbek shevalariga tojik tilining ta'siri kuchlidir. Shu tufayli ham bu shevalar boshqa shevalardan farqlanib qolmoqda va o'ziga xoslikni vujudga keltirmoqda⁷⁴. Bu borada tadqiqotchi A.Allaberdiyev Buxoro o'g'uz shevalariga tojik tilining ta'sirini quyidagicha tasnif qiladi:

1. Qadimgi yozma yodgorliklar uchun xos bo'lgan, Buxoro o'g'uz shevasida turli darajada saqlangan, biroq o'zbek adabiy tilida mavjud bo'lmagan leksik birliklar: *aja* –kaft, turkm. *a:ya* – kaft,

2. Ma'nosida o'zgarishlar ro'y bergan asl turkiy so'zlar⁷⁵.

Tadqiqotchining birinchi tasnifiga ko'ra, Buxoro o'g'uz shevalarining leksik-semantik xususiyatlari, aynan Xorazm, Toshhovuz va Qoraqalpog'istondagi ayni shunday til hodisalari bilan o'xshashdir. Aslida bu jarayon deyarli barcha hudud shevalarida uchrashi mumkin. Ammo olimning ikkinchi tasnifida Buxorodagi tojikzabon xalq bilan o'zbek tilining qo'shiluvi va natijada yangidan-yangi gibril leksik birliklarning yuzaga kelishini kuzatish mumkin. Masalan, *yuzma-yuz* ma'nosida qo'llangan *ro'yoch* so'zi, forscha ro'y - yuz, o'zbekcha ochmoq fe'lining birikuvidir. Shunda *ro'yoch* shevada qilmoq fe'li bilan birikib “gaplashib olmoq, orani ochiq qilmoq” ma'nosini bildiradi. Shuningdek, leksik qatlamning tojik tili bilan gibrilashuvi nafaqat Buxoro, balki Samarqand, Toshkent viloyati, Sirdaryo, Namangan va Qashqadaryoning ayrim hududlari uchun xos.

Demak, leksik qatlamning hududiy o'ziga xosligini o'sha yerda yashovchi xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy holati, turmush-tarzi, urf-odati va qolaversa, geografik joylashuvi ham belgilab beradi. Zero, har kim o'zining mentaliteti, yashash tarzi, atrof-muhitga munosabatiga ko'ra moslashib boradi. Bu esa o'z-o'zidan tilda aks etadi va hududiy o'ziga xoslikni yuzaga keltiradi.

⁷⁴ Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent.,2013., -b.7.

⁷⁵ O'sha asar.

1.3.2. Shaxsiy yozishmalarda noadabiy leksik unsurlarning hududiy o'ziga xosligi lingvistik tahlili

O'zbek tilidagi shevalarga xos so'zlarni noadabiy leksik unsurlardan: jargon, argo, vulgar, varvar, parazit so'zlardan farqlash lozim. Ya'ni dialektlar barcha sheva vakillari uchun tushunarli bo'ladi. Noadabiy leksik unsurlar esa dialektal xarakterga ega bo'lmaydi, balki ma'lum ijtimoiy guruh yoki muayyan bir toifa kishilari uchungina tushunarli bo'ladi, xolos. Jargonlarning muhim xususiyati u so'z va so'z birikmasidan iborat bo'ladi va asl leksik-semantik paradigmasidan uzoqlashadi⁷⁶. Masalan, talabalar nutqida oxirgi kurs vakillari - *dembl*, 1-kurs talabalalari- *akademik*, qo'llab-quvvatlovchi shaxs - *tog' yoki tanka*. Aslida, *akademik*- yuksak ilmiy unvon, *tog'*-yer relyefining bir shakli, *tank*- harbiylar uchun maxsus mashina turi kabi semalarga ega. Shuni aytish kerakki, jargon so'zlarni shakllantirishda so'z va birikmalarning sememasi bilan aloqadorlik mavjud bo'ladi, ammo aynan o'sha leksik ma'noda emas. Bunda ma'no zanjiri saqlangan holda boshqa harakat-holatga ishora beriladi. Bunda so'zlovchi va tinglovchining yoshi, jinsi, ijtimoiy mansubligi, saviyasi kabilar inobatga olinadi. Shuningdek, jargon so'zlar ko'proq yoshlar nutqida rivoj topgan. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, qirq yosh atrofidagi insonlar yigirma yoshlilar nutqini to'la tushunmaydilar. Bu ham o'ziga xos yoshlar tili mavjudligidan dalolat beradi. Ammo jargon va argolar tilda uzoq yashamaydi. Chunki bu leksik qatlam, yuqorida aytilganidek, insonning yoshi, tabaqaviy mansubligi va faoliyati bog'liq. Bu jarayonlar turg'un bo'lmaganidek, jargon va argolar ham o'zgaruvchandir. Jargon va argo bitta umumiy ijtimoiy dialekt tushunchasida birlashadi, ammo o'ziga yarasha farqli xususiyatlariga ega. Argo yuqorida aytilganidek, ma'lum guruhlarga xos bo'lgan yashirin til. Uni qo'llashda ma'lum maqsad ko'zlanadi. Masalan, Toshkent viloyati Piskent tumanida talabalar nutqida pora oladigan ustozga nisbatan *cho'mich*, shu hududga tegishli bangilar nutqida qoradori giyohvand moddasi - *ko'kat* so'zlari bilan nomlanadi. Bundan maqsad esa o'ziga aloqador shaxslarga fikrini ayon qilish va o'zgalarning tushunmasligi, sirining fosh bo'lmasligiga erishishdir. Jargonda esa yashirin tushuncha saqlangan holda, tinglovchini yoki

⁷⁶ Попова Е.П. Бондаренко О. В. Кострулева И.В. Русский язык и культура речи УЧЕБНОЕ ПОСОБИЕ Ставрополь 2017.,с 18.

o‘zga bir shaxsni kamsitish yoxud uning xislatlarini bo‘rttirib baholash otenkalari ham mavjud bo‘ladi. Masalan, talabalar nutqida: *dum* - topshirilmagan imtihon, qarz; jonli so‘zlashuvda *yo‘rg‘a*-yengil tabiatli, buzuq va b.lar. Bu noadabiy leksik unsurlar hududiy o‘ziga xosliklarga ham ega. Jargon va argolarning hududiy o‘ziga xosligi 1-jadvalda aks etgan:

Jargon va argo so‘zlar

1-jadval

O‘zbekistonning viloyat va tumanlari	Jargon so‘zlar	Argo so‘zlar
Toshkent vil. Piskent tum.	Shapka –pora	Zormanda-ichuvchilar nutqida aroq
Toshkent vil. Piskent tum.	Quyon bo‘ldim – qochdim	Toza-o‘g‘rilar tilidan hech kim yo‘q
Toshkent vil. Piskent tum.	Cho‘mich-pora oladigan ustoz	Ko‘kat-nasha
Toshkent vil. Piskent tum.	O‘lja- korrupsionerlar tilidan pul beruvchi	Kal kala -dollar
Toshkent vil. Piskent tum.	Pitak-taksi haydovchilar tilidan	Svoy-billiard o‘ynida g‘olib bo‘luvchi
Toshkent vil. Piskent tum.	Bodring- yo‘l patrul xizmati xodimlari)	Sheff-boshliq ko‘cha tilida
Toshkent vil. Piskent tum.	Archa –radar haydovchilar tilidan	Bomdodda hamayoq tinch-o‘g‘rilar nutqida hammayoq tinch degan ma’noni anglatadi

Toshkent vil. Piskent tum.		Banyati shifo dori- ichuvchilar nutqida aroq
Toshkent vil. Piskent tum.	Pistalet-tikuvchilar tilida munchoqni yopishtirish uchun mo'ljallangan asbob	
Toshkent vil. Qibray tum.	Qog'oz-dollar pul birligi	G'ishtakan – xunuk yuzlilarga qaratila yoshlar o'rtasida
Toshkent vil. Qibray tum.	Bodring – militsiya yoshlar o'rtasida	
Andijon	Uchoyoq-radar haydovchilar orasida	Mol-qoradorichilar nutqida
Andijon	Pitak -mashinalar turish joyi haydovchilar orasida	
Andijon	Go'sht kelyapti-pul beruvchi inson korrupsionerlar nutqida	
Andijon	Toza-yo'lda tinchlik (haydovchilar nutqida)	
Andijon	Kal-AQSh dollari (qishloq muhitida)	
Andijon vil.Ulug'nor tum. To'rtol MFY	Yashil – melisa	Zangining buluti - tamaki(chekuvchilar nutqida)
Andijon	Paxtachi –	

vil.Ulug‘nor tum. To‘rttol MFY	tilyog‘lamalik qiladigan odam(talabalar, yoshlar)	
Samarqand viloyati Ishtixon tumani	Ko‘kat-dollar Limon-dollar	
Qashqadaryo viloyati Ishkent tumani	Katta shapka-yuqori hokimiyat	Qamoqxona-teatr (mahbuslar nutqida)
Qashqadaryo viloyati Ishkent tumani		Ahmoq-qurol (bosqinchilar nutqida)
205 Farangiz	Shapka-pora	g‘isht-alkashning mast bo‘lib qolishi
		Kiydirmoq- aldab ketmoq(tovlamachilar nutqida)
Qashqadaryo viloyati Kitob tumani	Akalar-YPX xodimlari (haydovchilar nutqida)	Oq choy (aroq) piyonistalar nutqida;
Qashqadaryo viloyati Kitob tumani	Mol- yuk (biznesmenlar nutqida)	Jazman- klent (dallollar)
Qashqadaryo viloyati Kitob tumani	Lagan-biror narsa xarid qilmay shunchaki ko‘rib ketdigan mijozlar (savdogarlar nutqida)	
Qashqadaryo viloyati Kitob	Ko‘k, ko‘kat-AQSh dollari (bozorchilar	

tumani	nutqida)	
Buxoro viloyati Vobkent tumani	Lagancha- biror ichini bitirish uchun tilyogʻlamalik qiladigan shaxs(talabalar nutqida)	
Buxoro viloyati Vobkent tumani	Qurugʻi- pul (savdogarlar nutqi)	
Buxoro viloyati Vobkent tumani	VTP-vatanparvar(har kuni darsga keladigan talabalar)	
Qashqadaryo vil. Chiroqchi tumani	Bodiring- Yoʻl harakati inspektorlari(haydovchilar nutqi)	
Qashqadaryo vil. Qamashi tum.	Kal-dollar; Qurugʻi-pul	
Samarqand Paxtachi tum.	Mulla jiring, koʻkat-pul maʼnosida	Dori-qora dori maʼnosida(bangilar nutqida)
Samarqand Paxtachi tum.	Kalla tashlamoq-imtihondan yiqilmoq (talabalar nutqida)	Surpanamiz- qochamoq (oʻgʻrilar nutqida)
Samarqand vil. Paxtachi tum.	Quyvon boʻlamiz-darsdan qochamiz (talabalar nutqida)	Tutun boʻlamiz – yoʻqolmoq qochmoq(oʻgʻrilar nutqida)

Samarqand vil. Paxtachi tum.	Dolya- pul(savdogarlar nutqida)	
Navoiy vil. Uchqo'rg'on tum.		Dori -spirtli ichimlik(aroq ichuvchilar nutqida)
Namangan shahar	Qog'oz- dollar pul birligi	
Namangan vil. Chust tum. Olmos MFY	Vatan-hardoimdersga keladigan, formada yuradigantalabaga nisbatan qo'llaniladi	
Namangan vil. Chust tum. Olmos MFY	Ko'kat -dollar Soqqa-pul ma'nosida	

Biz O'zbekistonning viloyatlararo leksik qatlamidagi o'ziga xosliklarni bilish uchun Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kursning 7 ta guruh talabalari yordamidan foydalandik. Talabalarga o'z yashaydigan hududlarida xalq og'zidan noadabiy leksik unsurlarning har biriga 30 tadan misol va shevaga oid matnlarni yozib olish vazifasi topshirildi. Jami 5000 mingdan ortiq baza to'plandi.

1. Shaxsiy yozishmalarning tili va turini aniqlashda 3 ta bosqich taklif sifatida beriladi:

- 1) semantik jihatdan bloklash;
- 2) suhbat yo'nalishini aniqlash;
- 3) nutq birliklarini lingvistik jihatdan o'rganish.

2. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy elksik unsurlarni aniqlashda nutq birliklarini semantik-pragmatik jihatdan o'rganish taklif sifatida berildi. Lingvistik ekspertizada noadabiy leksik unsurlarning indeksi muammoni har tomonlama o'rganish uchun ahamiyatli. Sud jarayonlarida ham aynan hududiy jihatdan kategoriyalashtirilgan noadabiy leksik unsurlarning lug'ati matnni lingvistik ekspertiza qilish uchun asos bo'ladi.

3. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy leksik unsurlarning hududiy xosligini aniqlashda so'zlarni semantik, pragmatik va kontekstual jihatdan o'rganish lozim. Chunki har bir so'z ma'lum hudud doirasida o'ziga xos ifoda xususiyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Фоменко Ю. В. О типологии речевых ошибок // Рус. яз. в школе.— 1987.— № 2.— С. 50—56.;

Ю. В. Фоменко ТИПЫ РЕЧЕВЫХ ОШИБОК Учебное пособие НОВОСИБИРСК 1994.;

2. Цейтлин С. Н. Речевые ошибки и их предупреждение: Пособие для учителей.— М., 1982.— 143 с.; Скворецкая Е. В. Культура речи: (Упражнения и рекомендации).— Новосибирск, 1991.- 88 с;

3. Сергеев Ф. П. Речевые ошибки и их предупреждение: пособие для учителя.- Киев, 1988.- 123 с.; 4. Скворцов Л. И. Канцеляризм и штампы // О культуре речи.- М., 1981.- С. 27-36.;

5. Цейтлин С. Н. Нарушение синтаксических норм в речи школьников: (нормативное управление) // Рус. яз. в школе.— 1980.— № 1.— С. 55—58.; Демиденко Л. П. Речевые ошибки — Минск, 1986.— 336 с.;

6. Александрович З. Д. Особенности перевода отклонений от литературной нормы (на примере романа З. Смит «Белые Зубы»). Выпускная квалификационная работа. Челябинск 2017 год. — 14 с

7. Коровушкин, В.П. Основы контрастивной социолектологии: дис. ... д-ра филол. наук [Текст] / В.П. Коровушкин. - Пятигорск, 2005. - 187с.

8. Abdusaidov A. O'qituvchining nutq mahorati. Ўқув-услугий қўлланма. – Samarqand: SamDU nashri, 2013.

9. Azizova N. A. Talabalar nutqining lingvomadaniy va sotsiopragmatik xususiyati. Magistr diss... Qarshi, 2013, -14 b.

10. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek shevalarida leksik moslik va ularning adabiy tilga munosabati. "O'zbek shevalari leksikasi" to'plam, Toshkent. 1966. -B.5.;

11. Mirzaev M. O'zbek tilining Buxoro gruppasi shevalari. Toshkent., 1969, 32-bet; Мирзаев М. Советско-интернациональные слова в узбекской периодической прессе (1945-1950). Автореф. дис. ... канд. филол. наук. —Ташкент, 1951.;

12. Расулов И. Развитие лексики узбекского языка в период Великой Отечественной войны. Автореф.дис. ...канд.филол.наук. – Ташкент,1951.;
13. Каримов Г.Некоторые вопросы развития узбекского литературного языка 1920-1930 гг. Автореф.дис. ...канд.филол.наук. –Ташкент,1972.;
14. Абдураимова Ш.К. Сўз ўзлаштириш назарияси ва ўзлаштирмаларнинг вақтли матбуот тилида ўзгара бориши. Филол. Фан. Номз. ...дис.автореф. –Тошкент, 1995.
15. Викторова Б.И. Многоуровневая системность стилистических норм и проблема типологизации речевых отклонений от них. автореф...дисс. на соискание ученой степени кандидата филологических наук Краснодар 2007.;
16. Елистратов, В.С. Арго и культура [Текст] / В.С. Елистратов. - Москва, 1995. - 231 с.
17. Влахов, С. Непереводимое в переводе [Текст] / С. Влахов, С. Флорин. - М., 2006. - 324с.
- 18.Алексеева, И.С. Введение в переводоведение [Текст] / И.С. Алексеева. - СПб., 2004. - 196с.
19. Stamatatos, E., N. Fakotakis & G. Kokkinakis, Computer-based authorship attribution without lexical measures. Computers and the Humanities 35, (2001) pp. 193—214.
20. Белкин Р. С. Собираение, исследование и оценка доказательств. М., 1966. С. 19.

2.2. Anonim xatlarda noadabiy grammatik unsurlarning voqelanish xususiyatlari va omillari. Noadabiy unsurlarning shaxs yoshiga ko‘ra xoslanishi ⁷⁷

Axborot almashinuvining jadallashuvi va qamrov doirasining kattalashishi jinoiy harakatlarni amalga oshirish, turli tipdagi materiallarni tarqatish imkoniyatini kengaytirib yubordi. Ijtimoiy tarmoqlarda mikro-blog (twit, kommentariy)lar zahirida ekstremistik va terroristik g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi, davlat va jamiyat xavfsizligiga tahdid qiluvchi g‘oyaviy bo‘ysundirilgan matnlar ham mavjudki, bunday konfliktli matnlardagi til birliklarining tub mohiyatini lingvistik ekspertiza qilish orqali izohlash mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda profil

⁷⁷ Sevara Yoqubova. Nizomiy nomidagi TDPI kata o‘qituvchisi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

egasi shaxsiy ma'lumotlarini jamoatchilikdan sir tutishi yoki turli yashirin nom(nick)lardan foydalanishi mumkin. Bunday matnlarda jinoiy harakatlar borligi aniqlansa, tergov-surishtiruv ishlari amalga oshiriladi. Muammoli matnlarning asosiy mohiyatini ochish, muallifning kommunikativ maqsadini aniqlash uchun lingvistik ekspertiza o'tkazish ishning obyektiv, xolis ko'rib chiqilishiga yordam beradi. Anonim xatlarda identifikatsiya belgilarini aniqlash jahon tajribasida uch yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Matnning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish orqali (Chaski-2001, T.Grant, McMEnian);

2. Korpuslardan foydalangan holda hisoblash orqali (Argamon, 2008; Guver, 2003; Koppel va boshq. 2006; 2011);

3. Tergov-surishtiruv ishlari orqali.

Respublikamizda mavjud sud-ekspertizalari negizida muallifshunoslik va xatshunoslik ekspertizalari ham alohida o'rin egallab, bunda xatshunoslik ekspertizasida qo'lyozma ko'rinishidagi matnlar, imzolar namuna asosida solishtiriladi va o'xshashlik koeffitsiyenti baholanishi orqali gumonlanuvchiga tegishli/tegishli emaslik holati aniqlanadi. Muallifshunoslik ekspertisasi obyekti sifatida esa anonim xatlar, intellektual mulk obyektlari olinadi. Shu o'rinda xatshunoslik ekspertisasi, muallifshunoslik ekspertisasi va lingvistik ekspertizaning o'zaro bog'liqligi hamda tafovutlarini aniqlash ehtiyoji paydo bo'ladi. Aytib o'tish joizki, har uchala ekspertiza turida obyekt matn sanaladi. Xatshunoslik ekspertizasida qo'lyozmalar namuna asosida tekshiriladi. Muallifshunoslik ekspertizasida matn muallifi xatlarni o'zaro taqqoslash, so'zlovchi nutqiga xos birliklar dalillar asosida aniqlanadi. Lingvistik ekspertiza esa ushbu ekspertiza turlariga nisbatan kengroq mohiyat kasb etadi. Boisi, lingvistik ekspertiza orqali kriminal/kriminal bo'lmagan konfliktli matnning istalgan ko'rinishi tahlilga tortilishi mumkin.

Aynan anonimlik holatlarida lingvistik ekspertizani amalga oshirishda yetakchi omil bo'luvchi jihatlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

- 1)matnni leksik-semantik tahlil qilish, tahlil natijalarini yuridik asosga ko'ra umumlashtirish;

- 2)matnni mavzu yo'nalishiga muvofiq semantik bloklash;

- 3)matndagi grammatik unsurlarni xarakterli xususiyatiga ko'ra tahlil qilish (grammatik xatoliklarning hududiy, gender va yoshga xosligiga ko'ra);

4)matndagi fonetik unsurlarni turli kontekstlarda qo'llanishi va xarakterli xususiyatiga ko'ra tahlil qilish (hududiy, gender va yoshga xosligiga ko'ra).

Ushbu omillarni qo'shimcha omillar bilan yanada kengaytirish mumkin. Funktsiyali so'zlarning nisbiy chastotalari va so'z chastotasi kabi xususiyatlar, taqsimotlar an'anaviy ravishda atributlash uchun ko'p o'lchovli modellarda birlashtirilgan mualliflik va, haqiqatan ham, funktsiyali so'zlardan foydalanishdagi individual o'zgarishlar bugungi kungacha mashhur usul (Grant & Baker, 2001)⁷⁸. Bu sohadagi boshqa tadqiqotchilar (masalan, Miranda-Garsiya va Kalle-Martin, 2005)⁷⁹ ba'zi muvaffaqiyatlarga erishdi, leksik boylik (kamdan-kam uchraydigan so'zlarning chastotasi, masalan, hapax legomena va hapax dislegomena) va takrorlash (umumiy so'zlarning chastotasi).

G.D.Markova kriminalistik adabiyotlarda anonim xatlarning muallif identifikatsiyasi masalasiga to'xtalar ekan, matnda qo'llangan elementlar muallifning emotsiyalariga bog'liq ravishda maxsus belgilarini namoyon etishini ta'kidlaydi va uchta yirik unurni sanab o'tadi:

- leksik-semantik;
- grammatik;
- stilistik.

Ushbu yirik uch unsur ikki xil kategoriyaga ajratiladi:

- 1)adabiy me'yorga muvofiq;
- 2)me'yordan chetlashilgan⁸⁰.

Anonim xatlarda muallif muayyan axborotni bayon qilishda ikki xil xatolikka yo'l qo'yishi mumkin. Ana shu ikki xatoni to'g'ri aniqlay olish muallifni aniqlashga yordam beradi. Ushbu xatoliklar quyidagicha:

- 1) mazmuniy mundarijaning o'zgarib borishi bilan bog'liq xatolik;
- 2) lingvistik jihatdan imloviy, punktuatsion, sintaktik xatoliklar.

Matn hajmi qanchalik uzun bo'lsa, unda xatolarning qo'llanish koeffitsiyenti shuncha ortib boradi. Bunday matnlarda muallif nutq uslubi "o'zini o'zi kashf qiluvchi" kalit vazifasini bajaradi. Qisqa matnlarda esa belgilar "kod"ini ochish qiyin. Ana shunday holatlarda matnning mazmuniy va grammatik strukturasidagi xatoliklarga diqqat

⁷⁸Grant T. & Baker K. Identifying reliable, valid markers of authorship: a response to Chaski. *International Journal of Speech, Language & the Law* 8 (1), 2001. – P. 66-79.

⁷⁹Miranda-García A. & Calle-Martin J. (2005) The validity of lemma-based lexical richness in authorship attribution: a proposal for the Old English Gospels. *ICAME* 29. – P. 115-130.

⁸⁰Маркова Г.Д. Идентификационные признаки письма в советской криминалистической экспертизе. – Харьков, 1956. – С. 117.

qaratish lozim. Grammatik xatoliklarning kuzatilishi aynan yosh toifasida quyidagilar bilan xarakterlanadi:

1. Imlo xatolari. Ko‘pincha, imlo kamaytirilgan yo‘nalishda buziladi. Bunda, odatda, imloga oid xatoliklar grammatik qoidalardan bexabar insonlar nutqida namoyon bo‘ladi, chunki ular nutq birliklarini qanday talaffuz etsa, shunday yozma nutqda ham aks ettirishadi. Asosan, kichik yosh toifasida, ya‘ni 12-20, 20-30 yosh oralig‘idagi insonlarda so‘zni talaffuz etilganiga muvofiq yozish ustuvorlik qiladi.

2. Tinish belgilaridagi xatolar. Ko‘pincha, bu zarur o‘rinlarda vergullarning yo‘qligi, aksariyat hollarda, keraksiz tinish belgilarining paydo bo‘lishi (masalan, jumla mazmuniga nomuvofiq tarzda) bilan xarakterlanadi. Tinish belgilaridan o‘rinli foydalanish o‘rta va yuqori yosh toifasidagi insonlar nutqida ancha yuqori (30-45, 50 va undan yuqori).

3. Sintaktik xatolar. Nutqning sintaktik buzilishi atayin tinish belgilaridagi xatolar bilan bir xil xarakterda sodir bo‘ladi. Shunisi e‘tiborga loyiqki, bunday turdagi xatolar jumla ichidagi so‘zlarning tartibi buzilishida ko‘rinadi va bu jarayon matnni jumlalarga ajratishda yuzaga keladi. Shuningdek, murakkab sintaktik qurilmalar o‘rniga sodda gap qoliplaridan foydalanish mumkin. Odatda, 30-45 yosh toifasida murakkab sintaktik qurilmalardan foydalanish yetakchilik o‘rinda turadi.

4. Taqdimot uslubini soddalashtirish. Bunga muvofiq, kundalik turmush tarzida faol ishlatiluvchi odatdagi nutq uslubidan foydalaniladi. Bunda sodda jumlar, keng tarqalgan iboralardan foydalaniladi. (*kanechno, o my god, Ok, Nu..*) Nutq uslubini atayin yashirish uchun stereotipik iboralar, oldingi jumlaning, so‘nggi so‘zining har bir jumlasidagi takrorlashlar, jumla boshlanishining bir xil turi va boshqa uslubiy xatolardan foydalanish mumkin.

5. Oddiy til vositalaridan foydalanish. Odatda ilmiy yoki rasmiy-ishbilarmonlik uslubini bilan ishlaydigan shaxslar ba‘zan o‘ziga xos nutqiy ko‘nikmalarini atayin yashirish maqsadida oddiy, so‘zlashuv yoki epistolyar uslubga xos vositalarga murojaat qilishadi. Bunday holatlarda hukmlarning o‘rtacha davomiyligi, ko‘pincha, qisqartiriladi. Shu bilan birga, matnni xatboshilarga bo‘lish qobiliyatlari an‘anaviy ravishda saqlanib qoladi, haqiqiy uslubni yashirishda ma‘lum bir odam tomonidan kamdan-kam ishlatiladigan maqollar, matallar, frazeologizmlar ishlatilishi mumkin.

6. Matnning arxitekturasini, ya‘ni uning qurilish qolipi, ba‘zan o‘zgarishlarga uchraydi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yozma nutqni yashirish uchun, ko'pincha, imlo va leksik xususiyatlar o'zgarishga uchraydi. Biroq, lingvistik me'yorlarning buzilishini anglatuvchi belgilar, nafaqat, oddiy yozuvda, balki boshqa belgilar ataylab o'zgartirilganda ham barqarorligini saqlaydi.

Yozma nutqni buzish belgilarining mavjudligi yoki yo'qligini aniqlash uchun, nafaqat, har bir belgini tahlil qilish, balki uni qo'lyozmada aks etgan boshqa belgilar bilan taqqoslash talab etiladi. Bunday taqqoslash qarama-qarshiliklarni aniqlashga va ularning o'zgarishini ko'rsatadigan belgilarni topishga yordam beradi:

- jumalarning to'g'ri sintaktik tuzilishi bilan ko'plab imlo normalarining buzilishi yoki, aksincha, sintaktik va tinish belgilarining ko'p sonli buzilishi qatorida imloga qat'iy rioya qilish;
- nisbatan, oddiyroq sanalgan imlo qoidalarining qo'pol ravishda buzilishi, murakkab imloga ega so'zlarning yozilishi;
- sintaksis qoidalariga rioya qilish va turli xil tinish belgilaridan to'g'ri foydalanish paytida uslubiy xatolarning ko'pligi, argotizmlar, lug'at aralashuvi;
- lug'at va murakkab funksional nutq uslublarini yaxshi biladigan odamlarga xos bo'lgan so'zlar va iboralarni taqdim etish uslubini umumiy soddalashtirish fonida mavjudligi;
- to'g'ri yozilgan so'zlarni tuzatish;
- qo'lyozma oxirida, masalan, matn boshida yozilgan bir xil so'zlar xatolar bilan to'g'ri yozilganda, imlo xatolarining sonini kamaytirish. Bu yozma tilni ataylab o'zgartirishga qaratilgan xatning oxiriga bo'lgan e'tibor va sa'y-harakatlarning zaiflashishi bilan bog'liq.

Yozma nutqdagi grammatik xususiyatlar muallif nutqining tilning grammatik me'yorlariga mos kelish/kelmaslik darajasini ifodalaydi. Shuningdek, grammatik unsurlar muallifning grammatik normalarni o'zlashtirish darajasini ham aniqlash imkonini beradi. Tilning grammatik me'yorlarini o'zlashtirish erta bolalikdan kattalar nutqiga taqlid qilish hamda maktabda adabiy me'yorlarni o'rganish orqali shakllanadi. Lekin kundalik nutq, atrof-muhit, psixologik holat, nutqiy vaziyat ta'sirida orfografik me'yorlarni soddalashtirishga intilish natijasida individual yozma nutq uslubi shakllanadi. Bu xususiyatni qo'lyozma matnlarda yaqqol kuzatish mumkin. Punktuation belgilarga keladigan bo'lsak, anonim xatlarda tinish belgilari ham muhim rol o'ynaydi. Boisi, tinish belgilarini turli vaziyatlarda qo'llash orqali umumiy mazmunni o'zgartirish, yoki ichki mohiyatni yashirish mumkin.

Tinish belgilarining qo'llanishi ham muallifning ruhiy-psixologik, emotsional holatini ifoda etadi. Aynan qo'lyozma ko'rinishdagi sud-tergov jarayoniga oid matnlarni tadqiq etgan I.A.Mansvetovanning ta'kidlashicha, konfliktli matndan quyidagi axborotlarni olish mumkin:

- so'z tarkibidagi tuzatishlar, o'zgartirilganlik omili;
- sintaktik qurilmalar hamda xatoliklarning o'ziga xos tarzda qo'llanilishi;
- jummalarni qurishdagi xatolar yoki o'ziga xos kompozitsiyalar va ularning kategorial xoslanishi (ayol/erkak; yosh/qari va h.k.)⁸¹.

Demak, anonim xatda grammatik unsurlarni muallifni aniqlovchi omillar sifatida belgilashda quyidagilar asos bo'ladi:

1) matnning imloviy xatolardan holi emaslik omilini aniqlash. Ushbu xatolarning qanday nutqiy vaziyat bilan bog'liq holda amalga oshganligini aniqlash. Yoshga oid individual belgisi bor/yo'qligini asoslash;

2) matnning punktuatsion xususiyatlarini o'rganish. Tinish belgilari, ularning muayyan kommunikativ maqsadga bo'ysundirilgan/bo'ysundirilmaganlik holatini aniqlash. Tinish belgilarining to'g'ri/noto'g'ri qo'llash, qasddan o'zgartirish holatlari bor/yo'qligini asoslash. Yoshga, gender xosligiga ko'ra individual belgilar bor/yo'qligini aniqlashtirish;

3) matnning sintaktik-stilistik xususiyatlarini o'rganish. Gap bo'laklarining joylashuv tartibini tahlil qilish. Gap bo'laklarining qo'llanish chastotasida identifikatsiya uchun asos bo'luvchi belgilar bor/yo'qligini asoslash.

Shaxsning yosh xususiyatiga muvofiq imlo xatolarning qo'llanishi bo'yicha tajriba-sinov ishlari quyidagi bosqichda amalga oshirildi:

Tajriba-sinovni tashkil etish va o'tkazish bosqichlari

1. Turli yosh toifasiga ko'ra respondentlar tanlab olish (10-40 va undan yuqori yosh toifasi);

- ✓ 10-20 yoshli maktab o'quvchilari, o'smirlar;
- ✓ 21-30 yoshli uy bekasi, turli soha vakillari;
- ✓ 31-45 yoshli turli soha vakillari;
- ✓ 50 va undan yuqori yosh vakillari.

2. Barcha respondentlar quyidagi kategoriyaga muvofiq ajratildi: 10-20; 21-30; 31-45, 50 va undan yuqori.

⁸¹Манцветова А.И. Теоритические основы судебного почерковедения. – М.: Наука, 2006.

3. Respondentlarga matn o‘qib eshittirildi. Ular eslab qolgan qismini qog‘ozga tushirishdi.

4. Olingan natijalarni yo‘l qo‘yilgan xatolar soni va foizini hisoblagan holda guruhlariga ajratildi.

5. Tahlil natijalarini umumlashtirildi.

Quyidagi jadvalda yosh nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda xatolar o‘rib borish foizining solishtirma grafigi berildi.

2.1-jadval

Yosh nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda xatolar o‘rib borish foizining solishtirma grafigi

T/r	Respondentlar ning umumiy soni	Yosh katego ri-yasi	Imloviy xatolar ning umumi y soni	Harflarni qo‘llashdag i xatolar soni va foizi	Qo‘shib yozishdagi xatolar soni va foizi	Ajratib yozishdagi xatolar soni va foizi	Bo‘g‘in ko‘chiris hdagi xatolar soni va foizi
1	10	10-20	75-85	45-57 (60-67%)	4-6 (5-6%)	13-15 (15-17%)	1(1%)
2	10	21-30	152-167	89-120 (59-72%)	6(4%)	15-20 (10-12%)	6-8 (4-6%)
3	10	31-45	37-55	14-23 (45-42%)	6-8 (16%)	7-8 (19-15%)	10-16 (27-29%)
4	9	50 va undan yuqori	24-42	16-23 (67-55%)	6-14 (25-33%)	1-3 (1-3%)	1-3 (1-3%)

Jadvaldan ko‘rish mumkinki, turli yosh toifasiga mansub kishilarda grammatik xatolarning qo‘llanish foiz ko‘rsatkichi turlicha. E’tibor qaratish lozim bo‘lgan jihati – barcha yosh toifasida harflarni noto‘g‘ri qo‘llash va punktuatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan xatolar salmog‘i ko‘p.

- Sintaktik shakl yasovchilarning kategorial xoslanishi;
- Lug‘aviy shakl yasovchilarning kategorial xoslanishi.

2.2-jadval

Turli tipdagi matnlarda sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar
(umumiy egalik qo'shimchalari) chastotasi

Misollar	Internet (micro- blog, chat)	Bosma (roman, lirika, gazeta)	Shaxsiy xat (telegram account)	Og'zaki nutq materiallari
Umumiy fayllar	9537	1087	3588	16783
So'zlar uzunligi	3.305468	26642852	14986	1195099

2.3-jadval

Turli tipdagi matnlarda lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar
chastotasi
(-lar)

Misollar	Internet (micro- blog, chat)	Bosma (roman, lirika, gazeta)	Shaxsiy xat (telegram account)	Og'zaki nutq materiallar i
Umumiy fayllar	9537	1087	35889	16783
So'zlar uzunligi	3.305468	26642852	14986	1195099

Jadvaldagi ma'lumotlardan ham ko'rish mumkinki, matnning grammatik strukturasi qo'llaniluvchi xatolar koeffitsiyenti ijtimoiy tarmoqlarda, ayniqsa, Telegram messenjerida yuqori ekanligi kuzatiladi. Aynan ijtimoiy tarmoqlarda shaxs yozilayotgan so'zning talaffuzdagi variantini qo'llaydi. Shu boisdan xatolar soni ham ko'p bo'ladi. Matnda so'z turkumlarining grammatik kategoriyalari bilan bog'liq xatolar ham yuzaga chiqadi.

1. Fe'l turkumidagi grammatik kategoriyalarning qo'llanishi:

a) shaxs-son, zamon, mayl shakllarining qo'llanishidagi individual xarakterli xususiyatlar;

b) fe'l nisbatlarining qo'llanishi (belgili, belgisizlik. Nisbatlar o'rtasidagi almashinuv).

2. Ot so'z turkumidagi grammatik kategoriyalarning qo'llanishi:

a) egalik shakllarining qo'llanilishida dialektal variantlardan foydalanish;

b) kelishik shakllarining qo'llanishida dialektlar variantlardan foydalanish, talaffuzga muvofiq yozish;

d) ismlarni kesimga xoslovchi shakllarning tushirib qoldirilishi, tarkibidagi unlilarning kuchsizlanishi yoki umuman qo'llanilmasligi.

Demak, yozma matn ko'rinishidagi lingvistik ekspertizaning obyekti bo'ladigan matnlarni grammatik jihatdan tahlil qilishda nutq uslubida yuzaga keladigan xatolarni aniqlash lozim. Boisi, muallifning kommunikativ maqsadidan kelib chiqqan holda grammatik vositalar kamaytiriladi/orttiriladi yoki o'zgartiriladi. Anonim xatlarda grammatik unsurlarning voqelanish xususiyatlarida ana shu jihat yaqqol ko'zga tashlanadi.

Anonim xatlarda noadabiy lug'aviy shakllarning shaxs yosh xususiyatiga ko'ra xoslanishi

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, keksalar yoshlarga nisbatan axborotni qayta ishlash jarayonida passiv stimulni namoyon etadi. Bunga asosiy omil sifatida fiziologik holat va nerv-mushak tizimining sustlashuvi ko'rsatiladi. Nerv-mushaklarning zaiflashuvi bevosita til mushaklarining faoliyatini sustlashtiradi va nutq orasida pauzalar soni ortib boradi. Neyrotizimda neyrotransmissiya tezligining kamayishi nutq tezligiga ham ta'sir ko'rsatadi⁸². Ushbu jihat og'zaki nutqda yaqqol ko'rinadi. Nutq tezligining sustligi pauzalarning ko'pligi, ikkilanishlar, hissiy ifodalar bilan namoyon bo'ladi. Yozma nutqda esa ushbu omil o'zgaradi. Quyi yosh toifasidagilarda keksa yosh toifasiga nisbatan noadabiy lingvistik birliklarni ishlatish koeffitsiyenti yuqori. Yosh uzayib borgan sari miya faoliyati susayadi. Ba'zi insonlarda miyaning ayrim joylari hajmi yiliga 1 foizga kamayadi, lekin hech qanday funksiyasini yo'qotmaydi. Shunday qilib, miya tuzilishidagi yoshga bog'liq o'zgarishlar har doim ham miyaning leksik, grammatik birliklarni qabul qilish va uzatish funksiyasining yo'qolishiga olib kelmaydi. Biroq qarish bilan miya funksiyasining pasayishi miya kimyoviy moddalaridagi o'zgarishlar (neyrotransmitterlar), asab hujayralarining o'zidagi o'zgarishlar, vaqt o'tishi bilan miyada to'plangan toksik moddalar va irsiy o'zgarishlarni o'z ichiga olgan

⁸²Narasimhan S.V., Karunarathne S.S. G Effect of Age, Gender and Vowel Type on Vowel Space Area in Sinhala Speakers // Vidyodaya Journal of Science No. 01 2021. – P. 13-20.

ko‘plab omillarning natijasi bo‘lishi mumkin. Bu esa nutqda o‘z aksini topadi. Nafaqat, so‘zlar, balki qo‘shimchalarning nutqda qo‘llanilishi bilan bog‘liq tafovutlar ham nutqda ifodalanadi. Yoshning o‘tib borishi bilan ikki xil qobiliyatda o‘zgarishlar kuzatilishi mumkin:

- og‘zaki qobiliyatlar, jumladan, lug‘at va so‘zlardan foydalanishning pasayishi;
- intellektual qobiliyatlar – axborotni qayta ishlash qobiliyati (tezlikdan qat’iy nazar), agar asosiy nevrologik yoki qon tomir kasalliklari bo‘lmasa, saqlanib qoladi⁸³.

Yozma nutqda esa yosh toifasining o‘zgarib borishi bilan leksik va grammatik jihatdan noadabiy birliklarning qo‘llanilish chastotasi kamayib boradi. Lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar ham shular jumlasidan. Anonim xatlarda muallif atributlarini aniqlashda lug‘aviy shakl yasovchi affikslarga ham diqqat qaratish lozim. Chunki lug‘aviy shakl yasovchilar grammatik vazifa bilan bir qatorda uslubiy vazifa bajarishga xoslangan. Shaxsiy xatlarda esa muallif erkin harakatlanadi va nutq bilan bog‘liq imkoniyatlari to‘laligicha namoyon bo‘ladi. Nutqda so‘z shakllari, ularning grammatik va stilistik vazifasini aniqlash, aynan, anonim xatlar bo‘yicha amalga oshiriladigan lingvistik ekspertizalarda muhim o‘rin tutadi. So‘z shakllari va ularning paradigmalarini ajratish N.Ostroumov, G.Vamberi, L.V.Shcherba va boshqa rus tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlaridan boshlanadi. Ya’ni so‘z shakllari o‘zaro bog‘lanishlari jihatidan ikkiga ajratiladi. Bular:

- 1) paradigma hosil qiladigan shakllar;
- 2) paradigma hosil qilmaydigan shakllar.

Ushbu bo‘linishga ko‘ra, paradigma hosil qiladigan shakllar sirasiga ot va otlashgan so‘zlardagi grammatik son (birlik, ko‘plik), kelishiklar, egalik shakllari va fe’llardagi bo‘lishli/bo‘lishsizlik hamda shaxs-son formalari kiritiladi⁸⁴.

Paradigma hosil qilmaydigan shakllar tarkibida esa hozirda lug‘aviy shakl hosil qiluvchi nomi ostida birlashtirilgan otlardagi kichraytirish-erkalash, sifatlardagi daraja, fe’llardagi nisbat va vazifa shakllari hamda shu kabi boshqa shakllar o‘rganildi.

Alisher Navoiy ikki til bahsini grammatik sathda olib borganligi tufayli, bugungi kunda so‘z yasalishi, shakl yasalishi atamaları bilan

⁸³Deborah M. Burke and Meredith A. Shafto. Aging and language production//Current directions in psychological science. – P. 9-23.

⁸⁴Усмонов С. Умумий тилшунослик. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. – Б. 60-89.

farqlanuvchi yasalishlarni bir-biridan ajratmaydi. Lekin ravishdoshning -**gach** shakli (*tepgach, aytgach, yorg'och, topqoch, sotqoch*)ning fe'lga qo'shib, uning ma'nosiga "sur'at yo'sunluk" bir ma'no yuklashini ta'kidlaydi. Shuningdek, fe'lning orttirma nisbati shakli haqida ham aytib o'tadi va bu nisbat ma'nosi -**t** qo'shimchasi orqali ifodalanishini qayd etadi. Masalan, *yugurt, yashurt, chiqart*⁸⁵.

O'zbek tilida so'z shakllarini hosil qiluvchi qo'shimchalar ot va fe'l so'z turkumlarida salmoqli o'rin tutatdi. Sintaktik shakl yasovchilardan farqli ravishda lug'aviy shakl yasovchilar so'zning mazmun jihatiga ta'sir ko'rsatadi. Aynan shu tufayli lingvistik ekspertizada konfliktli matnda qo'llangan lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalarning kontekstga ta'siri, qo'llanilish chastotasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Grammatik vositalarning shaxs yosh xususiyatlariga ko'ra xoslanishi borasida maxsus izlanishlar olib borilmagan. Biroq har bitta grammatik unsur turli xil variantlarda qo'llaniladi va bu bevosita og'zaki nutqda, shuningdek, yozma matnlarda o'z aksini topadi. Tadqiqotda lug'aviy unsurlarining shaxs yosh toifasiga ko'ra xoslanish omillarini 3 obyekt misolida o'rganildi:

1. Qo'lyozma matnlar.
2. Mikro-bloglar.
3. Ovozli xabarlar.

Muayyan lingvistik birliklarning nutqda yosh kategoriyasiga muvofiq xoslanishi faqat lingvistik ekspertiza uchun ahamiyatli bo'lmasdan, psixolingvistika, sotsiolingvistika singari tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Fikrimizni quyidagicha asoslashimiz mumkin:

- so'zning tanlanishi va nutqda qo'llanilishi shaxsning intellektual salohiyatini baholashga imkon beradi;
- turli lug'aviy, sintaktik birliklarning muayyan yosh toifasiga ko'ra kategoriyalanishi ushbu birliklarning stilistik imkoniyatini kengroq aniqlashga yordam beradi;
- fonetik, leksik, grammatik unsurlarning turli variantlari aynan qaysi yosh toifasida salmoqli o'rin egallashini aniqlash orqali ularni yirik guruhlariga ajratish imkoniyatini yuzaga keltiradi;
- lingvistik ekspertizada ekstremizm, haqorat, tuhmat, anonimlik bilan bog'liq holatlarda lingvistik belgilarga ko'ra yosh xususiyati bo'yicha umumiy tushunchani shakllantirish yoki yosh toifasiga ko'ra matnning

⁸⁵Alisher Navoiy. Muhokamat-ul-lug'atayn. – Toshkent, 2018. – B. 10.

pragmatik, stilistik mazmun yo‘nalishini baholash imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Kriminalistikada esa ayrim jinoyatlar bevosita lingvistika bilan bog‘liq holda hal qilinishiga ham e‘tibor qaratiladi. Shu boisdan jahonda alohida lingvokriminalistika va lingvokonfliktologiya bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda, bunday tadqiqotlar mohiyatan lingvistik ekspertizaga borib taqaladi. Lingvokriminalistika uchun obyekt bo‘luvchi jinoyatlar sirasida tahdid, haqorat, korrupsiya singari jinoyatlar bevosita til orqali sodir etiladi. Shu nuqtayi nazardan ushbu tipdagi jinoyatlar “til jinoyatlari” deb ta’riflangan⁸⁶. Ekstremizm, anonimlik, reklama matnlari bilan bog‘liq jinoyatlar esa bilvosita til omili orqali sodir etiladi. Bunda matn yetakchi ahamiyatga ega. Biroq lingvistik ekspertizaning barcha tarkibiy qismlari ham kriminalistik mohiyat kasb etmaydi. Matnlarda ifodalangan lingvistik belgilarning yosh kategoriyasiga ko‘ra aniqlashning turli lingvistik ekspertizalari qayd qilinadi. Quyidagi turdagi lingvistik ekspertizalarda lug‘aviy, sintaktik, fonetik birliklarning yosh kategoriyasiga muvofiq ajratilishi dalillarni oydinlashtirishda muhim ahamiyatga ega:

birinchidan, anonim xatlar (yuridik va jismoniy shaxslar ustidan yozilgan asossiz “yumaloq xatlar”, o‘z joniga qasd qilish bilan bog‘liq suitsid xatlar, kiber jinoyatlarda o‘zganing profili orqali yuborilgan xabar, siyosiy maqsadga bo‘ysundirilgan mikro-bloklar”);

ikkinchidan, konstitutsion tuzumga, shuningdek, shaxsning e‘tiqod erkinligiga daxl qiluvchi ekstremistik mazmunli xabarlar (yuborilgan xabar egasining taxminiy yoshini lingvistik belgilarga ko‘ra aniqlash);

uchinchidan, o‘zgalar intellektual mulkini o‘zlashtirish bilan bog‘liq plagiatlik holatlari.

Ingliz lingvistik ekspertizasida Solan Va Tiersma maxfiy agent vositasida yozib olingan yashirin suhbatlarda turli lingvistik atributlar orqali muallifni identifikatsiya qilishga e‘tibor qaratadi. Tadqiqotchi urg‘uning aynan affiks qismiga tushish holatlari, so‘z turkumlarining yoshga muvofiq nutqda qo‘llanilish chastotasi singari masalalarni tahlil etadi. Uning kuzatishlari anonimlikni affikslar orqali ham muayyan darajada aniqlash mumkin degan xulosaga olib keladi⁸⁷.

⁸⁶Shuy R. Language crimes: the use and abuse of language evidence in the courtroom. – Oxford: Blackwell, 1996. – P. 178-186

⁸⁷Solan L.M., Tiersma P.M. Speaking of Crime: The Language of Criminal Justice. – Chicago and London: The University of Chicago Press, 2005. 256 p.

Matn muallifini identifikatsiya qilishda yosh kategoriyasi ham yuqori ahamiyat kasb etadi. Lugʻaviy shakllarning qoʻllanilishida imloviy xato bilan bogʻliq holatlar koʻp uchraydi. Xususan:

- ot turkumiga oid lugʻaviy birliklardan koʻplik (-lar), kichraytish-erkalash (-cha, -aloq, -xon, -bonu, -oy, -jon);
- feʼl turkumiga oid lugʻaviy birliklarda: nisbat, boʻlishli-boʻlishsizlik, sifat-dosh, ravishdosh, harakat nomi shakllari;
- son soʻz turkumida son shaklini hosil qiluvchi qoʻshimchalar (-lab, -larcha, -ta, -tacha, -ov, -ala, ovlon);
- sifat soʻz turkumida daraja shaklini hosil qiluvchi shakllar (-roq, -mtir, -sh, -ish).

Yosh kategoriyasiga koʻra tasnif qilishni barcha lugʻaviy shakllar orqali amalga oshirish imkonsiz jarayon. Chunki ayrim lugʻaviy birliklarning fonetik va dialektal variantlari yoʻq. Ularning adabiy meʼyordan boshqacha ifodalanishi faqat talaffuz orqali kuzatiladi. Shu sababdan biz lugʻaviy shakllarning qoʻllanilishini tahlil qilishda otlarda koʻplik, feʼllarda boʻlishsizlik, vazifa shakllarini obyekt sifatida tanlab oldik. Ushbu birliklar har qanday matnda salmoqli oʻrin egallaydi. Bizning asosiy tahlil obyektimiz – mikro-bloklar va qoʻlyozma matnlar. Dastavval, ot soʻzlarda lugʻaviy birliklarning qoʻllanilishiga diqqat qaratamiz.

Matnda muallifga xos atributlarni aniqlashda quyidagi jadvalga tayanildi. Bular orasida lugʻaviy birliklarning qoʻllanilishi ham identifikatsiyani aniqlashda muhim omillardan sanaladi. Noadabiy lugʻaviy shakllarni tahlil qilishda imlo xatolariga asosiy eʼtibor qaratildi.

2.4-jadval

Noadabiy lugʻaviy shakllarni qoʻllashdagi xatoliklarning tahlil natijasi

Ot soʻz turkumida -lar affiksining -la tarzida va qisqartirilgan belgisi / yoki -lr shakli orqali qoʻllanilishi (37 ta namuna)				
	Yosh	Misol	Miqdori	% ulushi
1.	12-18 -la/ -lr	1.Opamla bn umuman kelishomaganmiz. 2.Uydegi/ mani ayblashgan. 3.Sizlr hammani qulogʻiga lagʻmon iliyuribsz.	28-32	77-86%
2.	20-30 -la	1.Tilin boʻsa-yu, oymisan, oʻzin desen. Idish tovo/i haftalab yotsa shuni etadi-de ovsin ovsinga tosh otarmush db.	30-36	81-97%

3.	30-45 -la, -laaar	1. <i>Birovvi g'iybat qiganla do'zaxda yonishini bilishmeydi.</i> 2. <i>Aaaancha g'iybatchilaaar, "suyukli" qayinsiyniginam.</i> 3. <i>Bunaqa vaziyat har qanaqa oiladi uchraydi</i>	11-18	30-45%
4.	50 va undan yuqori	-lar shakli to'g'ri holatda qo'llangan, - la tarzida qo'llanilish salmog'i kam	2-5	5-13%

Jadvalga muvofiq, *-lar* affiksining turli shakllarda qo'llanishi, asosan, quyi yosh toifasidagilarda yuqori ko'rsatkichga ega. Alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihati shundaki, biz qo'lyozma tarzda olgan namunalarda noadabiy lug'aviy birliklar salmog'i kam. Biroq ijtimoiy tarmoqlarda yozilgan "komment"larda bunday birliklarning qo'llanilishi yuqori. Sababi ijtimoiy tarmoqda yoshlar turli "nik"lar ortiga berkinishadi va erkin muloqotga kirishadilar. 15 yoshdan 20 yoshgacha oraliqda 100 ta foydalanuvchidan qariyb 55-67 foizgacha bo'lgan qismi "nik"lardan foydalanadi. Telegram messenjeri, Odnoklassniki, Facebook va Instagram ijtimoiy tarmoqlarida *-lar(-la+r)*, *-lar (ko'plik)* affiksining turli shakllaridan foydalanish quyi va o'rta yosh toifasida ko'p ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari, *-lar* affiksining uslubiy ma'noda qo'llanilishi 30-45 yosh oralig'idagilarda ko'p uchraydi. Xususan, ironiya mazmunida:

"...yeb yotgansanla, birovvi-birov bn ishiyam bumagan. Hammeng talab, yeb, bosib qolish payida yurasanla" (fb 38 yoshli foydalanuvchi);

"...enni kaalenlar ishlab qoptimi, otendan meros qoganmidi o'zinlar bilganingcha ish tutasanlar?!" (fb 30 yoshli foydalanuvchi);

"...sanla birovvi molidanam xazar qimaysanla, xudodanku qo'rqmay qo'yganinglar shundog'am malum" (fb 42 yoshli foydalanuvchi);

Otlarning kichraytirish-erkalash shakllaridan *-cha* shaklining qo'llanilish chastotasi nisbatan yuqori. *-cha* shakli g'azab, kesatq ma'nosida 30-45 yosh toifasidagilar nutqida faol uchraydi. Kuzatishlarimiz natijasida *-cha* affiksi ham 20-30 yosh toifasidagilar nutqida kesatish ma'nosida qo'llanilgan. 30-45 yosh toifasi ham shular jumlasiga kiradi.

20-30 – *"detskiy panyatka, qizcha"*.

Uzidan xonimcha yasavogan.

31-45 – *"Oyimcha o'zini qaynonamlaga yaxshi kursatishga harakat qiladi"*.

50 va undan yuqori yosh toifasida esa ushbu affiks erkalash ma'nosida ishlatiladi.

Fe'l so'z turkumi bo'yicha ham lug'aviy shakl yasovchi vositalarning qo'llanilishida o'ziga xosliklar mavjud. Ularni ham jadval asosida tahlil qilishga harakat qilamiz.

2.5-jadval

Fe'l so'z tarkibida lug'aviy shakl yasovchi vositalar (-ma affiksining -mi, -me tarzida)ning qo'llanilishidagi o'ziga xosliklar

Fe'l so'z turkumida -ma affiksining -mi, -me tarzida qo'llanish ko'rsatkichlari (37 ta namuna)				
1.	Yosh	Misol	Miqdori	% ulushi
2.	12-18 -mi -me	<i>Bolla bugun bormimismi (bormaymizmi); Eee etmen yoshimni. Bu sir.</i>	28-32	77-86%
3.	20-30 -mi -me	<i>O'ziyniyam o'ylamiyszmi, bollariyz-chi. Unaqa demen, birovvi orqasidan g'iybat qivurmasdan.</i>	30-36	81-97%
4.	30-45 -mi -me	<i>Gapirib doklad kigan bilan ish bitmidi; yaxshiyam ozimam ashula eshitmiman bollaringayam eshittirmiman; Bolayizzi sokinlashtiradi, uxlatadi umuman qo'rqmen.</i>	11-18	30-45%
5.	50 va undan -mi -me	-mi shakli to'g'ri holatda qo'llangan, -me tarzida qo'llanilish salmog'i kam	2-5	5-13%

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, noadabiy shakldagi bo'lishsizlik qo'shimchasi, asosan, ravishdosh bilan bog'liq holatlarda uchraydi, 20-30 yosh toifasidagi kishilar nutqida faoldir. Shuningdek, bo'lishsizlik shaklining ifodalanishiga hududiy xoslik omili ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.


Fe'l soʻzlarda vazifa shakllarining yosh toifalari kesimida qoʻllanishi
bilan bogʻliq oʻziga xosliklar

T/r	Fe'l soʻz turkumida vazifa shakllarining qoʻllanishi (37 ta namuna)	
	Yosh	Misol
1.	12-19 yosh <i>ib-ip,p</i> <i>ib-b</i>	<i>"..bilibtimmi?"</i> <i>"...oʻzin hammaga etp yuribsanu".</i> <i>Lch yozb tawa.</i>
	<i>-kan</i>	<i>Uziyam vip sotkanakan,</i>
	<i>-kach-gach,</i> <i>guncha-kuncha</i> <i>gancha-kancha</i> shakllarining almashtirib qoʻllanilishi	<i>"..Owrip sokgach bordm, atak bormasdm"</i> <i>Soqqani boskach survordiptuyu</i>
	<i>-sh(-ish oʻrnida)</i>	<i>Bitta misol borde yecsh kere. Km bilad?</i> <i>Aytsh, etsh</i>
	<i>-sh,-ish oʻrnida</i> <i>-iw</i>	<i>Yechiw kere didm, qiynro misol</i>
	<i>-mo</i> (moq shaklida q undoshining tushirilishi)	<i>Oʻzm ishlamoqchiydim, nu bilmimande...</i> <i>Uzi bormochimasdidm</i>
	<i>-tir-tr</i>	<i>Rasaaa joyiga keltrdm</i>
2.	20-30-45 yoshgacha <i>-ib-im</i>	<i>Oʻlimmanmi qaynanamga shunaqa dib</i>
3.	<i>-ib-ip</i>	<i>Bekor qipsz dardizzi hammaga ovoza qilib,</i> <i>qaynonayizziyam izza qildiyiz.</i>
4.	<i>-ish-iw</i>	<i>Buni surgun qiw kere</i>
5.	<i>-roq-ro</i>	<i>Koʻpro shugullanish kere.</i> <i>Avvalro oʻylash keragidi</i>

Kuzatish va tahlillar shuni koʻrsatadiki, soʻzlarda xatoliklar qorishiq holda qoʻllaniladi. Yaʼni bir soʻzda ham soʻz yasovchi, lugʻaviy va sintaktik shakl yasovchilar bilan bogʻliq xatolar bir vaqtning oʻzida ishtirok etishi mumkin. Erkin namunalarda aynan shunday xatoliklar qoʻllaniladi. Biroq qoʻlyozma koʻrinishidagi matnlarda xatoliklar kam

koʻzga tashlanadi. Bu esa inson psixologiyasi, miya faoliyati bilan bevosita bogʻliq. Ogʻzaki nutqda amalga oshiriladigan nutqiy muloqotda esa keksa yoshdagilar koʻproq xato qilishadi. Transmissiya tanqisligi modeli yoshga bogʻliq yetishmovchilikni bashorat qiladi.

70 yoshli odamlarda past chastotali soʻzlardan yuqori chastotali soʻzlar uchun kutilgan kattaroq yosh farqi kuzatildi (Stuart-Hamilton va Rabbitt, 1997)⁸⁸



2.2.1-rasm. Lugʻaviy shakllarning qoʻllanilishi bilan bogʻliq umumiy xatolar koʻrsatkichi

Yozma nutqda noadabiy lingvistik birliklardan foydalanish koʻrsatkichi yuqoridan pastga tomon yoʻnaladi. Asosan, kichik yosh toifasidagilarda imloviy xatoliklar koʻp kuzatiladi. Katta yoshda esa bu koʻrsatkich kamayib boradi. Ushbu jadvalda ham umumiy 37 ta namunada aynan lugʻaviy shakllar bilan bogʻliq xatolar koʻrsatilgan.

Ogʻzaki nutqda bu miqdor, aksincha, oʻzgaradi, kuzatishlar va tahlillar shuni koʻrsatadiki, keksa yoshdagilar garchi soʻzlar va soʻz maʼnolari haqidagi bilimlarini saqlab qolish yoki yaxshilashda faollik koʻrsatishsa ham, ular ogʻzaki va yozma soʻzlarni qayta ishlash jarayonida soʻz shakllari bilan bogʻliq nuqsonlarga duch kelishadi. Transmissiya – yetishmovchilik (defitsit) modeli asosini taʼminlaydi.

⁸⁸Hamilton S. Literary portrayals of ageing // New York University Libraries, on 15 Dec 2016 at 08:36:37, subject to the Cambridge Core terms of use. – P. 86-91

Yuqorida ta'kidlanganidek, og'zaki nutqda shaxs yoshining yuqorilashi bilan fonetik, leksik, grammatik jihatdan axborotni qayta ishlashda turli xatoliklar yuzaga kelishi mumkin va bu nevrofiziologik omillar bilan bog'liq. Biroq tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, yozma nutqda ushbu ko'rsatkich o'zgaradi. Yosh toifasi yuqorilashib borishi bilan, nafaqat, leksik jihatdan, balki grammatik jihatdan ham noadabiy birliklar salmog'i kamayib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Grant T. & Baker K. Identifying reliable, valid markers of authorship: a response to Chaski. *International Journal of Speech, Language & the Law* 8 (1), 2001. – P. 66-79.
2. Miranda-García A. & Calle-Martín J. (2005) The validity of lemma-based lexical richness in authorship attribution: a proposal for the Old English Gospels. *ICAME* 29. – P. 115-130.
3. Маркова Г.Д. Идентификационные признаки письма в советской криминалистической экспертизе. – Харьков, 1956. – С. 117.
4. Манцетова А.И. Теоритические основы судебного почерковедения. – М.: Наука, 2006.
5. Narasimhan S.V., Karunarathne S.S. G Effect of Age, Gender and Vowel Type on Vowel Space Area in Sinhala Speakers // *Vidyodaya Journal of Science* No. 01 2021. – P. 13-20.
6. Deborah M. Burke and Meredith A. Shafto. Aging and language production//*Current directions in psychological science*. – P. 9-23.
7. Усмонов С. Умумий тилшунослик. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. – Б. 60-89.
8. Alisher Navoiy. *Muhokamat-ul-lug'atayn*. – Toshkent, 2018. – B. 10.
9. Shuy R. *Language crimes: the use and abuse of language evidence in the courtroom*. – Oxford: Blackwell, 1996. – P. 178-186
10. Solan L.M., Tiersma P.M. *Speaking of Crime: The Language of Criminal Justice*. – Chicago and London: The University of Chicago Press, 2005. 256 p.
11. Hamilton S. *Literary portrayals of ageing* // New York University Libraries, on 15 Dec 2016 at 08:36:37, subject to the Cambridge Core terms of use. – P. 86-91

III BOB. NUTQ GENDER XOSLIGINI ANIQLASH BO‘YICHA LINGVISTIK EKSPERTIZA

3.1. Tilshunoslikda gender tushunchasi va genderolingvistik tadqiqotlar*⁸⁹

Insoniyat yaralibdiki, har doim nimagadir intilgan, uzluksiz rivojlanishda bo‘lgan va shu bilan birga o‘zining imkoniyatlarini muntazam kengaytirib borgan. Uning asosiy muloqot vositasi til ekan, u ham zamonlar o‘tgani sari rivojlanib o‘zining yangi imkoniyat qirralarini ochib boraveradi. Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy qarashlarning o‘zgarishi natijasida insonlarning fikrlarida, dunyoni anglash prinsplarida ham yangiliklar vujudga keldi. Gender tushunchasi ham ijtimoiy, tabiiy hamda aniq fanlar kesishgan nuqtada paydo bo‘lgan tushunchalardan biridir. Jamiyatdagi barcha sohalarda ushbu tushuncha bilan bog‘liq bo‘lgan turli izlanishlarni, tadqiqotlarni va albatta yangi g‘oyalarni ko‘rishimiz mumkin. Tilshunoslikda ham ushbu tushuncha juda keng ma’noda qo‘llaniladi. Dunyo tilshunosligida gender va jins tushunchalari bilan bog‘liq juda ko‘p bahsli holatlarni ko‘rishimiz mumkin. Gender nazariyasiga oid manbalarda ta’kidlanganidek⁹⁰, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi **biologik**, tabiiy farqlar bilan erkaklar va ayollarning xatti-harakatini, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini aniqroq farqlash uchun **gender** atamasi qabul qilingan. Gender tushunchasining kiritilishi eng umumiy ma’noda ikki tushuncha - biologik va ijtimoiy jins tushunchalarini farqlashga yordam beradi. Gender (inglizcha gender – “zot”dan) **jins tushunchasi fiziologik voqelik usqurtmasi bo‘lgan ijtimoiy konstruksiya sifatida belgilaydi**. Kundalik hayotimizda jins bilan bog‘lanmagan ko‘plab tushunchalar “erkaklarga xos” yoki “ayollarga xos” deb hisoblanadi. Ya’ni, o‘ziga xos “jinsiy”, gender xususiyatga ega bo‘lib qoladi. “Erkaklarga xos” yoki “ayollarga xos” tushunchalarini aniq farqlash uchun “femininlik” (ayollik) va “maskulinlik” (erkaklik) tushunchalari qabul qilingan. Yangi tushunchalarning kiritilishi erkaklarga xoslik va ayollarga xoslikning biologik ziddiyatini bartaraf etish va tegishli ravishda e’tiborni turli

⁸⁹ Orifaxon Xudoyberdiyeva. ToshDO’TAU tayanch doktoranti.

⁹⁰ Гендер муносабатлар назарияси ва амалиётига кириш. Илмий мақолалар тўплами. –Т.: Ўзбекистон, 2007.– Б.28.

madaniyatlar shakllanishining ichki mexanizmlarini gender nuqtai nazardan ochishga qaratish imkonini beradi⁹¹.

Shunday qabilalar borki, ularda erkaklar va ayollar mutlaqo boshqa tilda yoki alohida dialektlarda gaplashadilar. Buning ko‘plab etnografik va lingvistik asarlarda tilga olingan klassik misolini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Kichik Antil orollarining Kariblari yoki Karibbeanlari. Ularning alohida jinsiy dialektlari haqida birinchi bo‘lib Raymond Breton aytib o‘tgan, u o‘zining “*Dictionnaire Caraïbe-Français*”⁹² kitobida Karibbeanlar qabila boshlig‘i qadimgi tillarini saqlab qolgan ayollardan tashqari barcha mahalliy aholini qirib tashlaganini aytadi. Bu ko‘plab keyingi davrda yaratilgan rivoyatlarda ham takrorlangan. Ulardan biri XVII asrning o‘rtalarida uzoq vaqtini Karib dengizida o‘tkazgan Rochefort tomonidan yozilgan. Bu yerda u erkaklarda o‘ziga xos juda ko‘p iboralar borligini aytadi, ularni ayollar tushunadilar, lekin hech qachon talaffuz qilmaydilar. Shuningdek, ayollarda ham erkaklar hech qachon ishlatmaydigan so‘zlar va iboralar bor. Erkaklar ayollarning iboralari ustidan masxara qilib kulishadi. Shunday qilib, ularning suhbatlarida ayollar erkaklardan butunlay farq qiladigan boshqa tilda gaplashadigandek tuyuladi. Dominikanning vahshiy mahalliy aholisining aytishicha, buning sababi shundaki, Kariblar orollarni egallashga kelganlarida, bu orollarda Aravak qabilasi istiqomat qilgan, ular mamlakat aholisini saqlab qolish uchun ularga turmushga chiqqan ayollardan tashqari hammani butunlay qirib tashlashgan. Endilikda bu ayollar o‘z tillarini saqlab, qizlariga o‘rgatdilar. Lekin o‘g‘il bolalar onalari va opalarining nutqini tushunsalar ham, ular otalari va akalariga ergashadilar, besh-olti yoshdan boshlab ularning nutqiga moslashadilar. Kontinental aravaklarning nutqi bilan Karib ayollarining nutqi o‘rtasida qandaydir o‘xshashlik borligi ta’kidlanadi. Ammo qit’adagi Karib erkaklari va ayollari bir xil tilda gaplashishadi, chunki ular hech qachon begona ayollar bilan turmush qurish orqali o‘zlarining tabiiy nutqlarini buzmagani⁹³.

Tadqiqotchi M.Abduvahobova “Gender” mental birligining lingvokognitiv xususiyatlari” nomli maqolasida gender freymining mazmun mohiyatini ochib beruvchi oltita priferik konseptni sanab o‘tadi. Ana shu konseptlarning biri maskulinlik va femininlikdir.

⁹¹ Гендер муносабатлар назарияси ва амалиётига кириш. Илмий мақолалар тўплами. –Т.: Ўзбекистон, 2007.– Б.28.

⁹²Breton R. Dictionnaire caraïbe-français. - KARTHALA Editions, 1999. – P.303.

⁹³ Jespersen O. Language: It’s nature, development and origin. - New York, 1921. - P. 237.

Maskulinlik tushunchasi “patriarxat” termini bilan bog‘liq bo‘lsa-da, biroq tarixiy tusga ega emas. Tilning zamonaviy diskursida u nafaqat jinsiy mansublik va jinsiy xususiyatlarni, balki erkaklikka aloqador bo‘lgan barcha qo‘shimcha tavsiflarni jamlaydi: tajovuzkorlik, hujumkorlik, shafqatsizlik, baquvvatlik, qo‘pollik, chidamlilik, kuch, serg‘ayratlik, irodasi kuchlilik. Femininity (femininlik yoki ayollik) termini ayol jinsi bilan bog‘liq xususiyatlar yoki jamiyatda ayollardan kutiladigan xulq-atvor namunalarini anglatadi⁹⁴.

O‘zbek tilidagi mustaqillikkacha bo‘lgan davrdagi manbalarda “*pol*”, “*rod*” terminlari faol qo‘llanilgan, mustaqillikdan keyingi davrdagi tadqiqotlarda esa, “*pol*”ni “*biologik jins*”, “*rod*”ni esa “*grammatik jins*” termini bilan atash faollashdi va ommalashdi. Tadqiqotlarda *gender* terminini *jins* bilan sinonim sifatida qo‘llay olinmasligi sabablari ham keltirilgan⁹⁵.

2001-yilda Archie Hobson muallifligida Oxford universiteti nashriyoti tomonidan nashr etilgan o‘n mingdan ortiq so‘zni o‘z ichiga olgan “The Oxford dictionary of difficult words” lug‘atida *gender* tushunchasining qo‘llanish tarixi va izohi keltirilgan. Unga ko‘ra, *gender* tushunchasi XIV asrdan boshlab Yevropada, asosan, grammatik tushuncha sifatida qo‘llanila boshlandi. Lotin, German, Yunon va boshqa shu kabi tillarda ot so‘z turkumini feminin, maskulin va neytral turlarga ajratishni nazarda tutgan. Bundan tashqari, *gender* tushunchasi erkak va ayollarga xoslik ma’nosini ham anglatgan, lekin u XX asr o‘rtalarigacha rasman termin sifatida qo‘llanilmadi. *Gender* va *jins* tushunchalari “ayol” va “erkak” ma’nolarini anglatmada, lekin ular o‘rtasida biroz farqli bo‘lgan ma’no mavjud. *Jins* individlar o‘rtasidagi biologik farqlarni, *gender* esa madaniy va ijtimoiy farqlarni bildiradi⁹⁶.

2013-yilda Edinburg hamda Kembrij universiteti tilshunoslari Keith Brown va Jim Millerlar tomonidan tuzilgan “*The Cambridge Dictionary of Linguistics*” lug‘atida “maskulin” va “feminin” terminlari asosan hind-yevropa tillarida grammatik ma’noni anglatib, ular asosan jonsiz va mavhum otlarga xos bo‘lishi ta’kidlangan. “*Gender*” tushunchasiga italyan tili misolida izoh berib o‘tilgan. Uni yana bir boshqa nom ya’ni, “*natural gender*” deb ham atalishi mumkinligi ham aytib o‘tilgan⁹⁷.

⁹⁴Abduvahobova M. “Gender” mental birligining lingvokognitiv xususiyatlari.// O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2014. №2. - B. 119-123.

⁹⁵ Musayeva F. O‘zbek tilida jins tushunchasining ifodalanishi. - B.15-16.

⁹⁶ Hobson A. The Oxford dictionary of difficult words. - Oxford university press, 2001.- P. 188.

⁹⁷ Brown K., Miller J. The Cambridge dictionary of linguistics. - Cambridge university press, 2013. - P.169-187-279.

Gender va jins (aynan ingliz tilidagi “sex”) tushunchalari juda uzoq tarixga ega. Besh asr davomida bu ikki tushuncha “the male sex” va “the female gender” kabi biologik jins va grammatik ma’noda yonma yon ishlatilib kelingan. XX asrga kelib esa bu ikki tushuncha yangi ma’nolarda qo’llanila boshlandi. “Sex” jinsiy aloqa ma’nosida ishlatilsa, bir necha o’n yillikdan keyin, gender atamasi bir biologik jins bilan bog‘liq bo‘lgan xulq-atvor, madaniyat hamda psixologik o‘ziga xoslikni anglatgan. Asr so‘ngida “gender shaxsiyat” (gender identity) tushunchasi ham keng iste’molga kirdi. Keyinchalik bu tushuncha o‘rnida ham gender atamasi ishlatila boshlandi. Erkak va ayol tushunchalari biologik jins (sex)ga tegishli bo‘lsa, maskulin hamda feminin tushunchalari gender bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalardir.

Yevropalik biolog olim J.Richard Udryning biologik jins va genderga berilgan izohlari quyidagicha:

- jins erkak va ayol o‘rtasidagi biologik farqlarni nazarda tutadi: (masalan, *jinsiy organlar, xromosomalar, gormonlar*);
- jins odatda tug‘ilganda belgilanadi (bu yerda ba’zi istisno holatlar mavjud, ya’ni jins xususiyatlari individ jinsini aniq ko‘rsatmasa, masalan ikki jinslilik (interseks odamlar);
- jins o‘zgarishi mumkin, masalan jarrohlik amaliyoti orqali jinsi o‘zgartirilgan odamlar, bu jinsiy organlarning o‘zgarishi va gormonlar boshqaruvini o‘z ichiga oladi;
- biologik jins inson tug‘ilgandagi xromosomalari, jinsiy a’zolari va anatomiyasiga ko‘ra belgilanadi. Yuqoridagi uchta xususiyat biologik jinsni aniqlashda muhim hisoblanadi. Ular jins uchta kategoriyadan iboratligini ham ta’kidlaydilar:

- ayol (female);
- erkak (male);
- ikki jinslilar (intersex)⁹⁸.

Gender ijtimoiy, psixologik va madaniy qurilish bo‘lib, ijtimoiylashish jarayonida rivojlangan bo‘ladi. Turli xil jamiyat va madaniyatlarda “feminin” va “maskulin” tushunchalari turlicha anglashiladi. Gender ko‘p qirrali ijtimoiy tizim hisoblanadi. Gender, asosan, jamiyat va madaniyat bilan bog‘liq bo‘lib, bu yerda o‘zgarmaslik bor, ammo jins gender uchun asos bo‘la olmaydi.

Gender rol – bunda ma’lum o‘ziga xosliklar va qoidalar mavjudki, jamiyat insonlardan shularga mos bo‘lishlikni kutadi. Har bir

⁹⁸ J. Richard Udry .The Nature of Gender. Demography, Vol. 31, No.4, November 1994. – P.13.

madaniyatning turlicha gender qonuniyatlari mavjud. Ba'zi manbalarda erkak va ayollarning jamiyatdagi roli ularning fiziologiyasi bilan bog'lanadi. Ya'ni, ayollar odatda, o'z energiyasini saqlaydi va natijada ular konservativ, sust, barqaror va siyosatga qiziqmaydigan bo'ladi. Erkaklar o'z energiyasini keragidan ortiqcha sarflaydi va natijada ular ishga chanqoq, faol, jo'shqin, o'zgaruvchan va shu sababli siyosatga hamda ijtimoiy masalalarga qiziquvchan bo'ladi.

Insonning jinsi uning genderidan farqlanadi, lekin ba'zi tillarda jins va gender tushunchalari farqlanmaydi, masalan Nemis va Fin tillarida bu ikki tushunchalar farqlanmaydi. Xususan, nemis tilida biologik jins nazarda tutilganida "Biologisches Geschlecht" va gender uchun esa "Soziales Geschlecht" birikmalari ishlatiladi. Manbalarda aytilishicha, jins va gender o'rtasidagi terminologik farqlarni dastlab 1955-yilda yevropalik seksolog John Money tanishtirgan, lekin 1945-yilda allaqachon Madison Bentley gender tushunchasini izohlagan edi, ya'ni gender "jinsning ijtimoiylashgan aksi" deb ta'riflagan. Bundan oldin esa gender noma'lum tushuncha bo'lgan, lekin faqat grammatik kategoriya sifatida ishlatilgan. Shungacha 1900 dan ortiq genderga oid misollar jinsga sinonim sifatida ishlatilgan.

Biologik erkaklar maskulin rollarini bajarishni o'rganadilar. Ular erkakcha fikrlash va harakat qilish uchun ijtimoiylashadi. Biologik ayollar feminin rollarini bajarishni o'rganadi. Feminist yozuvchi sifatida Simone de Behaviour shuni ko'rsatadiki, "inson erkak bo'lib tug'ilmaydi, lekin erkak bo'ladi", "inson ayol bo'lib tug'ilmaydi, balki ayolga aylanadi"⁹⁹. Biologik jins va gender o'rtasidagi farqlanish erkak/ayol hamda maskulin/feminin terminlarini taqqoslashni talab etadi. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik farqlar ijtimoiy atamalar va tavsiflarga tarjima qilinadi. Feminist yozuvchilarning ta'kidlashicha, maskulinlik va femininlikning ijtimoiy tavsiflari orqali biologik farqlar ham kattalashadi. Gender farqlar xarakter maskulin yoki feminin bo'lganda ko'rinadi. Misol uchun, pushti va ko'k ranglari genderlangan ranglar bo'lib, birinchisi feminin ikkinchisi maskulin hisoblanadi. "*Kuchli*" va "*qattiq*" maskulin, "*zaif*" va "*muloyim*" kabi sifatlar feminin xarakterdir. Maskulinlik va femininlikka xos yana bir qancha xususiyatlar bor. Maskulinlik va femininlik - bu erkak yoki ayol bo'lishning ijtimoiy natijalarini anglatuvchi konseptlar, erkaklar va ayollarni tavsiflovchi xususiyatlardir hamda shu xususiyatlar erkaklarga

⁹⁹ Sahil Hira .Basic concepts : sex and gender, masculinity and femininity, patriarchy.- P.2.

ayollardan ustunlik beradi. Moira Gatensning ta'kidlashicha, agar maskulinlik biologik erkak tomonidan bajarilmasa, u baholanmaydi. Erkak tanasi bizning madaniyatimizda erkaklik va maskulinlikni tavsiflovchi ba'zi xususiyatlar bilan singdirilgan. Demak, erkaklarning ustunligi insoniy norma. Xuddi shunday femininlik biologik ayol tomonidan amalga oshiriladi. Bizning madaniyatimizda ayol tanasi ayol yoki femininlikni tavsiflovchi ba'zi xususiyatlar bilan to'ldirilgan. Judit Butlerning so'zlariga ko'ra, gender haqidagi har qanday nazariya maskulinlik va femininlik nuqtai nazaridan genderning ishlash tushunchasi yoki g'oyasini tanishtiradi. Biz ijtimoiy jihatdan tug'ilishdanoq genderning maskulin va feminin jinsi toifalariga kiramiz.

Tarixchi Thomas W. Laqueur Yevropa Renesansidan to XVIII asrgacha bitta biologik jins (bir jinslilik nazariyasi, bunga ko'ra erkak va ayol bir xil fundamental reproduktiv tuzilishga ega) mavjudligi haqida nazariyani ilgari surdi. Bu qarash XVIII –XIX asrlargacha saqlanib qoldi. Laqueurning nazariyasini Joan Cadden va Michael Stolberg kabi olimlar qattiq tanqid qildi. Joan Cadden “bir jins nazariyasi” antik davr va o'rta asrlardagi skeptikizm (shubha bilan qarash) bilan bog'liq ekanini aytgan. Jahon urushi paytida Amerikada erkaklar urushga ketgan ayollar esa ishlashi kerak bo'lgan bir paytda jins va gender tushunchalari markaziy maydonga keldi¹⁰⁰.

Gender tushunchasining tarixiy ildizlari mohiyatan Lotin tilidagi *genus*, “tur, xil” (kind) , “turlilik, xilma-xillik” (variety) so'zidan olingan. XX asrga kelib bu ma'no butunlay eskirgan va gender formal so'z sifatida grammatik ma'noni anglatgan. Bu ma'no ham 1970-yillarga kelib John Moneyning ilmiy izlanishlari natijasida o'zgardi. Ayniqsa, uning mashxur kollej o'quvchilari uchun yozilgan daslik-majmuasi “*Man&Woman, Boy&Girl*” feminist nazariyasi tarafdorlari tomonidan ishtiyoq bilan qabul qilindi¹⁰¹. Hozirgi kunda genderning ushbu ma'nosi ijtimoiy va boshqa sohalarda keng tarqalgan. Gender jinsni ham o'z ichiga oladi yoki u bilan o'rin almashishi mumkin. Gender tushunchasi taxminan 1960-yilgacha tilshunoslikda feminin va maskulin otlarni ifodalash uchun qo'llanilgan¹⁰².

Xalqaro siyosiy tashkilot GLAAD (formerly the Gay&Lesbian Alliance Against Defamation) saytida jins quyidagicha izohlanadi: tug'ilgandagi

¹⁰⁰

¹⁰¹ Money J., Ehrhardt A.A. *Man&Woman, Boy&Girl: the differentiation and dimorphism of gender identity from conception to maturity.* – London: John Hopkins university press, 1972. – P.

¹⁰² <https://en.wikipedia.org/wiki/Gender>

“insonning erkak yoki ayol sifatidagi klassifikatsiyasi” xromosoma, gormon, ichki reproduktiv organlar, jinsiy a’zolar kabi gavda xususiyatlariga asoslangan, gender esa insonning ichki chuqur sezgilari”¹⁰³.

*Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (Public medical organization. World Health Organisation)*da gender ma’lum bir jamiyat tomonidan erkak va ayollar uchun mos keladi deb hisoblagan ijtimoiy tamoyillar asosiga qurilgan xulq-atvor, xatti-harakat va xususiyatlarni nazarda tutadi. Maskulinlik va femininlik esa genderning kategoriyalari sifatida ko‘rsatilgan¹⁰⁴.

“*Oxford English Dictionary*”da jins biologik farqlarni nazarda tutadi, gender esa madaniy va ijtimoiy xususiyatlarni nazarda tutadi.

“*Merriam-Webster*” lug‘atida organizmlarning tuzilish, vazifa va ba’zida xulq-atvor xususiyatlari ikki jinsni farqlaydi. Ushbu lug‘atda keltirilishicha, “shifokorlar jinsning fiziologik xususiyatini o‘zgartirishi mumkin, lekin moddiy jins genderni belgilay olmaydi”.

“*Macmillan dictionary*” onlayn lug‘atida feminin tushunchasining ikki ma’nosi keltirilgan:

1. An’anaviy ayollarga xos bo‘lgan fazilatlarga ega bo‘lish:

Yangi gullar stolga ayollarga xos go‘zallik baxsh etdi

Ayol go‘zalligi haqidagi an’anaviy tushunchalar

2. Lingvistik ma’nosi. Ba’zi tillardagi maskulin va neytral so‘zlardan farqli bo‘lgan feminin otlar, olmoshlar va sifatlar nazarda tutiladi.

Ushbu lug‘atda maskulinlik quyidagicha izohlangan:

1. Erkaklarga xos bo‘lgan fazilatlar:

Erkakcha ovoz

2. Erkaklar bilan bog‘liq:

An’anaviy erkaklar vazifalari.

Gender - ma’lum bir jamiyat tomonidan erkaklar va ayollar uchun mos deb hisoblaydigan vazifalar, xulq-atvor, hatti-harakat va xususiyatlardir.

*Erkaklar va ayollar ish joylarida gender tenglikni qo‘llab quvvatlaydilar*¹⁰⁵

“*Merriam-Webster*” lug‘atida biologik jins(sex) tushunchasiga berilgan izoh:

¹⁰³ <https://www.glaad.org/>

¹⁰⁴ <https://www.who.int/>

¹⁰⁵ <https://www.macmillandictionary.com/>

1. Ko'p turlarda uchraydigan individlarning ikkita asosiy shakli va ularning reproduktiv organlari va tuzilishi asosida erkak va ayol jinslarga ajratilishi:

Qadimda er va xotin tug'ilajak farzandlarining jinsi haqida u tug'ilgunga qadar orzu qilishgan.

2. Organizmlarning erkak yoki ayolga ajratishdagi tuzilish, funksional va ba'zan xulq-atvor xususiyatlarining yig'indisi:

Shifokorlar jinsning jismoniy xususiyatlarini o'zgartirishi mumkin, lekin tana jinsi genderini aniqlamaydi.

3. Erkak yoki ayol bo'lish holati:

1964 yildagi Fuqarolik huquqlari to'g'risidagi qonunning VII bandida, jins bilan bog'liq kamsitishni taqiqlaydi

4. Erkak yoki ayol guruhi (jamlash ma'nosida) sifatida qaraladi:

U sur'atga jirkanch ko'rinish berib, ayol jinsini kamsitishga jur'at etdi.

5. Jinsiy xohish yoki xatti-harakatlar.¹⁰⁶

Shuningdek, ushbu lug'atda maskulin termini genderga ham biologik jinsga ham tegishli ekani anglashiladi:

1. Erkak (male) :

masculine members of the choir;

2. Erklarga mos keladigan yoki odatda ular bilan bog'liq bo'lgan fazilatlarga egalik:

a masculine voice;

3. Odatda erklarga tegishli ko'pgina so'zlar yoki grammatik shakllarni o'z ichiga olgan genderga tegishli yoki uni tashkil etuvchi:

masculine nouns;

4. Oxirgi bo'g'inda urg'uga ega bo'lish yoki urg'uning sodir bo'lishi:

masculine rhyme (maskulin qofiya).

Cambridge dictionary.org onlayn lug'atida *masculine/feminine* va *male/female* terminlariga quyidagicha izoh berilgan:

1. Female/male (erkak/ayol) tushunchalari insonlar va hayvonlarning biologik jinsini ifodalashda ishlatiladi:

Female lions hunt for food more than male lions (ayol sher erkak sherga jisbatan ko'proq ov qiladi).

2. Erklarga yoki ayollarga xos bo'lgan xususiyatlarni nazarda tutganimizda *masculine/feminine* terminlaridan foydalanamiz:

The bedroom was furnished in a very feminine style. (Yuvinish xonasi ayoolarga xos usul bilan yasatilgan);

¹⁰⁶ <https://www.merriam-webster.com/>

She had a very masculine voice. (U qizning erkaklarga xos bo'lgan ovozi bor).

3. Tilshunoslik sohasida grammatik jins nazarda tutilganda *masculine/feminine* terminlari qo'llaniladi:

*“He” is the masculine form of the third person singular; “she” is the feminine form. (Ingliz tilida “he” olmoshi uchinchi shaxs birlikda maskulin shaklni ifodalaydi, “she” uchinchi shaxs birlikda femininlikni ifodalaydi)*¹⁰⁷.

Biologik jins, gender, femininlik va maskulinlik terminlari o'zbek tilidagi tadqiqotlarning deyarli barchasida tilga olingan, lekin ushbu yo'nalishda izohlanishi muhim bo'lgan terminlarni tushuntirishga ham ehtiyoj tug'iladi. Tadqiqotda patriarxat va androsentrizmning farqli tomonlari, androsentrizm hamda ginosentrizmning antonim sifatida izohlarini keltirib o'tamiz.

Cambridge onlayn lug'atida patriarxat quyidagicha izohlangan:
(Patriarchy [English])

Ot:

Ota uy xo'jaligi boshlig'i bo'lgan, ayollar va bolalar ustidan hokimiyatga ega bo'lgan ijtimoiy tizim (*A social system in which the father is head of the household, having authority over women and children*);

Erkaklar boshqaruvi tizimi (*A system of government by males*);

Ijtimoiy yoki madaniy tizimlarda erkaklarning hukmronligi (*The dominance of men in social or cultural systems*).

(Androcentrism [English])

Ot:

Erkaklarga mafkuraviy e'tibor, erkak bo'lmaganlarga ta'sir qiladigan yoki zarar yetkazadigan muammolar (*An ideological focus on males and men, and issues affecting them, possibly to the detriment of non-males*)¹⁰⁸.

Androsentrizm atamasi analitik tushuncha sifatida Sharlotta Perkins Gilman tomonidan ilmiy munozaraga kiritilgan. Perkins Gilman jamiyatlardagi androsentrik amaliyotlar va ular yaratgan muammolarni 1911-yilda nashr etilgan *“The Man-Made World”* or *“Our Androcentric Culture”* haqidagi tadqiqotida tasvirlab berdi. Androsentrizmga erkak jinsi me'yoriy hisoblanadi va erkak jinsidan tashqari barcha jinslar o'zga sifatida belgilanadi. Perkins Gilmaning so'zlariga ko'ra, erkaklarga xos

¹⁰⁷ <https://dictionary.cambridge.org/ru>

¹⁰⁸ <https://wikidiff.com/patriarchy/androcentrism>

hayot namunalari va erkaklarga xos tafakkur universallikni da'vo qilgan, ayollik shakllari esa og'ish deb hisoblangan. Oksford universiteti kabi ba'zi universitetlar ongli ravishda *numerus klausus*¹⁰⁹ metodini amalda qo'llashdi va ular qabul qilinadigan bakalavr ayollar sonini cheklab qo'yishdi. Doktor David Anderson va doktor Mykol Hamilton tomonidan olib borilgan tadqiqotlar 2001-yilda eng ko'p sotilgan bolalar kitoblari va *Caldecott*¹¹⁰ mukofotiga sazovor bo'lgan kitoblarning yetti yillik namunasini o'z ichiga olgan 200 ta kitob namunasida ayol qahramonlarning kam ifodalanganligini aniqladi. Erkak qahramonlar ayol qahramonlarga qaraganda deyarli ikki baravar va erkak qahramonlarning rasmlari ayollarga qaraganda 53 foizga ko'proq edi. Adabiyotlar syujet chiziqlarining aksariyati erkak qahramonlar va ularning hayotiy tajribalariga qaratilgan edi. Adabiyotlarda ko'rsatilishicha, erkaklar, ayollar, intersekslar va ikkala jinsga ham mos (non binary) bo'lmaganlarga nisbatan maskulin tilidan foydalanish jamiyatda androsentrik tarafkashlikni ko'rsatadi, bu yerda erkaklar "me'yor", ayollar, interseks va ikkala jinsga ham mos (non binary) bo'lmaganlarga "boshqa" sifatida qaralgan. So'nggi yillarda ba'zi yozuvchilar ko'proq gender-inclusive¹¹¹ tildan foydalanishni boshladilar (masalan, *they/them* olmoshlarini va *humankind, person, partner, spouse, businessperson, firefighter, chairperson and police officer* kabi gender-inclusive so'zlarni ishlatish). Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erkaklarning umumiy tili haqiqatan ham gender-inkluziv sifatida talqin qilinmaydi. Psixologik tadqiqotlarga ko'ra esa, "they" va "humankind" kabi neytral atamalar bilan solishtirganda maskulin atamalari ham tinglovchi, ham muloqot qiluvchi ongida erkaklarga xos ruhiy tasavvurga olib keladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, odamlarga nisbatan faqat gender neytral til ishlatilsada, erkaklarga xos tarafkashlik saqlanib qoladi. Feminist antropolog Sally Slocumning ta'kidlashicha, antropologik tafakkurda uzoq vaqtdan beri erkaklar tarafdori bo'lgan bu jamiyat, madaniyat va insoniyatga nisbatan qo'llaniladigan terminologiyadan dalolat beradi. Slocumning so'zlariga ko'ra, "man" (odam) so'zi juda noaniq tarzda qo'llaniladiki, u erkaklarga yoki umuman inson turlariga, shu jumladan erkaklar va

¹⁰⁹ Numerus clausus (lotin tilida "yopiq raqam") universitetda o'qishi mumkin bo'lgan talabalar sonini cheklash uchun ishlatiladigan usullardan biridir.

¹¹⁰ Randolph Caldecott Medali. Har yili o'tkaziladigan "Amerikaning bolalar uchun eng taniqli rasmiy kitobi" tanlovi.

¹¹¹ Gender inclusive tildan foydalanish muayyan jins, ijtimoiy jins yoki gender o'ziga xosligini kamsitmaydigan va gender stereotiplarini davom ettirmaydigan tarzda gapirish va yozishni anglatadi. Ba'zida gender neytral til ham deyiladi.

ayollarga tegishlimi, aniqlab bo'lmaydi. Shuningdek, internetda ko'plab avatarlar¹¹² jins jihatidan neytral tarzda tasvirlanadi (masalan, tabassum tasviri), ya'ni erkak yoki ayollik belgilari ifodalanmaydi. Biroq, avatar insoniy va aniq jinsi bo'lsa, u odatda erkak qiyofasida tasvirlanardi¹¹³.

Ginosentrizm androsentrizmga antonim termin hisoblanadi. Gynosentrizm - bu nazariya yoki amaliyotda ayollarga qaratilgan dominant yoki eksklyuziv e'tibor. Faqat ayol nuqtai nazarini hisobga olgan holda, har qanday narsa ginosentrik bo'lishi mumkin. Ginotsentrizm atamasi 1897-yilda Ochiq sudda paydo bo'lganidan beri faol qo'llaniladi, unda kontinental yevropaliklar amerikaliklarni "antropotsentrizmdan ko'ra ginosentrizmdan azob chekayotganlar" deb bilishadi. 1914-yilda yozuvchi Jorj A. Birmingem Amerika ijtimoiy hayotini "gynocentric" deb topdi. Jorjning fikricha, u ayollarning qulayligi va zavqlanishi uchun tashkil etilgan. 1970-yillarda feminizmning ikkinchi to'ldiridan boshlab, ginosentrizm atamasi feminizmni farqlash uchun ishlatilgan. Bu feminizm tengligidan farqli o'laroq, gender farqlarini tushunish va qabul qilish tomon siljishni ko'rsatdi. Feminizmga qarshi va misogyniyasi bilan mashhur bo'lgan *The Men Going Their Own Way* (MGTOW) hamjamiyati o'zlarini "ginosentrizmning noto'g'riligiga" qarshi javob sifatida tasvirlaydi. Massachusetts universiteti faylasufi Krista Xodappning so'zlariga ko'ra, ginotsentrizm o'rta asrlardagi saroy sevgi konventsiyalarining davomi sifatida tasvirlangan, bunda ayollar kvazi-aristokrat tabaqa sifatida qadrlangan, erkaklar esa quyi xizmatchi sinf sifatida ko'rilgan. Trinidad jamiyatining 2019-yilda "Justice Policy Journal" jurnalida chop etilgan tadqiqotida tadqiqotchilar "ginotsentrizm jinoiy odil sudlov tizimining barcha jabhalarini hamda jamiyatni qamrab olgan", degan xulosaga kelishdi. Dinshunoslik professorlari Pol Netanson va Ketrin K. Yangning ta'kidlashicha, tenglik yoki tenglik uchun feministik chaqiriqlar ginotsentrizm uchun hiyla-nayrangdir. Natanson va Yangning ta'kidlashicha, mafkuraviy nuqtai nazardan, ginosentrizmning asosiy e'tibori ayollarni ierarxik tarzda birinchi o'ringa qo'yishdir va buning natijasida noto'g'ri munosabat (erkaklarga nisbatan nafrat va noto'g'ri qarash) sifatida talqin qilinishi mumkin. Ular ginotsentrizmni dunyo ayollar atrofida aylanib turadi, degan yashirin yoki ochiq e'tiqodga asoslangan dunyoqarash sifatida belgilaydilar. Ular yana ta'kidlashicha, ginosentrizm essenizmning bir shaklidir - ayollar

¹¹² O'yinda, internetda va hokazolarda kompyuter foydalanuvchisini ifodalovchi kichik rasm.

¹¹³ <https://en.wikipedia.org/wiki/Androcentrism>

nomidan ilmiy yoki siyosiy faoliyatdan farqli o'laroq, u ayollarning tug'ma fazilatlariga va erkaklarning tug'ma illatlariga qaratilgan. Natanson va Yang qo'shimcha qilishlaricha, bu dunyoqarash ham aniq noto'g'ri, chunki u nafaqat erkaklarning ehtiyojlari va muammolarini e'tiborsiz qoldiradi, balki erkaklarga hujum qiladi. Nensi Freyzer kabi ba'zi post-modern feministlar barcha ginotsentrizm asosidagi barqaror "ayol" kontseptsiyasi haqidagi taxminni shubha ostiga qo'yadilar. Kristina Xoff Sommers ginosentrizmning intellektualizmga qarshi ekanligini va an'anaviy ilmiy hamda ijodiy fanlarga antagonistik nuqtai nazarga ega ekanligini ta'kidlab, ko'plab muhim kashfiyotlar va badiiy asarlarni erkaklarga xos deb hisoblamaydi. Sommers, shuningdek, ko'plab ginosentristik nazariyalarga tegishli obyektivlik prezumpsiyasi feministik nutq va talqinni bo'g'ib qo'yganligini yozadi ¹¹⁴.

Sally McConnel Ginnet Kira Hallning hind tilidagi "hijra" tushunchasiga yozgan izohini keltiradi, bunda maskulin va femininlikdan tashqari uchinchi jins ham mavjudligi haqida yozadi, ularning ya'ni Hijra jamiyatiga birlashgan interseks insonlar o'zlarini "na mard na aurat" (neither man nor woman) deb tasvirlaydi¹¹⁵. Hijraning adabiy ma'nosi esa "impotent".

Qisqa qilib aytganda, yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki jins erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik, tabiiy farq bo'lib, anatomik va fiziologik mohiyatni, ya'ni individning biologik jinsga - erkak va ayol jinsiga mansubligini aniqlash uchun asos bo'lgan biologik belgilardir. Antropologlar, psixologlar va sotsiologlar genderning biologik emas, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan belgilanishi, madaniy va tarixiy jihatdan esa nisbiy ekanligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, gender va biologik jins bir biridan ijtimoiy, madaniy, fiziologik va psixologik xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Jinsning o'zgaruvchanligi ichki sezgilar bilan bog'liq bo'lib, uning ko'p kategoriyali ekanini belgilaydi. Gender esa o'zgarmas xususiyatga ega ekanligi bilan jinsdan farqlanadi, lekin genderning ham turli madaniyatlarda turlicha namoyon bo'lishini hisobga olish kerak. Umuman, jins va gender o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lib, inson tug'ilgandagi jinsiga qarab uning gender shaxsiyati shakllanadi.

¹¹⁴ <https://en.wikipedia.org/wiki/Gynocentrism>

¹¹⁵ Corbett G. The expression of Gender. Gendering the hijra minority identity in Hindi.- P. 17-18.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Гендер муносабатлар назарияси ва амалиётига кириш. Илмий мақолалар тўплами. –Т.: Ўзбекистон, 2007.– Б.28.
2. Breton R. Dictionnaire caraïbe-français. - KARTHALA Editions, 1999. – P.303.
3. Jespersen O. Language: It's nature, development and origin. - New York, 1921. - P. 237.
4. Abduvahobova M. "Gender" mental birligining lingvokognitiv xususiyatlari.// O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 2014. №2. - B. 119-123.
5. Musayeva F . O'zbek tilida jins tushunchasining ifodalanishi. - B.15-16.
6. Hobson A. The Oxford dictionary of difficult words. - Oxford university press, 2001.- P. 188.
7. Brown K., Miller J. The Cambridge dictionary of linguistics. - Cambridge university press, 2013. - P.169-187-279.
8. J. Richard Udry .The Nature of Gender. Demography, Vol. 31, No.4, November 1994. – P.13.
9. Sahil Hira .Basic concepts : sex and gender, masculinity and femininity, patriarchy.- P.2.
10. Money J., Ehrhardt A.A. Man&Woman, Boy&Girl: the differentiation and dimorphism of gender identity from conception to maturity. – London: John Hopkins university press, 1972. – P.

3.2. Qiz bola yozma nutq harf shakllarining xususiyatlari. Qiz bola yozishmalarining leksik-semantik xususiyatlari.*¹¹⁶

Jamiyatda ijtimoiy fanlarning o'zaro bog'liqligi, fanlararo aloqalarning rivojlanishi, xususan, til va huquq fanlarining bir-birini taqozo qilishi, yuridik materiallarni til nuqtai nazaridan tadqiq qilishga ehtiyoj yangi yo'nalish-lingvistik ekspertizaning shakllanishiga olib keldi. Bu yo'nalish esa o'z navbatida grafologiya, ya'ni yozuv xususiyatlari yordamida inson shaxsini aniqlash sohasi bilan uzviylikda rivojlanib bormoqda. Grafologiyaning sud lingvistik ekspertizasidagi roli o'ta muhimdir. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va guvoh shaxsini aniqlab berish va noma'lum jinoyatchining psixologik portretini chizishda

¹¹⁶ Guljahon Hotamova. Samarqand veterinariya meditsinasi institute akademik litseyi o'qituvchisi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.(PhD)

ekspertlar, asosan, grafologiya elementlari va aniqlash usullaridan foydalanadi.

Bir qator rivojlangan davlatlarda, xususan, AQSh, Rossiya, Germaniya va Frantsiyada grafologiya boshqa fan tarmoqlari kabi jadal rivojlanmoqda. Mamlakatimizda ham sud-huquq tizimida ushbu sohadan unumli foydalanib kelinmoqda.

«Grafologiya» soʻzi yunon tilidan olingan boʻlib, “grapho” - yozuv va «logos» - oʻqitish, taʼlimot degan maʼnolarni anaglatadi. Grafologiya insonning xarakter xususiyatlarini uning yozuvi orqali tadqiq etadi. Ushbu atamani ilk bor Jan-Ippolit Mishon 1872-yilda oʻzining “Xat sirlari” asarida qoʻllagan. Shuni taʼkidlash kerakki, oʻzbek tilida “xat” atamasining bir nechta maʼnolari mavjud. Jumladan, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da xat atamasining quyidagi maʼnolari keltirib oʻtilgan:

- 1) yozuv, yozilgan, chizilgan yoki oʻyib tushirilgan belgilar;
- 2) yozuvda ishlatiladigan grafik belgilar harflar tizimi;
- 3) biror xabar berish yoki fikr almashish maqsadida aniq manzilga, asosan, pochta orqali yuboriladigan, matn yozilgan qogʻoz;
- 4) harflarni yozishdagi oʻziga xos uslub;
- 5) savod, harf tanish;
- 6) rasmiy qogʻoz, hujjat;
- 7) satr, misra .

Ammo sud ekspertizasi doirasida, V. V. Tomilin tomonidan tuzilgan quyidagi taʼrif qabul qilingan: “Yozma nutq - bu maʼlum bir shaklda tovushli nutqni aks ettiradigan va bu nutqni masofadan uzatish va uni vaqtida tuzatishga xizmat qiladigan turli xil grafik belgilar yordamida amalga oshiriladigan kishilar oʻrtasidagi aloqa vositasi” .


Grafologiya koʻplab sohalarda qoʻllaniladi:

- ☐ psixodagnostikada;
- ☐ ishga qabul qilish uchun nomzodlarni tanlashda;
- ☐ oilaviy munosabatlarda;
- ☐ sud ekspertizasida.

Sud ekspertizasida ushbu usul gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va guvohning shaxsini aniqlash uchun ishlatiladi, nomaʼlum jinoyatchining psixologik portretini chizishga yordam beradi.

Inson yozganda uning individual xususiyatlari har bir harf shaklida namoyon boʻladi, chunki tana aʼzolarini, shu jumladan, qoʻlni ham miya va markaziy nerv tizimi boshqaradi. Natijada, yozish uslubi va shakliyl belgilari genetik jihatdan aniqlangan individual shaxs turini koʻrsatishga xizmat qiladi. Yozma nutq uslubi insonning nafaqat xarakter-

xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi, balki uning gender xususiyatlarini ham to'laqonli aks ettira oladi. Inson miyasi qismlarining faoliyatiga ko'ra ham gender xoslanishining farqlari yaqqol ko'zga tashlanadi.



3.2.1-rasm. Turli jins toifalarida miya faoliyatining tasviri.

Ayollarda nutqiy vaziyatlarining hosil qilinishida miya faoliyatining rolini tadqiq etgan olimlar erkaklarnikidan farqli o'laroq har ikkala yarimsharda joylashgan maydonlarning ma'lum bir qismi javob berishini isbotlashgan. Ayollarda nutq uchun chap yarim sharning frontal qismida joylashgan maxsus maydon, miyaning o'ng yarim sharida esa biroz kichikroq maydon javob beradi. Yuqoridagi rasmdan aniq va ravshan ko'rinib turibdiki, ayollar bosh miyasining ikkala yarimsharlarida ham bir vaqtning o'zida nutq sohalari mavjudligi ayollarga erkaklarga nisbatan nutqni yaxshiroq o'zlashtirishga imkon beradi. Og'zaki va yozma nutq shakllanishi va rivojlanishini jins nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, aksariyat tadqiqotchilar ushbu sohada ayollarning ustunligini aniq daliliy faktlarga tayangan holda e'tirof etadilar. "Ayollarda nutqning eng yaxshi rivojlanishi go'daklikdan voyaga yetguncha kuzatiladi. Qizlar o'g'il bolalarga qaraganda erta gapirishni boshlaydilar, ularning so'z boyligi, ayniqsa, maktab yoshigacha bo'lgan davrda o'sishi kuzatiladi. Maktab yoshiga yetgach, nisbatan uzunroq va mukammalroq jumladan

foydalanadilar, tovushlarni to'g'ri talaffuz qila boshlaydilar va kamroq duduqlanishadi" .

Insonning psixologik portretini chizish uchun grafologlar uch asosiy yo'nalishdan foydalanadilar:

- umumiy fiziologik (qoida tariqasida, psixologik holat o'zgarishi bilan namoyon bo'ladi: hayajonlanish, charchoq, uyquchanlik) ;
- anatomik (qo'lning tuzilish xususiyatlari, o'naqay va chapaqayligi, ko'rish) ;
- psixologik (asab tizimining holatini o'rganish) .

"Aqliy xususiyatlarga temperament, fe'l-atvor va qobiliyat kiradi va bu shaxsning individual xususiyatlarida yetakchi o'rinni egallaydi, chunki ular inson xarakterini to'liq ochib berishga xizmat qiladi va butun hayoti davomida barqaror bo'ladi" .

"Grafologik tadqiqotlar davomida yozma nutqning quyidagi xususiyatlari aniqlanadi: yozma matnda harflarning kattaligi, harflarning qiyaligi, yozuv izchilligi, tezligi (harflar orasidagi masofa), murakkabligi (soddalashtirilgan, ya'ni yozma belgilarning alohida elementlarini yo'qotish; murakkab, ya'ni qo'shimcha elementlarning yozma belgilarida mavjudligi), bosim kuchi. Bundan tashqari, yozuv harakatining yo'nalishi, harakatlarning nisbati, harakatlarning lokalizatsiyasi (harakat qaerdan boshlanib, qaerda tugashi, bosim kuchi va harakat tezligi), so'zlarning chastotasi, bo'shliqning mavjudligi va yozuvning boshqa xususiyatlari aniqlanadi" .

Tadqiq etilayotgan hujjat jinoiy ishni ochish uchun muhim vosita, ya'ni jinoyat sodir etilgan ob'ekt haqida ma'lumot berishi kerak (masalan, tuhmat mazmunidagi yozuv yoki terroristik harakatni sodir etganligi to'g'risida yolg'on xabar berilgan anonim yozuv); jinoiy hujumlar bilan bog'liq bo'lgan narsalar (masalan, muhim moliyaviy hujjatlar); jinoyatni ochish va jinoiy ishning holatini aniqlash uchun vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan boshqa hujjatlar (masalan, buxgalteriya hujjatlari yordamida davlat byudjetiga soliqlarni to'lamaganlik faktlari). Grafologik ekspertiza natijalari esa jinoiy ishni ochib berishda va jinoyatchining shaxsiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, yozuv orqali "shaxsning rivojlanish darajasi, uning madaniyati, ba'zi bir kasbiy mahorat, moyillik, irodaviy fazilatlar, hissiy ta'sirchanligi, ba'zan hatto ijodkorlik, shuningdek, ruhiy me'yordan chetga chiqishi ham aniqlanadi. Ular qonunga bo'ysunuvchi fuqarolar va jinoyatchilarning qo'l yozuvlarini

taqqoslashni shaxsning jinoiy yo‘nalishini aniqlashda asosiy vosita deb bilishi bejizga emas” .

XIX asr nemis tadqiqotchisi I. H. Groman esa qo‘lyozma matnlari orqali “bo‘yni, yoshni, ovozni, ko‘z va sochlarning rangini va hattoki yonoqlarning qizarishini ham aniqlash mumkin” degan fikrni ilgari surdi .

Zamonaviy tilshunoslikda erishilgan yutuqlarga qaramay, biz ushbu sohada yetarli ishlar amalga oshirilgan deya olmaymiz. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, qo‘lyozma matnlari bilan har xil deviant xulq-atvorni aniqlash mumkin, unga rus tadqiqotchisi V. N. Obraztsov: “Qotillarning qo‘lyozmasi bosim zarbining kuchliligi bilan ieroglif yozuviga o‘xshash bo‘lishi mumkin. U qat’iylilik, ishonchni kuchaytirganda, hayajon va yozish tezligini egallaydi, chiziqlar uzunlikka yopishadi, so‘zlar qo‘shilmaydi. Harflar kerak bo‘lgandan ancha kattaroq, ba’zan keraksiz darajada ulkan hajmga ega bo‘ladi. Chiziqlar yo‘nalishi bir tartibda bo‘lmaydi” deb ta’kidlaydi.

Grafologik ekspertizada qo‘lyozma matnning shaxsini aniqlashda dastlab yozuvning topografik xususiyatlariga urg‘u beriladi. Tadqiqot davomida qo‘lyozmaning quyidagi topografik jihatlariga e’tibor qaratiladi:

- yozuv dinamikasi (yozuv ravon yozilganmi, ko‘tarilish, pasayish kuzatiladimi, qabariqlik) ;
- satr hajmi va so‘zlar oralig‘i;
- tinish belgilarining qo‘llanishi va joylashuvi;
- harf elementlarining qo‘llanilishi;
- harflar o‘lchami (katta, o‘rta, kichik va o‘ta kichik shrift yozilganligi);
- nishab (o‘ng tomonga og‘gan, chap tomonga og‘gan, vertikal) ;
- bosim kuchi (kuchli, yengil, o‘rtacha) ;
- harflar orasidagi bo‘shliqlar;
- harflarning bir-biriga mutanosibligi;
- yozuv tezligi;
- so‘zlarning chastotasi.

Yuqorida sanab o‘tilgan belgilarning har biri grafologik eksperizada yozuv muallifini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, yozma nutq nafaqat gender nuqtai nazaridan, balki yosh jihatidan ham o‘zaro farqlanishlarga ega. Mana shu farqlanishlarga tayangan holda noma’lum xat ijrochisi va asosiy muallif haqida aniq bir xulosa chiqarish imkoni yaratiladi.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, yozuv shakllari yosh xususiyatiga bog'liq holda o'zgarib boradi, ya'ni qo'l yozuvi erta bolalikdan shakllanadi: boshlang'ich sinflarda bola yozish qobiliyatini o'rganadi, 13-14 yoshga kelib, qo'l yozuvi har bir shaxsning xarakter xususiyatini namoyon etadigan individual belgilarga ega bo'ladi va 18-20 yoshga kelib esa u butunlay shakllanadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning yozish mahoratini o'stirish, harflarni asliga muvofiq holda shakllantirishga va husnixatga alohida e'tibor qaratiladi. Yozuvda harf shakllarining o'zgarishi yosh nuqtai nazaridan o'zgarib, shakllanib boradi va bu holat shaxs psixologiyasi va fiziologiyasi bilan bog'liq holda yuzaga chiqadi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga tayangan holda maktab yoshidagi qiz bolalar (7-14 yosh) yozma nutqi harf shakllarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsadida kichik eksperimental tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqot uchun 2-sinfdan 6-sinfgacha bo'lgan maktab yoshidagi qiz bolalarga "Onamga maktub" mavzusida matn yaratish vazifasi topshirildi va yaratilgan matnlarni grafologik tahlil qilish va taqqoslash orqali qiz bola harf shakllaridagi yosh jihatiga bog'liq holda ro'y beradigan o'zgarish va farqli jihatlari aniqlandi. Tadqiqotga jalb qilingan 50 nafar respondent tomonidan yaratilgan matnlar grafologik nuqtai nazaridan tahlil qilindi, maktab yoshidagi qizlarning yozuv xususiyatlaridagi o'ziga xosliklar aniqlandi. O'tkazilgan tadqiqot natijasi o'laroq, qizlarning yozma nutqida, asosan, quyidagi topografik belgilar aniqlandi:

- ☐ harf shakllari: yumaloq holda shakllantirilgan (34 nafar), burchakli shakllar esa nisbatan kamroq uchraydi (16 nafar) ;

- ☐ nishab: o'ng tomonga yo'naltirilgan (33 nafar), chap tomonga (11 nafar), vertikal (4 nafar), nishab goh o'ng, goh chapga yo'naltirilgan (2 nafar) ;

- ☐ bosim kuchi: o'rtacha bosim (26 nafar), kuchli (14 nafar), yengil (10 nafar) ;

- ☐ yo'nalish sifati: ravon va silliq (37 nafar), bir tekisda emas (13 nafar) ;

- ☐ bo'shliq: satr boshida (4nafar), so'zlar oralig'ida (11 nafar), satr so'nggida (6 nafar), bo'shliq mavjud emas (29 nafar) ;

- ☐ boshlang'ich zarbalar: bo'rttirilgan (18 nafar), qisqa zarba (32 nafar)

.

7-14 yoshli qizlar harf shakllarining topografik belgilar jadvali

1-jadval

T/r	Topografik belgilar	Respondentlar soni (nafar)	Foizda %
1.	Yumaloq holda shakllantirilgan matnlar	34 nafar	64%
2.	Burchaksimon shakllantirilgan matnlar	16 nafar	36%
3.	Nishab o'ng tomonga yo'naltirilgan matnlar	33nafar	72%
4.	Nishab chap tomonga yo'naltirilgan matnlar	11 nafar	8%
5.	O'rtacha bosimda yozilgan matnlar	26 nafar	60%
6.	Kuchli bosimda yozilgan matnlar	14 nafar	24%
7.	Engil bosimda yozilgan matnlar	10 nafar	16%
8.	Silliq va ravon yozuvli matnlar	37 nafar	48%
9.	Notekis yozilgan matnlar	13 nafar	52%
10.	Satr boshida bo'shliqning mavjudligi	4 nafar	4%
11.	So'zlar oralig'idagi bo'shliq	11 nafar	36%
12.	Satr oxirida	6 nafar	12%
13.	Bo'shliq mavjud emas	29 nafar	48%
14.	Bo'rttirilgan zarbalar	18 nafar	32%
15.	Qisqa zarbalar	32 nafar	68%

Dastlabki matnning tahliliy natijalari shuni ko'rsatadiki, 7-14 yoshdagi qizlarning 64 % i harf shakllarini dumaloq shaklda yozishni ma'qul ko'radi va harflarning yumaloq shaklda yozilishi dominant belgi sanaladi.

1-diagramma

Shuningdek, o'qishda ham katta farqlar kuzatiladi: qizlar o'z tengdoshlari bo'lgan o'g'il bolalarga nisbatan ilgariroq o'qishni boshlaydilar, o'qiy olmaydigan bolalar orasida o'g'il bolalar turli tadqiqotlarda 60-100 foizni tashkil qiladi. Bundan tashqari, qizlarning o'qish ravonligi ham sezilarli darajada yuqori. E. M. Bakushevaning ta'kidlashicha:

“ 9-11 yoshli qizlar, o'g'il bolalardan farqli o'laroq yozma nutqda qo'pol grammatik xatolarga yo'l qo'ymaydi;

-ularning nutqida “qat'iyatsizlik va nutqiy g'alizlik” deyarli uchramaydi;

-ularning talaffuzi yanada harakatchan, ular harf shakllarini osonroq va mukammalroq o'zlashtirishadi;

-ular mustaqil ravishda suhbatning yangi mavzusini topadilar va uni osonlikcha rivojlantiradilar” .

Anonim xatlarning asl muallifi o'zini "anonimlik» niqobidan tashqari, o'zga shaxs ortiga berkitadi. Bunday holatda ekspert oldida jiddiy muammo paydo bo'ladi. Endilikda, yozuv va lingvistik belgilarga ko'ra asl muallif va yozuv egasini aniqlash zarurati paydo bo'ladi.

E.I. Galyashina nutqni tayyorlik darajasiga ko'ra quyidagi turlarga ajratgan: oldindan tayyorlanmagan (tabiiy) nutq va oldindan tayyorlangan (kvazi-spontan) nutq . Nutqning ushbu xususiyatlarni aniqlash uchun ekspert tadqiqot ob'ekti hisoblangan muallifning tahlilga tortilgan matnining nusxasi bilan o'rganilayotgan matn muallifi sifatida taxmin qilinayotgan shaxsdan olingan diktant matnlarini qiyoslash-chog'ishtirish metodi asosida o'zaro taqqoslaydi va tahlil natijalariga ko'ra matnlarning tabiiy yoki o'zgartirilgan (spontan) nutq ekanligini aniqlash imkoniga ega bo'ladi. Tahlil davomida ekspert yozma nutqning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratadi:

– yozma nutq shaxsiga xos identifikatsion belgilar o'xshashligining mavjudligi;

– harf elementlarining o'xshash va farqli jihatlar;

– so'zlar orasidagi bo'shliqlarning mavjudligi;

– noadabiy qatlamga mansub leksik vositalarning qo'llanilish darajasi;

– sintaktik qurilmalarning yaratishdagi shablonning bir xilligi;

– orfografik, stilistik va punktuatsion xatolarning takrorlanishi.

Tabiiy va spontan nutqni aniqlashda matn muallifining bilim darajasi va saviyasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Spontan nutq muallifining bilim darajasi qanchalik baland bo'lsa, o'zgartirilgan matn muallifini aniqlash ekspertga shunchalik qiyinchilik tug'diradi.

"Spontanlik - tayyorlik jihatidan yozma matnlarni o'rganish metodikasi ilmiy adabiyotlarda matn lingvistikasi, nutq lingvistikasi, psixolingvistika, ekspertologiya bo'yicha ishlab chiqilgan qoidalarga ko'ra belgilanadi:

a) o'zgartirilgan nutqning minimal darajasi mavjudligi oldindan belgilab beriladi;

b) agar matnni tabiiy nutq sifatida tasniflashning iloji bo'lmasa (identifikatsion belgilar yetarli bo'lmasa) ataylab o'zgartirilgan matn sifatida qarash va tahlil qilish to'g'risida qaror qabul qilinadi;

v) o'rganilayotgan matnda spontan yozma nutq alomatlari bo'lmagan taqdirda matn muallifini aniqlashga doir lingvistik-ekspertologik tahlilga tortilishi va aniqlanishi mumkin".

O'rganishlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, "tabiiy nutq shaklidan ko'ra spontan nutq shakli ustunlik qiladi, u tayyorlangan nutq

bilan taqqoslaganda asosan, dominant hisoblanadi". Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan vaziyatlarda nutq vaziyatiga tayyorlik alomatlari, shaxsning kommunikativ xatti-harakatlarining muhim jihatlarini ochib berishi, yozish jarayonida shaxs psixikasining qay holatda ekanligi (hissiy taranglik, chalkashlik, qo'rquv holati mavjud yoki mavjud emasligi)ni farqlash ekspertdan alohida yondashuvni talab etadi. Bunday hollarda malakali ekspertlar murakkab kommunikativ taktikalar (kod tilidan foydalanish, allegorik nutq, ma'lumotni yashirish, xayol qilish)dan unumli foydalanish orqali matn avtorizatsiyasini aniqlash imkoniga ega bo'ladilar.

Yozma nutq muallifi va ijrochisini aniqlashdagi yana bir muhim xususiyat- muallifning yozma nuq yaratish jarayonidagi o'rni, ya'ni matn yaratish jarayonida muallifning lingvistik vositalar va nutq texnikasidan foydalangan holda boshqa lingvistik shaxsning xususiyatlarini, shuningdek, lingvistik ekspertiza obyektiga aylangan matnni tuzishda boshqa shaxslarning (muallifdan tashqari) ishtirokini yashirishi bu uning matn yaratish jarayonidagi mustaqilligining qay darajada ekanligini belgilab beradi. Rus tilshunos olimi L. V. Bondarko yozma matnda muallif pozitsiyasining quyidagi turlarini ajratgan:

“- muallifning mustaqil pozitsiyasi - u o'rganilayotgan matnni haqiqatan ham yaratgan yagona ijrochi; matnda muallif va matnni tuzuvchi pozitsiyalarini ajratish mavjud emas; muallifning pozitsiyasi ochiq (uning ismi matnda muallifning ismi sifatida ko'rsatilgan);

b) muallifning mustaqil bo'lmagan pozitsiyasi - o'zini yaratuvchi sifatida e'lon qilmaydigan, lekin ma'lum bir vaziyatda optimal nutqiy matnni shakllantirishga hissa qo'shadigan matn yaratishda boshqa shaxsning ishtirok etishiga imkon beradigan pozitsiya; yozuvchilarning asosiy harakatlari - bu mualliflarning matndagi o'zini o'zi taqdim etishi, muallifning xususiyatlarini o'ziniki bilan aralashtirish (masalan, diktant matnini qisman yozib olish; ilgari kimdir tomonidan tuzgan nutqni yozib olish; muallif matnini tahrirlash);

v) muallifning taqlid qilingan pozitsiyasi - muallif bo'lmagan, lekin muallifga o'xshagan shaxs tomonidan matn tuzilishini qoliplaydigan pozitsiya (uning muallifligini ko'rsatgan holda boshqa shaxs nomidan yozilgan, ya'ni stilize qilingan matnlar)".

"Lingvistik ekspertizada matn yaratishdagi muallifning o'rni(pozitsiyasi)- yozma matnning tayyor holda mavjudligi, mustaqil yoki mustaqil emasligini belgilash tergov harakatlari jarayonida yoki sud

amaliyotida yuzaga keladigan lingvistik eksperizaga oid bo'lmagan quyidagi muammolarni hal qilishga imkon beradi:

- ishda ishtirok etayotgan shaxslarning ko'rsatmalar berishdan bosh tortishi;

- rasmiy mualliflik matnini tayyorlashga huquqni muhofaza qilish organlari vakillarining aralashuvi ;

- matn yaratish vaqtida muallifning matn tuzishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan maxsus psixologik holatlarining mavjudligi;

- muallif sifatida ko'rsatilgan shaxs nomidan matnlarni yozish va h.k" . Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, jahonda tahdid, o'z joniga qasd qilish holatlari bilan bog'liq anonim matnlar, asosan, kichik va o'smir yoshdagi o'g'il-qizlar tomonidan yoziladi. Aniqroq aytganda, bosim va ta'sir ostida ularga yozdirtiriladi.

- Yozuvning topografik xususiyati matn muallifining identifikatsiyasini aniqlashga yordam bersa, nutq strukturasi, lug'atlardan unumli foydalanish koeffitsienti, matn tuzishda sintaktik qurilmalarning joylashuvi haqiqiy muallif haqida ma'lumot olish va uning shaxsiyatiga oid taxminiy "portret"ini yaratishga yordam beradi. Shu boisdan qiz bolalar yozuv shakli, leksik xususiyati va grammatik jihatini o'rganish va tahlil etish lingvistik ekspertiza uchun muhim yordamchi vositalardan sanaladi . Tahlillar shuni ko'rsatadiki:

- qiz bolalar yozuvida harakat elementlarining qat'iy ketma-ketlikda to'liq bajarilishi boshqa yosh guruhlaridan farqlovchi jihat sanaladi. Qiz bolalarning 64 % i harf shakllarini dumaloq shaklda yozishni ma'qul ko'radi va harflarning yumaloq shaklda yozilishi dominant belgi sanaladi. Yumaloq shakldan foydalanish unli harflardan a, o, o, e harflarini shakllantirishda, undosh harflardan b, d, g, h, g, p, m harflarida kuzatiladi;

- harf elementlarining kamayish holati va ularni o'zgartirib qo'llash holatlari deyarli kuzatilmaydi;

- qiz bolalar yozuvida nishablik asosan o'ng tomonga yo'naltirilgan holda (72%) bajariladi va bu elementlarning to'liq bajarilishi, bosimning yuqori ekanligi va zarbalarning tezligi ko'proq ko'zga tashlanadi;

- qiz bolalar yozuvi silliq va qat'iy bir tarafga yo'nalmaydi. Ularda harakat liniyasining o'zgaruvchanligi, titroqlarning ko'pligi ham asosiy xususiyatlardan sanaladi;

- lingvistik ekspertizada qiz bolalar yozuvini tahlil qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Olingan natijalar matn avtorizatsiyasini ochib berishga xizmat qiladi.

Insoniyat o'zining evolyutsion tarixiy taraqqiyoti davomida o'zaro aloqa almashinuv vositasi sifatida og'zaki va yozma nutqdan maqsadli ravishda foydalanib kelmoqda. Nutq - bu ma'lum qoidalarga muvofiq shakllangan lingvistik tuzilmalar yordamida odamlar o'rtasidagi tarixiy ravishda o'rnatilgan aloqa turi. Nutq faoliyati kontseptsiyasi, bir tomondan, lisoniy vositalar yordamida fikrlarni shakllantirish va boshqa tomondan lisoniy tuzilmalarni idrok etish va tushunishni o'z ichiga olgan o'zaro bog'liq harakatlardan iborat jarayonni tavsiflaydi.

“Yozma nutq savodxonlik mahoratini shakllantirish bilan bir qatorda fikrini mantiqiy ketma-ketlikda ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi va fikrning lisoniy tuzilishini adabiy me'yorlar asosida ifodalashga xizmat qiladi”. Shu bilan bir qatorda, yozma nutq orqali inson shaxsiyatiga doir qator daliliy ma'lumotlarni ham aniqlash imkoni mavjudligi haqida tadqiqotimiz avvalida to'xtalib o'tgan edik. Yozma nutq orqali anonim xat muallifini aniqlashning bir necha usullari mavjud. Lingvistik kriminalistikada anonim xatlarning muallifini aniqlashda rus tilshunos olimi G.D.Markova tomonidan yozma nutq belgilarini aniqlashning maxsus ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan. Uning fikriga ko'ra, “Yozma nutq belgilari matnda qo'llangan lug'at boyligi, grammatik qurilish, uslubiy xoslanishlarda va fikrni yozma ravishda ifodalash jarayonida namoyon bo'ladigan xususiyatlar tushuniladi”. A.Vinbergning fikriga ko'ra, “yozma nutqning identifikatsiya qilish belgilari shaxsning nutqiy mahoratini aks ettiradi, shuningdek, yozuvning semantik tomonini ifodalaydi. Identifikatsion belgilarning 2 turi: umumiy va xususiy turlari mavjud” .

E.U.Babayevaning ta'kidlashicha: “Yozma nutq belgilari nutq xususiyatlari va xususiyatlar to'plamini aks ettiradi. Yozma nutq xususiyatlari, xususiyatlar to'plami va matn yaratish qobiliyati, bilim darajasi va o'z fikrini aniq ma'lumotlar asosida ifodalash orqali namoyon bo'ladi” .

Nutqqa xos umumiy xususiyatlar insonning til bilish darajasini to'laqonli holda aks ettiradi va qo'lyozma mualliflarini ulardagi belgilangan darajaga ko'ra farqlash imkonini beradi. Umumiy xususiyatlar asosida tadqiqotchi qo'lyozmani ob'ektlarning belgilangan guruhi va turiga ko'ra tasniflashi mumkin. Masalan, leksik-semantik, uslubiy va grammatik ko'nikmalarning rivojlanish darajasi kabi belgilar shaxsning yozma nutq ravonligini aniqlash imkonini beradi. “Mualliflik profilini aniqlashda yozma nutqning ravonligiga ko'ra uch darajasi: yuqori, o'rta va quyi darajalari farqlanadi. Yozma nutq darajasini

aniqlashda, asosan, nutqning adabiy til me'yorlariga qay darajada muvofiqligi inobatga olinadi".

Yozma nutq ko'nikmalariga ega bo'lishning yuqori darajasi fikrlarni bayon qilishning mantiqiy ketma-ketligi, savodxonlik darajasi, badiiy-tasvir vositalaridan unumli foydalanish, mantiqiy fikrlash, chuqur ilmiy xulosalar, ilgari surilgan g'oyalarni dalillar orqali asoslash, eruditsiya va yuqori so'z boyligiga qarab aniqlanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, yozma nutqni yuqori darajada ifodalaydigan shaxslar, odatda, o'z fikrlarini adabiy, rasmiy yoki ilmiy uslubda ifoda etadilar. Fikrlarni taqdim etish uslubi tabiiy ravishda xatning maqsadiga bog'liq. Yozma nutq ko'nikmasining o'rta darajasida stilistik va leksik ko'nikmalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, asosiy g'oyani taqdim etishda qat'iy ketma-ketlik va izchillikning yo'qligi bilan tavsiflanadi. Matn muallifida fikrlarni adabiy va ilmiy tilda taqdim etish imkoniyati mavjud bo'gani holda til vositalaridan unumli foydalana olmaydi. Ularning nutqida, asosan, umumiste'moldagi so'zlar va hududiy xoslangan dialektizm unsurlarini uchratish mumkin.

Past darajadagi yozma matnlarda asosiy g'oyani to'liq ochib bera olmaslik, ilgari surilgan qoidalar dalillarining yetishmasligi va taqdimotda izchillikning yetishmasligi kabi kamchiliklar bilan tavsiflanadi. Bunday matnlarda lug'at boyligi juda kam, matnda ko'pincha bir xil so'zlardan foydalaniladi.

Yuqorida sanab o'tilgan belgilarga asoslanib, yozma nutq ravonligi va muallif shaxsini aniqlashda jahon lingvistik ekspertologiyasida keng qo'llanadigan quyidagi tahlil usullarini sanab o'tishimiz mumkin:

- leksik tahlil;
- morfologik tahlil;
- semantik tahlil;
- sintaktik tahlil;
- grammatik tahlil;
- uslubiy tahlil .

Leksik xususiyatlar tahlilida muallif atributlarini aniqlashda eng muhim indikator sifatida adabiy normadan chekinish holatlarini ko'rsatish mumkin. "Hatto yuqori sinf o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalaridan tortib, ilmiy darajali va unvonli kishilarning nutqlari ham ta'sirsiz, g'aliz bo'lib qoldi. Ularning nutqida izchillik yetishmaydi, xorijiy so'zlar noo'rin ishlatiladi". "Tilning, nutqning normaga, qolipga solingani aniq. Ammo mana shu normalarni belgilash, ularning to'g'riligi, maqbulligini aniqlash, baholash oson ish emas. Chunki

hozirga qadar tillarning, jumladan, o'zbek tilining normalari, maqsadga muvofiqligi, har bir nutqiy holat, vaziyat, nutqiy uslub talablari nuqtai nazardan qanchalik mos hamda nufuzli ekanligi yetarli ravishda o'rganilgan emas. Bu masalani o'rganish, o'z navbatida, til normasi nazariyasi, lisoniy norma haqidagi ta'limot bilan bog'lanadi. Bunday ta'limot mavjud. Ammo hozirga qadar til normasi tushunchasi, uni tushunish, talqin qilish, konkret normani belgilash va baholashning ko'pgina tomonlari ilmiy jihatdan munozarali yoki noaniqdir. Shu jihatdan normani, jumladan, adabiy norma haqida hozirgi davr tilshunosligida mavjud bo'lgan fikrlarni tahlil qilish va ma'lum xulosalar chiqarish o'zbek tilshunosligining lisoniy norma nazariyasini rivojlantirishga xizmat qilishi shubhasiz".

Yozma matnning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash uchun, avvalo, matn muallifining lug'atlardan foydalanish, frazeologizmlar, hissiy-ta'siriy vositalar, ya'ni obrazli iboralarni va uslubiy figuralarni o'z o'rnida qo'llay bilish darajasini aniqlashimiz lozim bo'ladi. Shuningdek, leksik xususiyatlarni aniqlashda tarixiy va arxaik so'zlar, kasb-hunarga oid so'zlar (professionalizm), jargon, argo, evfemizm, vulgarizm, varvarizm, dialektizm, neologizmlardan unumli foydalanish darajasi e'tiborga olinadi. Matnda qo'llanilgan so'zlar faqat tadqiq etilayotgan matn ijrochisiga xos individual xususiyatlarni ochib berishga xizmat qiladi. Katta hajmdagi materiallarni tahlil qilishda har doim yozma nutq belgilarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan boshlash lozim bo'ladi. Bunday matnlarda muallifga xos shaxsiyatning mavjudligini aniqlashda matnning kommunikativ-pragmatik darajasiga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu tadqiqot usuli ataylab o'zgartirilgan qo'lyozmalar ijrochisini aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Yozma nutq belgilarini o'rganish lingvistik ekspertiza jarayonida yechilishi qiyin bo'lgan noaniq masalalarni hal qilishga yordam beradi:

- ☐ matn muallifining jismoniy va ruhiy holatini aniqlash;
- ☐ gender xususiyatlariga ko'ra farqlash;
- ☐ matn muallifining yoshini aniqlash.

Rus tilshunos olimi O. Issers kommunikativ-pragmatik darajani aniqlash uchun maxsus leksik parametrlar mavjudligini ta'kidlagan. Uning fikricha, matnni lug'aviy tahlil qilish orqali ham muallif shaxsiyatini aniqlash mumkin bo'ladi.

Issers tomonidan ishlab chiqilgan leksik parametrlar quyidagilar:

“ 1) “yadro” deb nomlangan va tilning leksik tarkibining “periferiyasi” (qo'llanilish doirasi chegaralangan so'zlar: sotsial chegralangan so'zlar

(jargon), hududiy chegaralangan soʻzlar (dialektizmlar), davriy chegaralangan soʻzlar (arxaizmlar), atamalar;

2) oʻzlashgan qatlamdagi soʻzlar (varvarizm)dan foydalanish;

3) uslubiy xoslangan soʻzlardan foydalanish;

4) lingvistik ijodkorlik (nutqda til oʻyini va soʻz yaratish qobiliyati) ;

5) nutqning metaforizatsiya darajasi (troplardan, badiiy-tasvir vositalaridan foydalanish chastotasi) ;

6) frazeologizmlardan foydalanish darajasi (frazeologik birliklardan foydalanish chastotasi) ;

7) baholovchi soʻz boyligidan foydalanish va ushbu baholash xususiyati (ratsionalistik, ijtimoiy, hissiy-taʼsiri, sublimatsiya qilingan, axloqiy va estetik);

8) noadabiy qatlamga mansub soʻzlardan foydalanish va ularning qoʻllanish oʻrni (varvarizm, vulgarizm, evfemizmlardan foydalanish) ;

9) emotsionallik va ekspressivlik darajasi (nutq, soʻz boyligi, sintaktik tuzilmalar va hissiy holatlarni ifodalash usullari) ;

10) leksik imtiyozlar, soʻzlardan foydalanish (foydalanish chastotasi va nutq qismlari) ;

11) xushmuomalalik shakllaridan foydalanish chastotasi;

12) xatolarning umumiy soni;

13) nutqning izchilligi;

14) tinish belgilarining qoʻllanish darajasi" .

Matn muallifining bilim darajasi, madaniy darajasi, yozish amaliyoti, atrof-muhit taʼsiriga qarab rivojlanadigan yozma nutqning ancha individual va barqaror belgilariga eʼtibor qaratish lozim. Bunday belgilar: soʻz boyligi, fikrlarni ifodalashning oʻziga xos uslubi, lingvistik vositalardan foydalanishning oʻziga xosligida aks etadi.

Shaxslarda ushbu xususiyatlarning saqlanib qolishi nisbiy boʻladi. Shaxsning shakllanishi va rivojlanishi bilan subʼektiv va obʼektiv xarakterdagi koʻplab omillar taʼsiri natijasida odamning yozma nutqi sezilarli oʻzgarishlarga uchraydi. Ushbu oʻzgarishlar yosh xususiyati bilan bogʻliq holda savodxonlikning umumiy darajasining oshishi, soʻz boyligining ortib borishi va sintaktik qurilmalarning murakkablashuv jarayonida namoyon boʻladi, yosh oʻtgan sayin esa tanadagi biologik va psixofiziologik oʻzgarishlar natijasida yozma nutqda gap tuzilishining birmuncha soddalashishi, matnning semantik va lingvistik tuzilishida adabiy til normalaridan chekinish holatlarini kuzatishimiz mumkin.

Jahon tilshunosligida, xususan, rus tilshunosligida ham anonim matn muallifining yoshini aniqlashga bagʻishlangan tadqiqotlar yetarli emas.

Ushbu mavzu bo'yicha yaratilgan ilmiy tadqiqotlardan biri ingliz olimi Pennebeker o'zining "Olmoshlarning sirli hayoti: So'zlarimiz biz haqda nelarni so'zlar" nomli asarida lingvistik xususiyatlarning yosh jihatidan farqlanishi va ular o'rtasidagi bog'liqlikni yoritishga harakat qiladi. Yosh oshgani sayin kishilar ijobiy ma'noga ega so'zlardan ko'proq, salbiy ma'noga ega so'zlardan esa kamroq foydalanishlarini ta'kidlaydi.

Yuqorida sanab o'tilgan yozma nutq belgilari o'rganilayotgan hujjat muallifini aniqlash uchun ma'lum identifikatsion qiymatiga ega, chunki ular o'ziga xos barqarorlikka ega bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlari, masalan, shaxslarning ayrim so'z va jummalarni kontsentratsiyalash qobiliyati, maxsus belgilar, qisqartmalar, tuzatishlar, qo'shimchalar, tahrirlardan foydalanish qobiliyati muallifni aniqlash uchun identifikatsion qiymatga ega bo'ladi. Mazkur identifikatsion belgilarni ataylab o'zgartirish juda qiyin, chunki bu dinamik stereotipni, ya'ni inson hayoti va faoliyati davomida shakllangan ko'nikmalarni ongli ravishda o'zgartirishga olib keladi. Rus tilshunosi, ekspertolog Orlovaning fikriga ko'ra, "Yozma matn leksik birliklarning qo'llanilish darajasiga ko'ra 2 guruhga: boy leksika va qashshoq leksikaga ajratiladi. Lug'at boyligining qashshoqlashuviga bir xil so'zlardan takroran foydalanish, so'zlarni noo'rin qo'llash va iboralarning noaniq tuzilishi kabi xususiyatlar ta'sir qiladi. Boy leksika leksik sinonimlar, frazeologik birliklar va tilning lug'at boyligidan erkin foydalana bilish qobiliyati matn muallifining bilim saviyasining yuqoriligidan dalolat beradi. Ushbu identifikatsion belgilarining qiymati shaxsga xos individual xususiyatlarni ochib berishi mumkin".

E. Burtseva kishilar nutqida ko'p uchraydigan, ularning shaxsiyatini ochib beradigan identifikatsion birliklar sifatida quyidagilarni sanab o'tadi:

- 1) neologizmlar – fan-texnika yutuqlari va boshqa sohalarga kirib kelgan yangi so'zlar;
- 2) arxaizmlar - zamonaviy faol adabiy foydalanish natijasida paydo bo'lgan eskirgan so'zlar;
- 3) istorizmlar- tarixiy, bugungi kunda mavjud bo'lmagan tushunchalar, hodisalar, narsalarni nomlovchi so'zlar;
- 4) jargonlar – jamiyatdagi ma'lum bir tabaqa vakillari tomonidan qo'llanadigan noadabiy qatlamga mansub so'zlar;
- 5) professionalizm – ilmiy va kasbiy atamalar;
- 6) dialektizmlar - ma'lum bir hudud aholisi uchun xos bo'lgan yoki ushbu mintaqa shevasidan olingan so'zlar;

7) vulgarizmlar -tilda mavjud noadabiy qatlamga mansub, qo‘pol so‘z va iboralar;

8) varvarizmlar -boshqa tillaridan o‘zlashtirilgan noo‘rin qo‘llanadigan so‘zlar va iboralar;

9) idiomalar - boshqa tilga so‘zma-so‘z tarjimasi bo‘lmagan har qanday tilga xos bo‘lgan nutqning o‘ziga xos burilishlari;

10) frazeologizmlar- ma’no jihatidan bir xil narsani anglatadigan so‘zlarning barqaror birikmalari to‘plamidir. "Frazeologik iboralarning tabiati ularning tarqalishi, milliy rang-barangligi, arxaizm jihatidan baholanadi, bu muallifning yoshi, ma’lumot darajasi va tarbiyalash sharoitlari, millati, kasbi, bilimligini aniqlashga imkon beradi” .

V. Milomning ta’kidlashicha, “Nutqdagi adabiy me’yorga zid shakllarni aniqlash uchun, dastlab, har bir so‘zning ma’nosi kontekstual tahlil qilish, keyin esa har bir so‘z matndan ajratib olingan holda, turli lingvistik jihatlarini nazarga tutgan holda tahlil qilinishi kerak” .

Tadqiqot davomida qiz bola yozma nutqining leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash maqsadida 50 nafar 7-14 yosh(1-6-sinf)dagi qizlarga yomon ko‘rgan insoniga xat yozish va eng yaqin dugonasiga xat yozish vazifasi topshirildi. Natijada, treningda ishtirok etgan 50 nafar respondentdan 24 nafari yomon ko‘rgan insoni yo‘qligini ta’kidlagan va ushbu respondentlar tomonidan yaratilgan matnlarda noadabiy qatlamga mansub so‘zlardan qisman dialektizm unsurlari uchrashining guvohi bo‘ldik. Sizni juda hurmat qilaman, ayam va enamdan keyingi navbatta sizni yaxshi ko‘raman (8yosh).

Siz minan hangama qilsam mazza qilaman(10 yosh).

Siz meni yosh bachcha dib o‘ylap doyim ustimnan kulas.(9 yosh)

Ishtirokchilarning 26 nafari tomonidan yaratilgan matnlarda esa vulgarizm, varvarizm, dialektizm unsurlari uchradi.

Ye o‘l shiqshaymay, maraz yamon ko‘raman sani(13 yosh).

Zato ustoz sendan ko‘ra meni yaxshi ko‘radila(11yosh).

Gaplashmasang gaplashma, sen cho‘chqani butun dunyodagi narsalardanam yamon ko‘raman. E o‘le qiz bo‘lmay, og‘zingni kalishday ochip kulishingga o‘laymi(14yosh).

San bo‘masangam yaxshi yashayolaman,keraging yo‘q endi. Hali shunday odam bo‘laman oyog‘imga kelib yalinasan iplos(14 yosh).

Seni shunchaligam yomon ko‘ramanki ultirib qo‘ygim keladi. E o‘l senam odammisan.(14 yosh).

Meni yomonlagan tillaring iloyim uzilip tushsin.Ko‘raman hali mendaqa dugana topasanmi(13 yosh).

Daje sani biyingam yamon ko'radiku, nimangga katta ketasan(14 yosh). Tahlil davomida qiz bolalarning nutqida noadabiy qatlamga mansub so'zlarning qo'llanilishi yosh xususiyati bilan bog'liq holda o'zgarib borishi kuzatildi, ya'ni 7-10 yoshli qizlar tomonidan yaratilgan matnlarda varvarizm, vul'garizm unsurlari deyarli uchramadi. 11-14 yoshdagi qizlar yozma nutqida esa bu holat yosh dinamikasining o'sib borishi bilan bog'liq holda o'zgarib borgan, ya'ni 14 yoshli qiz bolalar nutqida qo'pol so'z va iboralar kichik yoshdagi qiz bolalar nutqiga nisbatan ko'proq qo'llanilgan. Haqorat semasini ifodalovchi birliklardan hayvon nomlari bilan bog'liq vul'garizmlar ko'p uchradi: cho'chqa, mol, eshak, kuchuk, tovuq. Qiz bola yozma nutqini tahlil qilish davomida globallashuv jarayoninig ham sezilarli ta'siri bo'lganligini ular nutqida qo'llangan neologizmlar orqali bilishimiz mumkin. Respondentlarning 16 tasi tomonidan yaratilgan matnda neologizm unsurlari uchradi. Bu leksik birliklarning deyarli barchasi mobil aloqaga oid va ijtimoiy tarmoqlar bilan aloqador so'zlardir: vaucher, klik, WIFI, paynet, tarif, bloger, akkaunt, layk, komment, instagram, telegram, tik-tok, post, podpischik, follover, kovid, tvitter, tiktok v.h.k.

Shuningdek, qiz bolalar nutqining leksik-semantik xususiyatlarida quyidagi jihatlar matnlarda alohida ajralib turadi: O'ziga xos so'z va birikmalarining yaratilishi: Kamimni ko'paytirib, ko'pimni ko'paytirib, Onam bilan janjal qilsam, Kelajakda kim bo'lishimni aytasiz.

Haqorat semasining ifodalanishi:

a) hayvon nomlari bilan bog'liq: ayiq, kuchuk, sassiqpopishak, bo'rsiq, mol, ko'rshapalak

b) mult-qahramonlar, kinofilmlar nomi bilan bog'liq: kunfu-panda, kinkong, alvasti, ajina, jin, yumaloq, gargamel, yalmog'iz, o'lmas koshchey

c) boshqa: qiz bola, ayol (o'g'il bolalarga nisbatan), to'nka, qora negr, jirkanchik.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, qiz bolalar nutqida qo'llanuvchi leksik-semantik birliklar o'smir qizlar va katta yoshli ayollar nutqida qo'llanuvchi birliklarga qaraganda nisbatan sodda, ravon. Shuningdek, qiz bola yozma nutqida qisqartmalar, tag ma'no, kinoya singari ko'chim turlari qo'llanilmaydi. Metaforaning, asosan, kundalik nutqda faol shakllari qo'llanadi. Frazelogizmlar nutq momentiga muvofiq tanlanadi, qo'llanilish chastotasi past. Kuchli haqorat semasiga ega birliklar qo'llanilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Димитрова С. По спиралата на лингвистичните идеи // Актуални проблеми на лингвистиката. По случай 80-годишнината на проф. Стефана Димитрова / под ред. на М. Стаменов, И. Панчев. София: Акад. Изд. «МаринДринов», 2016, С. 13–25.
2. Coates, J. 1986. Women, Men and Language. Longman. Coates, J. 1989. 'Gossip revisited: language in all-female groups. ' in Cameron, D. and Coates, J. (eds.) 1989. Women in Their Speech Communities. 94-122. Longman.
3. Кирилина, А. В. Гендерные исследования в лингвистических дисциплинах [Текст] //Гендер и язык / Под ред. А. В. Кирилиной. — М., 2005. — 155 с.
4. Земская Е. А., Китайгородская М. А., Розанова Н. Н. Особенности мужской и женской речи // Русский язык в его функционировании / Под ред. Е. А. Земской и Д. Н. Шмелева. М., 1993. С. 90–136.
5. TikaOktapiani, M. Natsir, RirinSetyowati. Women's language features found in female character's utterances in the devil wears prada//Jurnal Ilmu Budaya, Volume 1 Nomor 3 Edisi Juli 2017. 207-221
6. Lakoff, R. (1975) . / /Language and woman's place. New York: Cambridge
7. Кирилина А, Томская М. Лингвистические гендерные исследования// Отечественные записки: Журнал для медленного чтения.-М.: Высшая школа экономики, 2012.-52-б.
- 8.Антинескул О. Л. Тендер как параметр текстообразования.: Дис. канд. филол. наук: 10.02.19. Пермь, 2000. - 222 с.
9. Батлер Д. Тендерное беспокойство. // Антология гендерной теории: Сб. пер. / Сост. и коммент. Гапова Е. И., Усманова А. Р. - Мн.; Пропилеи, 2000. -с. 297-342.
10. Вернер Ф. Речевое поведение женщин и мужчин. //РЖ. Сер. 6. Языкознание. - 1984. - №4.
11. Воронина, О. А. Теоретико-методологические основы гендерных исследований[Текст] / О. А. Воро-нина// Теория и методология гендерных исследований: курс лекций/ под общ. ред. О. А. Ворониной. – М.: МЦГИ– МВШСЭН– МФФ, 2001. – 416 с.
12. Горошко Е. И. Особенности мужского и женского вербального поведения (психолингвистический анализ): Дис. канд. филол. наук: 10.02.19. -М, 1996. 179 с.

13. Ощепкова Е. С. Идентификация пола автора по письменному тексту (лексико-грамматический аспект) : дисс. ... канд. филол. наук. М., 2003.
14. Гендер и язык[Текст] / Дж. Коатс, Б. Барон, Д. Камерон[и др.] ; под общ. ред. А. В. Кирилиной. –М.: Языки славянской культуры, 2005. – 623 с.
15. Федотова М, Е. Наименование лиц женского пола по профессии, в современном немецком языке.: Автореф: дис.канд. филол. наук: 10.02.04.-М., 1999.- 19 с.
16. О. С. Иссерс// Гендер: язык, культура, коммуникация: сб. докладов II Международной конференции 22–23 ноября 2001 г. – М.: МГЛУ, 2002.
17. Гальперин, И. Р. Текст как объект лингвистического исследования / И. Р. Гальперин. - М.: Наука, 1981. - 140 с.
18. Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва уларнинг лисоний тадқиқи. Филол. фан. ном... диссер. автор... -Т.,2007.-31-б.
19. Ахмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи. Филол.фан.ном...диссер.автор...-Т.,2008.-28-б.
20. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Филол. фан. номз.. дисс. – Самарқанд, 1993. –118 б.

**B.Mengliyev, K.Musulmonova , A.Murtazoyev, D.To‘rayeva,
S.Yoqubova, O.Xudayberdiyeva , G.Hotamova**

LINGVISTIK EKSPERTIZADA NUTQ TAHLILI METODIKASI

Ijodiy guruh rahbari: *Zayniddinxo ‘ja Shukurxo ‘jayev*

Muharrirlar: *Gulnora Rahmonberdiyeva,
Xudoyberdi Po ‘latxo ‘jayev*

Rassom *G‘oyibov Kamoliddin*

Sahifalovchi *Zoxidxo ‘ja Po ‘latxo ‘jayev,*

Musahhiha: *Dilnoza Jabborova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 003, 20.07.2018-y.

Bosishga 15.11.2023-yilda ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60×84 1/16. Nashr tobog‘i 9,5.

Shartli bosma taboq 9.0 Shartnoma 18/20. Adadi 100.

Buyurtma № 07

«IJOD-PRINT» MCHJ nashriyoti.

100011, Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, Navoiy 30-uy

Tel: 99 881-45-55

MCHJ «IPAK YO‘LI POLIGRAF» bosmaxonasida chop etildi

Toshkent sh., 100170, Avayhon ko‘chasi, 98 A